





LEV
TOLSTOY

OLALIK

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN



Aug 24
very enlarged
michigan Dept
Detroit Mich
J. Smith



ame
telle de
Pechs de
Côte
Mme & Mme
Tré au clerc

Meine Frau oben
heute in die
Wellenfahrt
zu gehen. Ich
versteh' es nicht
Sicherheit für mein
Haus und meine
Kinder. Ich kann das
nur mein Gott bei
Gott und

Din
Musikab-
Wirkung un-
wichtig:
feher als

w, Tag

in Da

weg und

reichtige

Dritte

zum

AKM

XIZMAT KO'RSATISH
BO'LIMI

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

LEV TOLSTOY

BOLALIK

Qissa



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

Yazet

UO'K 821.161.1

KBK (842Rus)

T 63

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Qur'onov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:


X. Muhammadxonov

Bolalik – inson hayotining eng baxtli va unutilmas davri. Chunki inson ana shu davrda shakllanadi, bilim oladi, kamol topadi.

Asar qahramoni Nikolenkaning bolalik yillari beorom kechadi. Ayniqsa uning onasidan erta ayrilishi ruhiyatiga ta'sir qildi.

Yosh bolaning ruhiy dunyosining shakllanish jarayonini hali hech bir yozuvchi Lev Tolstoychalik yorqin va chuqr tasvirlay olmagan. Adibning buyuk san'atkorlik mahorati ham ana shundadir.

Ushbu to'plam barcha kitobsevar o'quvchilarning ardoqli asarlardidan biri bo'lib qolishiga ishonamiz.



ISBN 978-9943-6831-8-1

© X. Muhammadxonov (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

N A S H R I Y O T D A N

Biz o‘tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shtan, uni o‘zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san’at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e’tirof etilib, o‘rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Ahmad Farg‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma’rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibracht ko‘zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o‘rganadigan bo‘lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo‘lib kelganlar. Jahonda ro‘y berayotgan birorta madaniy-intellektual o‘zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o‘qib, uqishar ekan, o‘z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko‘plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o‘rinda qo‘l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunaligiga nisbatan shaxsiy to‘xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo‘lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘targan bir paytda, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimiz an’anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san’ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo‘l urishga bel bog‘ladi. Ya’ni joriy yildan e’tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.



Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyl, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'Ichamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrl niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!



I BOB

O'QITUVCHI KARL IVANICH

18...-yilning 12-avgustida, xuddi men o'n yoshga to'lib, ko'p ajoyib sovg'alar olganimning uchinchi kuni ertalab soat yettida Karl Ivanich boshim tepasida pashsha o'ldiradi-gan tayoqchani shapillatib urib, meni uyg'otib yubordi. Karl Ivanich buni shunday qo'pollik bilan qildiki, qo'lidagi tayoq-cha dub karavotining bosh tomonida osilib turgan farishta suratiga tegib ketdi, o'ldirilgan pashsha esa boshimga tushdi. Men boshimni chiqarib tebranib turgan suratni qo'lim bilan to'xtatdim-da, o'ldirilgan pashshani polga olib tashladim va uyqu aralash xo'mrayib Karl Ivanichga qaradim. U ola-bula chitdan tikilgan paxtali xalat kiyib, belini o'shanaqa chit bel-bog' bilan bog'lab olgan holda boshida qizil jiyakli shokilda-li qalpoq, oyog'ida yumshoq buzi etik bilan devorlar yonida pashshalarni mo'ljalga olib shapillatib urib yurar edi.

„Kichkina bo'lganim uchun hadeb meni bezovta qilaverishi kerak ekan-da? – deb o'yladim men. – Nega Volodyaning karavoti atrofidagi pashshalarni urmaydi? U yerda pashsha to'lib yotibdi-ku. Volodya katta-da, men esa hammadan kichkinaman; shuning uchun u menga tinchlik bermaydi. Doim ozor beradi, – deb shivirladim o'zim-chi. – Meni jo'rttaga uyg'otib cho'chitib yuborganini bi-lib turibdi-ku, yana o'zini hech narsa sezmaganga oladi...

Yomon kishi! G‘alati, qalpog‘i ham shokildasi ham – hammasi yomon!“

Men ichimda Karl Ivanichdan ranjib turganimda, u o‘z karavoti yoniga borib, karavot tepasiga munchoq g‘ilofga solib osib qo‘yilgan soatiga qaradi-da, keyin shapshapni mixga ilib, juda kayfi chog‘ holda bizga yuzlandi.

– Auf, Kinder, auf..s‘ist Zeit. Die Mutter ist schon in Saal¹, – deb qichqirdi u muloyim nemis tilida, keyin mening yonimga kelib, oyoq tomonimga o‘tirdi-da, cho‘ntagidan tamakidonini oldi. Men o‘zimni uxlayotganga soldim. Karl Ivanich avval tamaki tortdi, so‘ng burnini artib, barmoqlarini qirsillatib qo‘ydi-da, men tomonga yuzlandi. U kula-kula tovonlarimni qitiqlay boshladi, – Nun, nun, Faulenzer² – dedi u.

Men qitiqlashdan qanchalik qo‘rqmayin, o‘rnimdan irg‘ib turmadim, unga javob ham bermadim, faqat boshimni yostiq ostiga yashirib, zo‘r berib oyoqlarimni tipirchilatar va kulib yubormaslikka harakat qilardim.

„Qanday yaxshi odam u, bizni shunaqa yaxshi ko‘radi, men bo‘lsam u haqda qayoqdagi bo‘lmaq‘ur narsalarni o‘ylab yuribman!“

Men o‘zimdan, Karl Ivanichdan ham xafa bo‘ldim, ham kulgim, ham yig‘lagim kelardi: asablarim buzilgan edi.

Men ko‘zlarimda yosh bilan:

– Ach? Lassen Sie³, Karl Ivanich! – deb qichqirib yubordim yostiq ostidan boshimni chiqarib.

Karl Ivanich taajjublandi, tovonlarimni qitiqlashni bas qildi-da, nechun yig‘laganimni hovliqib so‘ray boshladi.

¹Turinglar bolalar, turinglar!.. Vaqt bo‘ldi. Onangiz zaldalar (*nem.*).

²Obbo, yalqov-ey (*nem.*).

³E, tinch qo‘ysangiz-chi (*nem.*).

Balki, yomon tush ko‘rganmikan, deb surishtirib ketdi... Uning mehribon nemislarga xos chehrasi, ko‘zyoshlarim sababini payqamoq bo‘lib so‘rab-surishtiraverishi yoshimni battar oqizdi: men o‘zimdan o‘zim xijolat chekar va bundan bir daqiqa burun Karl Ivanichni yomon ko‘rganim, uning xalati, qalpog‘i va shokildasi ham ko‘zimga yomon ko‘ringani sababini tushunolmay garang edim, hozir esa aksincha, bularning hammasi menga juda suyumli bo‘lib tuyular va hatto shokildasi uning mehribonligidan ochiq guvohlik berayotganday edi. Men unga yomon tush ko‘rganim uchun yig‘ladim, deb aytdim, go‘yo maman¹ o‘lib qolgan emish-u, uni ko‘mgani olib ketishayotgan emish. Men bularni hammasini ichimdan to‘qidim, negaki shu kecha nima tush ko‘rganim mutlaqo esimda qolmagan edi; lekin so‘zlarimdan ta’sirlangan Karl Ivanich meni yupatib tasalli bera boshladi, nazarimda, haqiqatan ham shunday dahshatli tush ko‘rganday bo‘lib ketdim va bu gal boshqa sabablarga ko‘ra, ko‘zimdan shashqator yosh to‘kilaverdi.

Karl Ivanich meni yolg‘iz qoldirib ketganidan keyin, o‘rnimdan turib o‘tirib, kichkina oyoqlarimga paypoq kiya boshlaganimda, ko‘zyoshlarim ancha tiyilib qolgan bo‘lsa ham, lekin o‘zimcha to‘qigan tush haqidagi mudhish fikrlar hamon xayolimdan ketmas edi. Shu orada Nikolay amaki kirib keldi. Xipchagina, ozoda, hamma vaqt sipo ko‘rindigan batartib, hurmatli bu kishi Karl Ivanichning jonajon do‘sti edi. U bizga kiyim-boshlarimizni: Volodyaga etigini, menga esa jonimga tekkan bog‘ichli botinkamni olib kirgan edi. Nikolay amakini oldida yig‘lashga uyalardim; yana buning ustiga ertalabki quyosh derazadan nur sochar, Volodya esa umivalnik yonida turib, opamning murabbiyasi Mariya Ivanovnaning jig‘iga tegib, shunchalik

¹Maman – „Ona“ so‘zining erkalab aytilgani.

qah-qahlab kularidiki, hatto yelkasiga sochiq tashlab, bir qo‘lidasovun, ikkinchi qo‘lida obdasta ushlab turgan sipo-tabiati Nikolay amaki ham jilmayib:

– Bas endi, Vladimir Petrovich, qani yuvina qoling, – dedi.

Mening butunlay ko‘nglim chog‘ bo‘lib ketdi.

Darsxona tomondan Karl Ivanichning:

– Sind Sie bald feritig?¹ – degan ovozi eshitilib qoldi.

Endi uning ovozi jiddiy eshitildi, meni yig‘latib yubor-gan boyagi mehribonlik ifodasi yo‘q edi. Darsxonada Karl Ivanich butunlay boshqa bir odam: murabbiy edi. Men apil-tapil yuvindim-da, kiyinib ho‘l sochlarmi cho‘tkada silliqlab, uning huzuriga bordim.

Ko‘zoynagini qanshari ustiga qo‘ndirib olgan Karl Ivanich qo‘lida kitob ushlagancha, eshik bilan deraza orali-g‘idagi o‘zining odatdagи joyida o‘tirar edi. Eshikni chap tomonida ikkita javon bo‘lib, biri – bizniki, bolalarniki, ik-kinchisi – Karl Ivanichga qarashli edi. Bizning javonda har turli kitoblar – darsliklar va boshqa tur kitoblar bo‘lib, ularning ba’zilari tik, ba’zilari yotqizib qo‘ylgandi. Ikki tomdan iborat qizil muqovali *Histoire des voyages*² gina devorga batartib tiralib turardi; so‘ngra uzun, qalin, katta va kichik kitoblar qalashib ketgandi, ba’zilari muqovasiz va ba’zilari quruq muqovaning o‘zidan iborat edi. Karl Ivanich bu javoni dabdabali qilib kutubxona deb atardi. Dars tugash oldidan kutubxonani tartibga keltirish buyurilganida, hamma kitoblar duch kelgan joyga tiqishtirib ketilaverardi. Karl Ivanichning javonidagi kitoblar biznikicha ko‘p bo‘lmasa-da, lekin xilma-xil edi. Bulardan uchtasi mening esimda: biri – karam ekiladigan polizni o‘g‘itlash to‘g‘risidagi muqovasiz nemis-

¹ Teżrəq bo‘la qolasizlarmi? (*nem.*)

² Azizim (*nem.*)

cha kitob, ikkinchisi – Yetti yillik urush tarixi tomligi bo‘lib, uning pergament¹ muqovasining bir chekkasiga qo‘ygandi, uchinchisi esa gidrostatikaning to‘la kursi edi. Karl Ivanich ko‘p vaqtini kitobxonlik bilan o‘tkazardi, ko‘p o‘qiyverganidan hatto ko‘zlarini xiralashib qolgandi; lekin u ana shu kitoblar va „Shimol asalarisi“ degan jurnaldan boshqa hech narsa o‘qimasdi.

Karl Ivanichning javonidagi buyumlari ichida bir narsa uni ko‘proq esimga solib turardi. Bu yog‘och ustiga qo‘ndirilgan karton chambarak bo‘lib, u barmoq bilan bura-sa aylanardi. Chambarakka bir boyvuchcha bilan sartarosh tasvirlangan karikatura yopishtirilgan edi. Karl Ivanich narsalarni juda boplab yopishtirardi, bu chambarakni u ojiz ko‘zlarini o‘tkir yorug‘likdan saqlash uchun o‘zi ix-tiro qilgan edi. Men paxtali xalat kiygan, ostidan siyrak oq sochlari chiqib turgan qizil qalpoqdagi Karl Ivanichning uzun qomatini xuddi hozir ko‘rib turgandayman. U stolcha yonida o‘tiradi, stolcha ustidan sartarosh rasmi yopishtirilgan chambarak Karl Ivanichning yuziga soya tashlagandi; u bir qo‘lida kitob ushlab, ikkinchi qo‘lini kreslo dastasi-ga tashlagancha o‘tiribdi; oldida siferblatida ovchi rasmi solingan soat, katak ro‘molcha, yumaloq qora tamakidon, yashil ko‘zoynak g‘ilofi, quticha to‘la qisqichlar yotibdi. Bularning hammasi joy-joyida shunday tartibda terilgan ediki, shu saranjomlikning o‘zidanoq Karl Ivanich vijdoni pok, ko‘ngli xotirjam odam ekanini bilish mumkin edi.

Pastdagi zalda rosa yugurishib charchagandan keyin oyoq uchida yurib yuqoridagi darsxonaga chiqqanda Karl Ivanich bir o‘zi kreslosida o‘tirib, ulug‘vor bir qiyofada xotirjamlik bilan sevgan kitoblaridan birini o‘qiyotgan bo‘lardi. Goho men unga kitob o‘qimayotgan paytda ham duch kelib qolar

¹ Pergament – qadim zamonalarda qog‘oz o‘rnida ishlataligan teri.

edim: bunday paytlarda katta qirg‘iy burni ustida ko‘zoynagi osilib turar, yarim yumuq moviy ko‘zлari qandaydir alohida ma’noli boqib, lablari esa g‘amgin kulimsirab turardi. Uyda jimjitlik hukm surar, faqat uning bir tekisda nafas olishi va ovchi rasmlı soatining chiqillashigina eshitilardi.

Ba’zan u meni payqamasdi, men bo‘lsa eshik oldida turib qolganimcha o‘ylardim; „Boyaqish chol! Biz ko‘pchi likmiz, o‘ynaymiz, kulamiz, u bo‘lsa – yakka-yolg‘iz, hech kim uni erkalamaydi. U yetimman degancha bor ekan. Uning ko‘rgan-kechirganlari naqadar dahshatli! Bularni Nikolayga gapirib bergani esimda, uning ahvoli hech kimning boshiga tushmasin!“ Ba’zan biram rahmim kelandiki, shunda oldiga borib, qo‘lini ushlab turib: „Lieber¹ Karl Ivanich!“ – derdim. Mening shunday deyishim unga yoqardi; shunda u meni suyib erkalar va bu gapimdan juda ta’sirlangani sezilib turardi.

Boshqa devorda geografiya xaritalari osig‘liq turardi, ularning hammasi deyarli yirtilib ketgan, lekin Karl Ivanichning qo‘li bilan boplab yamalgan edi. Uchinchi devorning o‘rtasida pastga o‘tiladigan eshik bor, eshikning bir tomoniga ikkita chizg‘ich osib qo‘yilgan: bulardan biri – eskisi bizniki, ikkinchisi – yap-yangisi Karl Ivanichga qarashli edi, u o‘z chizg‘ichini chiziq tortishdan ham ko‘ra ko‘proq kishining havasini keltirish uchun ishlatardi. Eshikning ikkinchi tomonida qora doska bor, bizning qilgan yomon ishlarimiz shu doskaga yozib borilardi; ko‘proq yomonlik qilganda doiracha, kichkina yomonlik qilganimizda krest tortib qo‘yildi. Doskaning chap tomoni burchak bo‘lib, u yerda bizni tiz cho‘ktirib qo‘yishardi.

Bu burchak hali-hanuz esimda! Pechkaning qopqog‘i uning ostidagi havo yo‘li, uni burgan paytlarda chiqaradigan

¹Lieber – azizim (nem.).

shovqinni ham eslayman. Ba'zan burchakda turaverganim-dan tizzalarim va belim shunday og'rib ketardiki, oxiri „Karl Ivanich meni esidan chiqarib qo'ydi, yumshoq kreslo-da o'tirib, o'zining gidrostatikasini o'qish albatta maza-da, mening holim-chi?“ – deb o'ylardim-da, o'zimni Karl Ivanichning esiga solmoq uchun sekin pechka qopqog'ini ochib-yopishga yoki devor shuvog'ini qirtishlab tushirishga urinardim. Bordi-yu devordan kattaroq bir parcha ko'chib, yerga tapillab tushgudek bo'lsa, yuragim shig' etib ketardi, bu har qanday jazodan yomon edi. Shunda Karl Ivanichga qarasam, u qo'lida kitob ushlagancha, go'yo hech narsa pay-qamaganday o'tiraverganini ko'rardim.

Uyning o'rtasida bir stol turar, ustiga yirtilib ketgan qora klyonka yozib qo'yilgandi, buning ostidan stolning qalamtarosh bilan birmuncha yeridan taram-taram qilib qirqilgan chekkalari ko'rinib turardi. Stolning tevarak-atrofida bo'yalmagan bo'lsa ham utilaverib yaltillab ketgan bir nechta taburetka bor edi. Devorning to'rtinchı tomonini uch deraza band qilgandi. Derazalardan mana bunday manzara ko'rindi: derazaning shunday takkinasidan yo'l o'tgan, yo'lning har bir o'nqir-cho'nqiri, har bir toshi, har bir izi menga ko'pdan tanish va aziz edi; yo'lning narigi tomonida butalgan arg'uvon daraxtlari o'sgan bo'lib, xiyobonning orqasidan unda-bunda chetan devor ko'zga tashlanadi; xiyobonning naryog'i pichanzor, pichanzorning bir tomonida g'aram, ro'parada esa o'rmonzor ko'rindi. Ancha yiroqda qorovulning kulbasi ko'zga chalinadi. Derazaning o'ng tomonida ayvonning bir chekkasi ko'rinib turadi, odatda, tushki ovqat oldidan shu ayvonda o'tirishadi. Ba'zan Karl Ivanich diktantni tuzatib o'tirgan paytlarda men o'sha tomonga qarab onamning qora sochli boshini, kimningdir yelkasini ko'rар va odamlarning g'ovur-g'uvuri hamda kulgi ovozlarini

g‘ira-shira eshitardim. O‘sha yerda bo‘lolmasligim alam qilib o‘zimdan o‘zim: „Qachon men ham katta bo‘lamanda, o‘qishni yig‘ishtirib, o‘zim bilan o‘zim gaplashib o‘tirmay, sevgan odamlarim bilan gaplashib o‘tiramani?“ – deb o‘ylar edim. Alam xafalikka aylanib, Xudo bilsin, nima uchun va nima to‘g‘risidadir shunday o‘yga cho‘mib ketardimki, Karl Ivanichning xatolardan diqqati oshib jerkiganini ham eshitmay qolardim.

Karl Ivanich xalatini yechib, yelkasi burmali va ko‘tarilgan ko‘kimdir frakini kiydi-da, oyna oldida bo‘yinbog‘ini tuzatib, onam bilan ko‘rishtirmoq uchun bizni pastga boshlab tushdi.

II bob

MAMAN

Onam mehmonxonada o‘tirib, choy quyar edi; bir qo‘li bilan choynakni, ikkinchi qo‘li bilan esa samovar jo‘mragini ushlab turardi, jo‘mrakdan tushayotgan suv choynakdan toshib, patnisga oqayotgan edi. Garchi u tikilib qarab turgan bo‘lsa ham, bu holni sezmayotgan edi, hatto bizning kirganimizni ham payqamadi. Biror sevgan kishingning siymosini xayolingda gavdalantirmoqchi bo‘lsang, shunchalik ko‘p o‘tmish xotiralari namoyon bo‘ladiki, bu xotiralar uning jamolini xiralashtirib yuboradi va sen uni ko‘zyoshlari orasidan ko‘rganday g‘ira-shira ko‘rasan. Bular tasavvur ko‘zyoshlaridir. Men onamning o‘sha vaqt dagi siymosini eslamoqchi bo‘lsam, uning hamisha bir xilda saxovat va muhabbat yog‘ilib turgan qo‘y ko‘zлari, bo‘ynidagi, mayin sochlardan pastroqdagi xoli, oppoq yoqasi, meni erkalab tez-tez o‘pib turadigan labi-yu nozik qotma qo‘llarigina ko‘z oldimga keladi; uning butun qiyofasi esa mendan uzoqlashib boradi.

Divanning chap tomonida eski ingliz royali turardi; qorachadan kelgan opam Lyubochka royal oldida o'tirib hozirgina sovuq suvda yuvib kelgani uchun qizarib ketgan barmoqlarini o'ynatib, anchayin diqqat bilan Clementi etyudlarini chalardi. Lyubochka o'n bir yoshda edi; u ip gazlamadan kaltagina ko'yjak, chetiga to'r tutilgan oppoq lozim kiyar va faqat arpeggio¹ aktavalarini chala bilardi. Uning yonginasida qiya bo'lib Marya Ivanovna o'tirardi. U boshiga pushti lentali chepchig, egniga oldi ochiq ko'k kofta kiygandi. Uning qizarib ketgan jahldor yuzi Karl Ivanich kirib kelishi bilan yanada jiddiy tus oldi. U Karl Ivanichga zarda bilan qaradi va uning salomiga ham alik olmasdan yer tepingancha: un, deux, trois, un, deux, trois² deb oldingidan ham qattiqroq va amirona ohangda sanayverdi.

Karl Ivanich bunga hech parvo qilmay, o'z odaticha, nemislarga xos tavoze bilan to'ppa-to'g'ri onamga peshvoz chiqdi. Onam o'ziga kelib, go'yo qayg'uli fikrlarini quv-lamoqchi bo'lganday, boshini silkib, Karl Ivanichga qo'lini uzatdi va Karl Ivanich uning qo'lini o'payotgan paytda u ham Karl Ivanichning ajin bosgan chakkasidan o'pdi va:

– Jch danke, liber³, Karl Ivanich, dedi-da, nemischa gapirishda davom etib: – Bolalar yaxshi uxlashdimi? – deb so'radi.

Karl Ivanichning bir qulog'i yaxshi eshitmas edi, hozir esa royalning shovqinidan sira ham eshitmadi. U divanga yaqinroq egildi-da, bir qo'li bilan stolga tiralib, bir oyoqda turgancha tabassum bilan (bu tabassum o'sha paytda menga nihoyatda nazokatli bo'lib tuyulgan edi) qalpog'ini boshi uzra ko'tarib:

¹ Arpejio – ketma-ket keladiganakkord tovushlar.

² „Bir, ikki, uch, bir, ikki, uch“ (frans.).

³ Tashakkur aytaman, azizim (nem.).

— Meni kechirasiz, Natalya Nikolayevna! — dedi.

Karl Ivanich sochsiz boshini shamollatib qo‘ymaslik uchun sira boshidan qizil qalpog‘ini olmas, lekin har safar mehmonxonaga kirganda buning uchun uzr so‘rar edi.

Maman unga tomon surilib, xiyla qattiqroq ovoz bilan:

— Kiying, Karl Ivanich... Men sizdan, bolalar yaxshi uxmlashdimi deb so‘rayapman, — dedi.

Biroq Karl Ivanich yana eshitmadi, qizil qalpog‘ini boshiga ilib, yana ham muloyim kulimsiradi.

— Bir minutga to‘xtang, Mimi, — dedi maman tabassum bilan Marya Ivanovnaga, — hech narsa eshitib bo‘lmayapti.

Onamning yuzi g‘oyatda yoqimli bo‘lsa ham, u tabassum qilganida beqiyos latofat kasb etar va hamma yoqqa fayz kiritib yuborar edi. Agar hayotimning og‘ir damlarida bir lahza bo‘lsa ham shu tabassumni ko‘ra ol-sam g‘am-g‘ussa nima ekanligini bilmas edim. Mening nazarimda, yuzning go‘zalligi faqat tabassumga bog‘liq: agar tabassum yuzning ko‘rkamligini orttirsa, u yuz go‘zal; tabassum yuzni o‘zgartirmasa, u oddiy yuz; agar u yuzni buzsa, u holda bu xunuk yuz.

Maman men bilan ko‘rishib bo‘lgach, ikki qo‘li bilan boshimni ushlab, orqaga egdi-da, menga tikilib qarab:

— Bugun yig‘ladingmi? — dedi.

Men javob bermadim. U ko‘zlarimdan o‘pdi-da, nemis tilida:

— Nega yig‘lading, — deb so‘radi.

Onam bizlar bilan do‘stlarcha gaplashganida har vaqt nemischa gapirardi, bu tilni mukammal bilardi.

Men o‘zim to‘qigan tushni butun tafsilotlarigacha esga olib, bundan beixtiyor titragan holda:

— Tushimda yig‘ladim maman, — dedim.

Karl Ivanich mening so‘zlarimni tasdiqladi-yu, lekin tush to‘g‘ondi indamidi. Maman yana ob-havo to‘g‘risi viloyat AKM

Abdulla Qodirli indamidi

INV № 2023/23-75

da biroz gaplashdi, bunga Mimi ham qo'shildi. So'ng'ra ba'zi hurmatli xizmatchilar uchun patnisga olti bo'lak qand tashladi-da, o'midan qo'zg'alib, deraza oldida turgan chambaraklar yoniga keldi.

— Qani, bolalar, endi otangizning oldiga boringlar, xir-monga ketib qolmasidan avval albatta menga uchrashsin, tayinlab aytinglar unga, — dedi.

Shundan keyin musiqa chalishlar, sanashlar va g'azabli qarashlar yana boshlandi, biz bo'lsak otamning oldiga ket-dik. Bobom zamonidan beri xizmatkorxona deb kelingan uydan o'tib, otamning kabinetiga kirdik.

III bob

OTAM

Otam yozuv stoli yonida turib, qandaydir konvertlar, qog'ozlar va bir dasta pulga ishora qilib achchiqlanar va prikazchik Yakov Mixaylovichga nimalarnidir qizishib tu-shuntirardi. Yakov eshik bilan barometr oralig'idagi o'zingning odatdag'i joyida qo'llarini orqasiga olib turardi, u shu topda barmoqlarini har xil maqomda tez-tez o'ynatardi.

Otam qanchalik ko'p qizishsa, Yakov ham barmoqlarini shunchalik tez-tez o'ynatar va aksincha: otam jim bo'lganida barmoqlar ham harakatdan to'xtardi. Yakovning o'zi gapira boshlaganida esa barmoqlari juda tez qimirlar, har tarafga o'ynab ketardi. Nazarimda, barmoqlari harakatidan Yakovning aytmoqchi bo'layotgan fikrlarini payqab olish mumkinday tuyular edi; yuzi esa doimo sokin bo'lib, o'z izzatini bilishligini va ayni vaqtda birovga qaramligini anglashini ifodalar, ya'ni men haqman, lekin ix-tiyor o'zingda, deyayotganday bo'lardi.

Otam bizni ko'rishi bilan:

— To'xtanglar hozir, — dedi, xolos.

Keyin eshikni bekitinglar deganday, boshi bilan o'sha tomonga ishora qildi.

— Ey, Xudoyim-ey! Nima bo'ldi bugun senga, Yakov? — deb davom etdi otam yelkasini uchirib (uning shunday odati bor edi), — konvert ichidagi mana bu — sakkiz yuz so'm...

Yakov cho'tni oldiga surib, kerakli sonni ajratdi-da, bu yog'iga nima bo'lishini kutib, bir nuqtaga tikilib qoldi.

— ...men yo'g'imda bo'ladigan xarajatlar uchun. Tu-shundingmi? Tegirmon uchun ming so'm olishing kerak... shundaymi, yo'qmi? Xazinadan garovga berilgan sakkiz mingni qaytarib olishing, o'zingning mo'ljalingcha, yetti ming pichan sotish mumkin, bunga qirq besh tiyindan solaman, bo'ladi uch ming so'm; demak hammasi bo'lib senda qancha pul bo'ladi? O'n ikki ming so'm... shundaymi, yo'qmi?

— Xuddi shunday, — dedi Yakov.

Lekin barmoqlarining tez-tez o'ynayotganidan, Yakov e'tiroz bildirmoqchi ekanini payqadim; otam uning so'zini bo'ldi:

— Hay, bu puldan o'n mingini Petrovskoye uchun Sovetga yuborasan. Idoradagi pullarni bo'lsa, — deya otam so'zini dayom ettirdi (Yakov avvalgi o'n ikki mingni qo'shib, yigirma bir ming ajratdi), — menga keltirasan va bugungi sana bilan chiqimda ko'rsatasan. — Yakov cho'tni aralashtirib, hammasini qaytarib tashladi, bu bilan u chamasi yigirma bir ming so'm ham nes-nobud bo'lib ketishini ko'rsatmoqchi bo'lgan edi. — Ichiga pul solingan mana bu konvertni bo'lsa, mening nomimdan ustiga yozilgan manzilga yetkazasan.

Men stolga yaqin turganim uchun konvert ustidagi yozuvga ko'z tashladim. Unda, „Karl Ivanich Mauerga“ deb yozilgan edi.

Otam men bilmasligim lozim bo'lgan narsani o'qiganimni payqagan bo'lsa kerak, yelkamga qo'lini qo'ydi-da,

yengil harakat bilan stoldan nariroq borib turishimga ishora qildi. Men buni erkalashmi yoki tanbehmi tushunmay, har ehtimoldan otamning, yelkamga qo‘yilgan yo‘g‘on va tomirlari irg‘ib chiqqan qo‘lini o‘pdim.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi Yakov. – Xabarovkadan keladigan pullar xususida qanday buyruq bo‘ladi?

Xabarovka mamanning qishlog‘i edi.

– Ular idorada qoldirilsin, mening buyrug‘imsiz hech narsa sarf etilmasin.

Yakov bir necha daqiqa indamay turdi; so‘ngra barmoqlari birdan juda chaqqon qimirlab qoldi. Odatda, u xo‘jayinning buyruqlarini eshitayotganida, o‘zini fahmsiz itoatkor kishilardek tutar edi. Hozir u ana shu holatini o‘ziga xos bo‘lgan farosatli mug‘ambirlik bilan almashtirib, cho‘tni yoniga tortib gapira ketdi.

– Axborotingiz uchun aytishga ruxsat etsangiz, Pyotr Aleksandrovich, yana ixtiyor o‘zingizda-ku, lekin sovetga o‘z muddatida to‘lab bo‘lmaydi. Siz aytyapsizki, – u so‘zini salmoqlanib davom ettirdi, – garov pullari, tegirmon va pichan pullari yig‘ilishi kerak deb... (Yakov yana shu daromad manbalarini sanar ekan, ularni birma-bir cho‘tga solardi), faqat men hisobimizda yanglishmasak deb qo‘rqa-man, – deb qo‘shib qo‘ydi u, biroz jim qolib va otamga ma’noli qarab.

– Nima sababdan?

– Marhamat qilib, mana ko‘rsinlar: tegirmon xususida gapiradigan bo‘lsa, tegirmonchi ikki marta oldimga kelib, muhlatni cho‘zishni so‘rab ketdi. Pulim bo‘lsa, Xudo ursin, deydi... hozir o‘zi shu yerda: marhamat qilib, o‘zlarini bir gaplashib ko‘rsalar qanday bo‘larkin?

Otam boshi bilan ishora qilib, tegirmonchi bilan gaplashishni istamasligini bildirib:

– Nima deydi u? – deb so‘radi.

— Nima derdi? Un tortilmayapti deydi, bor-yo‘q pulni to‘g‘onga sarf qilibdi. Bordi-yu uni bo‘shatib yuborgani-miz bilan baribir hisobimiz to‘g‘ri kelarmidi, taqsir ijara to‘g‘risida gapirishni ixtiyor etdilar, bu xususda o‘zlariga gapirgan bo‘lsam kerak — pullarimiz u yerda tutilib qolgan, tez orada ularni olib bo‘lmaydi. Men tunov kuni shaharga Ivan Afanasichga bir arava un bilan bu ish to‘g‘risida xat yozib yubordim: ular ham, Pyotr Aleksandrovichning har qancha xizmatlarini bajon-u dil ado etishga tayyormiz-u, lekin bu ish mening ixtiyorimdagи narsa emas, deb javob qilibdi, shularning hammasidan ko‘rinib turibdiki, ikki oy-dan keyin ham kvitansiyalarning qo‘lga tegishi dargumon. So‘ngra, pichan xususida gapirishni ixtiyor etdilar — faraz qilaylik, uch ming so‘mlik pichan sotildi ham...

Yakov cho‘tga uch ming so‘m tashlab, dam cho‘tga, dam otamning ko‘ziga boqib, bir daqiqagina jim qoldi. O‘zining bu qarashi bilan u go‘yo:

„Ko‘rib turibsiz, bor-yo‘q pul shu! Yana pichanni hozir sotadigan bo‘lsak, bundan ham zarar ko‘ramiz, yana ixtiyor o‘zingizda...“ deyayotganday edi.

Uning hali bir talay dalil va isbotlari borligi ko‘rinib turardi, shuning uchun bo‘lsa kerak, otam uning so‘zini bo‘ldi.

— Men o‘z farmoyishlarimni o‘zgartirmayman, — dedi u, — lekin bu pullarni undirib olish haqiqatan ham kechi-kadigan bo‘lsa, keragicha Xabarovka pullaridan olasan, boshqa chora yo‘q.

— Xo‘p bo‘ladi.

Yakovning yuz ifodasidan va barmoqlarining harakatidan bu buyruq unga juda ma’qul bo‘lganligi sezilib turardi.

Yakov krepostnoy bo‘lib, juda şerharakat va sodiq odam edi. U hamma yaxshi prikazchiklar singari o‘z

xo‘jayinining har bir tiyini ustida o‘lguday tortishar va xo‘jayinning manfaatini juda g‘alati tushunar edi. U mudom xo‘jayinining mulkini boyvuchchaning mulki hisobi-ga orttirish payida bo‘lar, boyvuchchaning yer mulkidan tushadigan daromadlarning hammasini Petrovskoyega (biz yashaydigan qishloq) sarflash zarurligini isbotlashga harakat qilardi. Ayni hozir ham bunga to‘la muvaffaq bo‘lgani uchun juda vaqt chog‘ edi.

Otam biz bilan salomlashgandan so‘ng, endi qishloq-da laqillab kun o‘tkazishni bas qilinglar, kap-katta bo‘lib qoldinglar, o‘qishga jiddiy kirishadigan vaqt keldi, dedi.

– Bilsangiz kerak, bugun kechasi Moskvaga jo‘nab ketmoqchiman, sizlarni ham o‘zim bilan olib ketaman, – dedi u. – U yerda buvingiz bilan birga yashaysiz. Maman qizlari bilan bu yerda qoladi. Uni yupatadigan birdan bir narsa – sizlarning yaxshi o‘qiyotganingizni va hamma sizdan xursand ekanligini eshitish bo‘ladi, shu gap esingizda bo‘lsin.

Bir necha kundan beri ko‘rilayotgan taradduddan qandaydir bir ish bo‘lishini kutgan bo‘lsak ham, biroq bu yangi gap bizni yomon hayratda qoldirdi. Volodya qizarib ketdi va titragan tovush bilan onam tayinlagan gapni aytdi.

„Tushim bejiz emas ekan-da! – deb o‘yladim men. – Xudo o‘zi asrasin, ishqilib holimiz bundan battar bo‘lmasin“.

Onamga juda-juda rahmim keldi, lekin shu bilan birga, katta bo‘lib qolganligimizni o‘ylab suyunardim.

„Agar bugun ketsak, demak, dars ham bo‘lmaydi; hammasidan shunisi soz bo‘ladi! – deb o‘yladim. – Lekin Karl Ivanichga achinaman. Endi uni bo‘shatib yuboradilar, bo‘lmasa unga boyagi konvertni hozirlamas edilar... Qaytaga onamdan ayrilmasdan, bechora Karl Ivanichni xafa

qilmasdan, hech qayerga ketmay, umrbod o‘qiyverganimiz yaxshi edi. Karl Ivanich shusiz ham juda baxtsiz!“

Shu fikrlar xayolimdan o‘tdi; men turgan yerimdan qimirlamay botinkamning qora bog‘ichlariga tikilganimcha qoldim.

Otam barometrning tushganligi to‘g‘risida Karl Ivanich bilan ikki-uch og‘iz gaplashgach, safarga chiqish oldidan, tushki ovqatdan keyin oxirgi marta ovga chiqish uchun yosh tozi itlarga ovqat bermaslikni Yakovga tayinladi-da, bizni, kutganimning aksi, dars qilishga yubordi, lekin bizni ovutish uchun darsdan so‘ng ovga olib borishga va‘da qildi.

Darsxonaga keta turib yo‘l-yo‘lakay ayvonga kirib o‘tdim. Eshik ostonasida o‘zini oftobda tovlab, otamning yaxshi ko‘rgan tozi iti – Milka cho‘zilib yotardi.

– Milkajon, – dedim uni erkalab va tumshug‘idan o‘pa turib, – biz bugun ketamiz. Xayr! Boshqa ko‘rishmaymiz.

Keyin o‘pkam to‘lib, yig‘lab yubordim.

IV bob

DARSXONA

Karl Ivanichning avzoyi buzuq edi. Bu uning chimirilgan qoshlaridan, uzun kamzulini yechib komodga uloqtirishi va zarda bilan belini tortib bog‘lashidan, dialoglar kitobidan yod olishimiz lozim bo‘lgan qismini tirnog‘i bilan qattiq chizib belgilashidan sezilib turardi. Volodya dup-durust o‘qirdi; mening bo‘lsa, ko‘nglim shunchalik g‘ash ediki, hech narsa qilolmasdim. Dialoglar kitobiga anchagacha ma’nosiz qarab turdim, lekin bo‘lajak ayriqni o‘ylaganimda ko‘zimga yosh kelib o‘qiy olmadim; o‘qiganlarimni Karl Ivanichga gapirib berish payti kelganda, u ko‘zlarini qisib (bu yomonlik alomati edi),

menga quloq berib turdi. Kitobning shunday bir yeriga, ya’ni bir odam: Wo kommen Sie her?¹ – deganida, bosh-qasi Jch komme vom kaffe – Hause² deb javob beradigan yeriga kelganimda, ko‘zyoshlarimni ortiq tiyolmadim va ho‘ngrab yig‘lab yuborib: Haben Sie die Zeitung nicht gelesen³ jumlasini aytolmadim. Husnixatga gal kelganida marjon bo‘lib tomgan ko‘zyoshlarim qog‘oz betini jiqqa ho‘l qilib yubordi.

Karl Ivanichning zardasi qaynadi, meni burchakka olib borib tiz cho‘ktirib qo‘ydi va bu o‘jarlik, qo‘g‘irchoq o‘yini deb koyidi (bu uning yaxshi ko‘rgan so‘zi edi). U chizg‘ich bilan menga po‘pisa qilib, uzr so‘rashimni talab qildi, holbuki men ko‘zyoshlarimdan bir og‘iz so‘z aytolmasdim; nihoyat, u o‘zinig haqsizligini sezdi shekilli, eshikni tars etib yopib, Nikolayning xonasiga chiqib ketdi.

Nikolayning xonasida bo‘layotgan gaplar darsxonadan eshitilib turardi.

– Bolalarning Moskvaga ketishini eshitdingmi, Nikolay? – dedi Karl Ivanich xonaga kirarkan.

– Nega eshitmay, eshitdim.

Nikolay o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi chamasi, Karl Ivanich: „O‘tiraver, Nikolay!“ – dedi-da, eshikni berkitdi. Men, ularning gapiga quloq solgani eshik oldiga bordim.

– Odamlarga qancha yaxshilik qilma, qancha mehr qo‘yma, baribir rahmat eshitmas ekansan, Nikolay? – dedi Karl Ivanich hasrat qilib.

Deraza yonida etik tikib o‘tirgan Nikolay uning gapini ma’qullab boshini tebratib qo‘ydi.

– O‘n ikki yil bo‘libdiki, shu xonadonda yashayman, – deb so‘zida davom etdi Karl Ivanich. Ko‘zlari shipga tikildi

¹ Tashakkur aytaman, azizim (*nem.*).

² „Men qahvaxonadan kelayotirman“ (*nem.*).

³ „Gazetani o‘qimadingmi?“ (*nem.*).

va tamakidonini ko‘tarib, – Xudoning oldida ham ayta ola-man, men ularni bolalarimdan ziyoda sevardim, ular bilan shunchalik shug‘ullandimki, o‘z bolalarim bo‘lganida ham bunchalik qilmas edim. Esingdami, Nikolay, Volodka isit-malaganida to‘qqiz kungacha mijja qoqmay, uning to‘sagi oldida o‘tirib chiqdim. Ha! Unda men yaxshi, mehribon Karl Ivanich edim, unda men kerak edim; endi bo‘lsa, – zahar-xanda kulib davom etdi, – *endi bolalar katta bo‘lib qolishib-di; ular jiddiy o‘qishlari kerak emish.* Go‘yo ular bu yerda o‘qimayotganday, bilingmi, Nikolay?

Nikolay bigizni qo‘yib, ikki qo‘li bilan mumlangan ipni tortar ekan:

– O‘qish tag‘in qanaqa bo‘larkan? – dedi.

– Ha, endi men kerak bo‘lmay qolibman, meni hay-dash kerak ekan; xo‘s, va’dalar qayda qoldi? Minnatdorlik qani? Natalya Nikolayevnani hurmatlayman va yaxshi ko‘raman, Nikolay, – dedi Karl Ivanich qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, – lekin uning qo‘lidan nima kelardi?.. Bu uyda uning e’tibori nima-yu, mana bu narsa nima, – shunday deb u bir charm qiyqimni yerga urdi. – Bu kimning ishi ekanini va nechuk keraksiz bo‘lib qolganimni bilaman o‘zim: bu-ning sababi shuki, men boshqalar singari tilyog‘lamalikni va sizniki ma’qul deb turishni bilmayman. Men hamisha va hammaning oldida rost gapirishga odatlanganman, – dedi u mag‘rur. – Mayli, Xudoga soldim! Men bu yerda bo‘lmanim bilan ular boyib qolishmaydi. Men bo‘lsam, Xudo razzoq, rizqimni topib yeymen... Shunday emasmi, Nikolay?

Nikolay boshini ko‘tardi-da, Karl Ivanichning haqiqatan ham rizqini topib yeya olishiga ishonch hosil qilmoqchi bo‘lganday, unga qarab qo‘ydi-yu, lekin hech narsa demadi.

Karl Ivanich shu zaylda ko‘p va uzoq gapirdi: u ilgari bir generalnikida yashaganida xizmatining qadriga yet-

ganlari haqida (buni eshitish menga juda og‘ir bo‘ldi), Saksoniya, o‘z ota-onasi o‘zining Schonheit ismli tikuv-chi do‘sti va shu kabi boshqa narsalar to‘g‘risida gapirdi.

Men uning qayg‘u hasratlarini eshitib achindim, otam bilan Karl Ivanichni deyarli bir xilda yaxshi ko‘rardim, shuning uchun ularning bir-birlarini tushunmaganliklari menga juda og‘ir tuyuldi. Men yana burchakka borib, tiz cho‘kib o‘tirdim-da, ularni qanday qilib yarashtirish haqida o‘ylay ketdim.

Karl Ivanich darsxonaga qaytgach, menga o‘rnimdan turib imlo yozishga daftar tayyorlashni buyurdi. Hamma narsa tayyor bo‘lgach, u viqor bilan o‘z kreslosiga o‘tirdi-da, xuddi chuqur bir joydan chiqayotgan tovush bilan diktovka qila boshladi: „Von al-len Lei-den-schaf-ten die grau-samste ist... haben Sie geschrieben?“ Shu yerda u to‘xtab sekingina tamaki hidlab oldi-da, nafasini biroz rostlagach, davom etdi: „Die grausamste ist die Un-dank-barkeit... Ein grosses U²“. Men oxirgi so‘zini yozib bo‘lgach, davomini kutib, unga qaradim.

Karl Ivanich sezilar-sezilmas kulimsirab:

– Punktum,³ – dedi va daftarimizni uzatishga ishora qildi.

Uning yuragidagi fikrni ifoda qilgan bu hikmatli gapni Karl Ivanich turli ohangda va juda zavqlanib qayta-qayta o‘qidi; so‘ngra bizga tarixdan dars berib, deraza yoniga borib o‘tirdi. Lekin avvalgidek qovoq-tumshug‘i soliq emasdi; uning chehrasi dilni og‘ritganlardan haqli ravishda o‘ch olgan kishining mammuniyatini ifodalar edi.

Soat chorakam bir bo‘lsa ham Karl Ivanich bizni ozod qilishni xayoliga keltirmayotganday ko‘rinar edi. U ha-deb ustma-ust yangi darslar berardi. Bizning diqqatimiz

¹ „Hamma illatlar ichida eng og‘iri... yozdingizmi?“

² „Eng og‘iri yaxshilikni bilmaslik... katta harf bilan“ (*nem.*).

³ Nuqta (*nem.*).

oshib, qornimiz ochib borardi. Men tushlik ovqat vaqtı yaqinlashib qolganidan darak beradigan butun taraddul-larnı benihoya toqatsızlık bilan kuzatardı. Mana, xiz-matchı xotin qo‘lida mochalka bilan tarelkalarnı yuvishga o‘tib bormoqda, bufetda idish-tovoqlarning sharaq-shuruqi eshitildi, stolni surishyaptı, stullarnı terishyaptı, mana Mimi ham Lyubochka va Katenka (Katenka – Mimi-nıng o‘n ikki yashar qizi) bilan bog‘dan kelishyaptı; faqat eshik og‘asi Fokodan darak yo‘q. U hamisha kelib, ovqat tayyor bo‘lganini bildirar edi. Faqat o‘shandagina kitob-larnı yig‘ishtirib, Karl Ivanichga ham qaramasdan pastga yugurish mumkin edi.

Mana, zinapoyada qadam tovushi eshitildi; biroq bu Foka emasdi! Men uni yurishidan bilaman, etigi doimo g‘irchillardi uning. Mana, eshik ochilib, men sira tanimay-digan bir odam ko‘rindi.

V bob

TELBA-DEVONA

Xonaga ellik yoshlар atrofidagi bir kishi kirib kel-di. Uning cho‘zinchoq zahil yuzini cho‘tir bosgan, uzun sochlari, oppoq va siyrak soqoli qizg‘ish tusda edi. Bo‘yi novchaligidan eshikdan kirish uchun boshinigina emas, balki butun gavdasini bukishi kerak edi. Egniga chakmon-ga va ruhoniylarning rido ostidan kiyadigan uzun kiyimiga o‘xshagan yirtiq bir narsa ilib olgandi; qo‘lida kattakon bir hassa bor edi. Xonaga kirgan zahoti jon-jahdi bilan hassa-sini polga urib do‘qillatdi-da, qoshlarini chimirib, og‘zini katta ochib, dahshatli va g‘ayritabiiy bir qahqaha bilan kul-di. Uning bir ko‘zi g‘ilay bo‘lib, shu ko‘zning oqi uzlusiz qimirlar va busiz ham xunuk yuzini yanada yoqimsiz qilib ko‘rsatā edi.

— Aha! Qo‘lga tushding-ku! — deb qichqirdi u va yugur-gancha Volodyaning yoniga kelib, uning boshidan ushla-di-da, tepasidan tikilib qaray boshladi; so‘ngra jiddiy vazi-yatda undan uzoqlashib, stolga yaqin bordi-da, kleyonkaga puflab, uni cho‘qintira boshladi. — Oh, esizgina!.. Mehri-bonlarim... uchib ketishadi, — dedi u, yig‘lamsiragan ovoz bilan Volodyaga termilib; keyin esa rostakam oqayotgan yosHLarini yengi bilan arta boshladi.

Uning tovushi dag‘al va xirillar, harakatlari shoshqin va besaranjom, gaplari ma’nosiz va poyma-poy (u sira olmosh ishlatmay gapirar edi,) lekin so‘z urg‘ulari shunday ta’sirli tuyular va sap-sariq xunuk yuzi goh shunday qayg‘uli bo‘lib ko‘rinardiki, gaplarini eshitgan kishi o‘zini achinish, qo‘rquv va qayg‘u aralash allaqanday hissiyotdan tiyolmasdi.

Bu telba-devona va daydi Grisha edi.

Bu odam qayerlik o‘zi? Ota-onasi kim? Nima sababdan shu ko‘yga tushib qolgan? Buni hech kim bilmasdi. Faqat shuni bilardimki, u o‘n besh yoshidan boshlab shu ko‘yga tushgan ekan, qishin-yozin oyoqyalang yurardi, monastir-larga borardi, ko‘ziga kim yaxshi ko‘rinsa, unga kichkina sanam hadya qilardi va g‘alati, sirli gaplar aytardiki, ba’zi odamlar buni karomatga yo‘yardilar. Hech kim uni biron payt boshqacha bir ahvolda ko‘rgan emasdi. U ora-sira bu-vimning oldiga kelib turardi. Ba’zilar uni badavlat bir oila-ning baxtsiz bo‘lib tug‘ilgan farzandi, o‘zi begunoh odam desa, boshqa birovlar shunchaki dangasa mujik derdi.

Oxiri orziqb kutilgan va har ishni o‘z vaqt(soatida qiladigan Foka keldi-yu, biz pastga tushib ketdik. Grisha xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘lab, almoyi-aljoyi gapirib, hassa-sini zinapoyalarda do‘qillatgancha ortimizdan kelardi. Otam bilan maman mehmonxonada qo‘l ushlashib yu-rib, nima to‘g‘risidadir gaplashishar edi. Marya Ivanovna to‘g‘ri burchaklari bilan divanga taqab qo‘yilgan kreslo-

lardan birida viqor bilan o‘tirib, yonidagi qizlarga jiddiy, ammo bosiq ovoz bilan nasihat qilardi. Karl Ivanich bu xo-naga kirishi bilanoq, Marya Ivanovna unga bir qaradi-yu, o‘sha zahoti o‘girilib oldi va yuzi shunday bir tusga kirdiki, bundan, men sizni payqamayotibman, Karl Ivanich, degan ma’no uqish mumkin edi. Qizlarning ko‘zlaridan tezroq bizga qandaydir juda muhim bir xabarni aytmoqchi ekanliklari sezilib turardi; biroq joylaridan turib, bizning oldimizga kelsalar, Mimining qoidasini buzgan bo‘lardilar. Avval biz Mimining huzuriga borib: „Bonjour, Mimi!“ deb yer tepinib ko‘rishishimiz kerak, shundan keyingina gaplashuvga ruxsat bo‘lar edi.

Qanday badhazm ayol ekan bu Mimi! Uning oldida hech nimani gapirib bo‘lmaside: har doim gapni odobsizlikka yo‘yar edi. Yana buning ustiga mudom: „Barlez donc francais“¹ deb majburlardi; shunday deganida aksiga olib odamning miriqib ruscha gaplashgisi kelardi; yoki ovqat vaqtida biron taomni maza qilib yeb, tanang yayrab, hech kim xalaqit bermasaydi, deb turganingda, u albatta „Mangez donc avec du pain“ yoki „Comment ce que vous tenez votre fourchette“² deb qolardi. Axir, uning biz bilan nima ishi bor! – deb o‘ylardik. – O‘zining qizlariga o‘rgataversin-da, bizga o‘rgatadigan Karl Ivanich bor-ku. Karl Ivanichning ba’zi birovlanri yomon ko‘rishi menga ham ma’qul tushar edi.

Kattalar oldin yo‘l boshlab, oshxonaga chiqib ketishganda, Katenka egnimdan tortib:

– Onangdan so‘ra, bizni ham ovga olib borsinlar, – dedi shivirlab.

– Mayli, so‘rab ko‘ramiz.

Grisha oshxonada alohida kichik bir stolda ovqatlanar edi, u tarelkasidan ko‘zini uzmay, ora-sira xo‘rsinib qo‘yar,

¹ „Fransuzcha gaplastinglar“ (*frans.*).

² „Non bilan yeng“, „Nega sanchqini bunday ushlaysiz?“ (*frans.*).

yuzini qo‘rinchli bir tarzda burishtirib, o‘zi bilan o‘zi gaplashganday, esizgina!.. uchib ketdi... kaptar osmonga uchib ketadi... o‘h, qabr ustida tosh!.. va shunga o‘xhash allanimalar dedi.

Maman ertalabdan beri xafa edi; Grishaning bu yerdaligi, uning gaplari va qiliqlari bu xafalikni battar oshirdi.

– Ha, aytganday, sendan bir narsani so‘ramoqchi edim, sal bo‘lmasa unutayozibman, – dedi u otamga tarelkadagi sho‘rvani uzata turib.

– Nima ekan?

– Tayinlab qo‘y, qopong‘ich itlaringni boylab qo‘yishsin, bechora Grisha hovlidan o‘tib ketayotgandi, sal qoldi uni tishlab olishlariga. Bolalarni ham tishlab olishi mumkin.

Grisha o‘zi to‘g‘risida gapireshayotganlarini eshitib, bu stolga o‘girildi-da, kiyimining dalva bo‘lib ketgan etaklarini ko‘rsatib, og‘zidagi ovqatini chaynagancha gapira ketdi:

– G‘ajitmoqchi bo‘lgan edi-yu... Xudo asradi. Itga qoptirish gunoh! Katta gunoh! Urma, ulug¹, urgandan nima foyda? Xudo kechiradi... unaqa kunlar emas.

– Nima deyapti u o‘zi? – deb so‘radi otam unga tikilib qarab. – Men hech narsa tushunolmayapman.

– Men tushunib turibman, – deb javob berdi maman, – u menga qandaydir bir ovchi qasddan itlariga talatganini gapirib bergen edi. „G‘ajitmoqchi bo‘lgan edi-yu, Xudo asradi“, deb shuni aptyapti. Sendan, buning uchun uni jazolamagin, deb iltimos qilyapti.

– Eh-a! Shunaqa degin! – dedi otam. – O‘sha ovchini jazolamoqchi ekanimni qayoqdan bilibdi u? Bilsang agar mening bunaqa janoblarga umuman hushim yo‘q, – deb so‘zini davom ettirdi otam fransuz tilida – alalxusus, bu menga sira ham yoqmaydi, shuning uchun...

¹ U hamma erkaklarni shunday deb atar edi (*L.N.Tolstoy izohi*).

— Oh, gapirma bu gapingni, azizim, — deb maman nimadandir cho‘chigandek, uning so‘zini bo‘ldi, — qayoqdan bilasan?

— Men bu toifa odamlarning fe’lini uncha-muncha tushunib olgan bo‘lsam kerak, hammasining ham tuprog‘ini bir joydan olgan. Qachon qarama, o‘sha bir xil mashmasha...

Onamning bu xususda butunlay boshqacha fikrda ekanligi ko‘rinib turardi, shuning uchun bahslashib o‘tirishni istamadi.

— Marhamat qilib anavi somsani uzatib yubor, — dedi u. — Qalay, bugun somsa yaxshi bo‘libdimi?

— Yo‘q, shu narsaga jahlim chiqadiki, — deb so‘zini davom ettirdi otam, qo‘lidagi somsani mamanning qo‘li yetmaydigan oraliqda tutib, — aqli-hushi joyida va o‘qigan odamlarning aldanib o‘tirganini ko‘rib xunob bo‘laman.

Otam shunday deb, vilka bilan stolni urdi.

— Somsani uzatib yubor deyapman senga, — deb takrorladi onam, qo‘lini uzata turib.

Otam qo‘lini cho‘zib, so‘zida davom etdi:

— Bunday odamlarni politsiyaga topshirib juda to‘g‘ri qilishadi. Ularning keltiradigan foydasi shuki, ba’zi kishi-larning busiz ham zaif bo‘lgan asablarini battar buzadilar, — deb qo‘shib qo‘ydi u kulimsirab, so‘ng gap onamga yoqmaganini payqagach, somsani onamga uzatdi.

— Men bu xususida senga faqat bir gapni aytaman: yoshi oltmishta kirgan odam qishin-yozin oyoqyalang yursa, kiyimi ostidan og‘irligi ikki pud keladigan zanjirni hech tushirmay taqib, tinch va to‘kis turmush kechirish to‘g‘risidagi taklifdan necha bor voz kechgan bo‘lsa, bularning hammasini dangasaligidan qiladi, degan gapga ishonish qiyin.

— Karomat qilish masalasiga kelganda, — dedi onam xo‘rsinib va biroz jim qolgach gapini davom ettirib, — Je

suis payee pour y croire¹; otam rahmatlining o‘lishini Grisha kunini kunga, soatini soatga to‘g‘rilab karomat qilganini senga aytuvdim, shekilli.

— Obbo, nima qilarding shuni gapirib! — dedi otam kulimsirab va qo‘li bilan og‘zini bekitib (U shunday qilganida, men hamisha biron kulgili narsa bo‘lishini kutib, diqqat bilan qulq solib turardim). — Nega oyoqlarini esimga solding! Bo‘ldi, mana endi hech narsa yeysolmayman.

Tushlik ovqat tugayozgan edi. Lyubochka bilan Katenka to‘xtovsiz bizga ko‘z qisishib, stullarida o‘tirolmay tipirchilar va, umuman, juda bezovta edilar. Ularning ko‘z qisishi: „Bizni ovga olib borishlarini nega so‘ramayapsizlar?“ degan ma’noni anglatar edi. Men tirsagim bilan Volodyani turtdim, Volodya meni turtdi va oxiri u aytishga jur’at etdi: avvaliga biroz hadiksirab, so‘ngra xiyla dadil va baland ovoz bilan gapirib, bugun ketadigan bo‘lganimiz uchun qizlar ham biz bilan birga Dilijansga o‘tirib ovga bora qolsinlar, deb tushuntirdi. Kattalar o‘zaro qisqacha kengashib olganlaridan keyin masala biz xohlagandek hal qilindi, hammadan quvonchlisi shu bo‘ldiki, maman ham biz bilan birga borajagini aytди.

VI bob

OV TARADDUDI

Somsa yejilayotgan paytda Yakov chaqirildi va unga Dilijans, itlar va miniladigan otlarni safarga tayyorlash xususida juda batafsil buyruq berildi, hatto qaysi otlarda borilajagi nomma-nom aytildi. Volodyaning oti oqsar edi; otam uning uchun ov otini egarlashni buyurdi. „Ov oti“ degan so‘z mamanning qulog‘iga qandaydir g‘alati bo‘lib eshitildi: nazarida, ov oti go‘yo quturgan hay-

¹ Unga ishonish menga qimmatga tushgan (*frans.*).

von-u, Volodyani albatta olib qochib o'ldiradigandek edi. Otamning yupatishlari va Volodyaning botirlarcha zavqlanib, hechqisi yo'q, qayta ot olib qochganini juda yaxshi ko'raman, deb gapishtiga qaramay, maman bechora butun sayr-sayohat unga tashvish va azob bo'lishini qayta-qayta so'zlar edi.

Tushlik ovqat yeb bo'lindi: kattalar qahva ichgani kabinetga kirib ketishdi, biz bo'lsak sap-sariq yaproqlar to'kilgan yo'llarda yelib-yugurish va gap sotish uchun bog'ga yugurdik. Volodyaning ov oti minib borishidan, Lyubochkaning Katenkadan ham sekin chopishi uyat ekanligidan, Grishanning osib yurgan zanjirlarini ko'rish juda qiziq bo'lganligidan gaplashdik; bizning ayrilishimiz to'g'risida esa bir og'iz ham so'z bo'lmasdi. Dilijansning taqir-tuqur ovozi eshitilishi bilan gapimiz bo'lindi. Uning har qaysi ressorida bittadan dehqon bola o'tirar edi. Dilijansning ketidan itlارини ergashtirib ovchilar va ularning orqasidan – Volodyaga tayin qilingan otni minib kucher Ignat kelardi. Ignat mening qari nemis otimni yetaklab olgan edi. Avvaliga biz hammasiz devor tomonga otildik, bu yerda shu qiziq narsalarning hammasi ko'rinish turardi. So'ngra qiy-chuv va tapir-tupur qilishib, kiyengani yuqoriga chopdik. Qanday bo'lmasin, ovchilarga o'xshab kiyinishning payida edik. Buning muhim belgilaridan biri, shimning pochasini etik qo'njiga qistirish edi. Sira hayallamasdan bu ishga kirishib, tezroq ulgurishga va itlar, otlarni ko'rib, ovchilar bilan gaplashib maza qilish uchun tashqariga yugurishga shoshar edik.

Kun issiq edi. Ertalabdan ufqda juda ajoyib shakkarda oppoq bulutlar ko'rindi; keyin yengil shabada turib, bultlarni tobora yaqinroq haydab kela boshladи, shundan keyin ular ora-sira quyoshning betini to'sib turdi. Bulutlar har qancha yelib, osmon betini har qancha xiralashtirsalar ham, mo'maqaldoiroq boshlab, so'nggi bor bizning huzurimizni buzish

ularga nasib bo‘lmaydigan ko‘rinar edi. Kechga tomon bulutlar yana tarqala boshladi: ba’zilari oqarishib, cho‘zilishib ufqqa tomon yugurishdi; boshqalari xuddi boshimiz uzra oq shaffof tusda tanga-tanga bo‘lib turardi; faqat katta bir qora bulut parchasi kunchiqarda to‘xtab qoldi.

Foka keksayib qolganligiga qaramay, zinapoyadan chaqqon, tez yugurib tushdi-da, „Aravani keltir!“ deb qich-qirdi va ostona bilan dilijans kelib to‘xtaydigan joyning o‘rtasida qyoqlarini kerib, qaqqayib turib qoldi. U o‘z vazifasini yaxshi biladigan kishi singari mag‘rur turardi. Xonimlar tushib kelishdi, kimning qaysi tomonda o‘tirishi va kim kimni ushlab borishi (mening nazarimda, bir-birovini ushlab borishning mutlaqo hojati yo‘q edi) to‘g‘risida gaplashib olishgach, dilijansga chiqib o‘tirishdi-da, soyabonlarni yozishdi va jo‘nab ketishdi. Dilijans qo‘zg‘alganidan maman „ovoti“ni ko‘rsatib, titroq tovush bilan kucherdan:

– Bu Vladimir Pyotrovich minadigan otmi? – deb so‘radi.

Kucher „ha“ deb javob bergach, onam qo‘lini silkitib, o‘girilib oldi. Men rosa betoqatlanar edim: otimga minib olib, uning quloqlari orasidan qarar va hovli yuzida turli-tuman harakatlar qilar edim.

– Yana itlarni bosib olmang, – dedi menga ovchilardan biri.

– Xotirjam bo‘l, otni endi minayotganim yo‘q, – deb mag‘rurlik bilan javob berdim.

Volodya „ov oti“ga minar ekan, yuragining dadilligiga qaramay, biroz cho‘chiganday bo‘ldi va otni silab turib, bir necha bor:

– Yuvoshmi ishqilib? – deb so‘radi.

U otga juda yarashdi – xuddi katta odamlardek o‘tirardi. Sonlari egarga shunday yopishib turardiki, buni ko‘rib

rashkim kelib ketdi, chunki soyamga qaraganda uningdek bo‘lish qayoqda hali menga.

Mana, zinapoyadan otamning qadam tovushlari eshitildi; itboqar izg‘ib-daydib yurgan tozi itlarni bir yerga to‘pladi; ovchilar o‘z tozilarini chaqirib olib, otlariga mina boshladilar. Jilovdor otni zinapoya oldiga yetaklab keldi. Bir to‘da tozi it otamning oldiga yugurdi, bunga qadar ular turlicha alfozda cho‘zilib yotishgan edi. Ularning ketidan bo‘yniga marjon taqilgan Milka temir shokilasini jingillatib, quvona-quvona yugurib keldi. Milka tashqari ga chiqqanida doim itlar bilan so‘rashib kelardi: ba’zilari bilan o‘ynashar, ba’zilarini iskab-hidlar, ba’zilarining esa burgasini axtarar edi.

Otam otga minishi bilan yo‘lga tushdik.

VII bob

OV

Turka laqabli bosh itboqar boshida baroq qalpoq, yelkasida katta ho‘kiz shoxi, kamarida pichoq osib olgan holda, tumshug‘i do‘ng ko‘k ot minib, hammadan oldinda borardi. Bu odamning qovoq-tumshug‘i soliqligi va afti-angorining darg‘azabligidan, uni ovdan ko‘ra hayot-mamot jangiga borayotgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylash mumkin edi. Otining orqa oyoqlari yonida bir-biriga yondashgan tozilar ola-bula tovlanib, g‘uj bo‘lib borardi. Biron it orqada qolib ketgudek bo‘lsa, sho‘ri qurir edi. U kuchi boricha hamrohlarini orqaga sudrashga tirishar, shunda orqada kelayotgan itboqarlardan biri uni qamchi bilan bir tushirib: „To‘pga kir!“ deb o‘shqirib qo‘yar edi. Darvozadan chiqiboq otam ovchilar bilan bizga, yo‘l bo‘ylab boraveringlar deb buyurdi-da, o‘zi otini javdar o‘sgan dalaga burdi. G‘alla o‘rimi juda avjida edi. Sap-sa-

riq tovlanib turgan ko‘z ilg‘amas dala faqat bir tomon-dangina ko‘m-ko‘k baland o‘rmon bilan tutashardi. O‘sha vaqtida bu o‘rmon menga dunyoning eng uzoq va sirli yeriday tuyular, nazarimda, shu o‘rmonidan keyin yo dunyo tamom bo‘ladiganday, yoki odamzod yashamaydigan o‘lkalar boshlanadiganday edi. Butun dalani g‘aramlar va odamlar bosgandi. Bo‘y berib qalin o‘sgan bug‘doyzorning o‘rib olingan yerlarida o‘roqchi xotinning engashib turgani, qo‘lga tutamlagan paytda boshqqlarning silkinishi, ko‘lankada belanchak ustiga engashib olgan xotin va bo‘tako‘z to‘shalgan ang‘izlarda sochilib yotgan bug‘doy bog‘lamlari ko‘zga tashlanardi. Boshqa bir tarafda ko‘ylakchan dehqonlar aravaga bug‘doy bog‘lamlarini ortishar va oftobda qizib, qurib ketgan dalani changitishar edi. Etik kiygan, yelkasiga chakmon tashlab olgan oqsoqol qo‘lida xatcho‘p ushlab olgancha, uzoqdan otamni ko‘rib, jun qalpog‘ini boshidan oldi-da, mallarang boshini va soqollarini ro‘mol bilan artib, xotinlarga qarab qich-qirdi. Otam mingan saman ot yo‘l-yo‘lakay o‘ynoqlab, ora-sira boshini quyi siltab va tanasiga ochko‘zlarcha yopishgan so‘na va pashshalarni qalin dumি bilan haydab, yengil yo‘rg‘alab kelar edi. Ikkita ov iti dumlarini gajak qilib, oyoqlarini yuqori ko‘tarib, chiroyli harakatlar bilan baland ang‘iz ustidan sakrab o‘tib otamning oyoqlari ostida o‘ralishardi. Milka esa oldinda, boshini egib, biron narsa qidirib borardi. Odamlarning g‘ovur-g‘uvuri, ot va aravalarning tapir-tupuri, bedanalarning basma-bas sayrashi, havoda gala-gala uchib yurgan hasharotlarning vizillashlari, erman, poxol va otning terlagan hidi, jazirma quyosh oltinday sap-sariq ang‘izlarda, olisdan ko‘rinib turgan ko‘m-ko‘k o‘rmonlarda, oq-ko‘kimtir bulutlar hosil qilgan turli xil ranglar va ko‘lankalar, havoda uchib yurgan yoki ang‘izlarga yoyilgan oppoq o‘rgimchak

to‘rlari – bularning hammasini men ko‘rar, eshitar va his etar edim.

Kalinovo o‘rmoniga yetib kelsak, dilijans shu yerda ekan. Hech kutmaganimiz holda, bu yerda bir otli aravani ham ko‘rdik, aravaning o‘rtasida bufetchi o‘tirar edi. Aravadagi pichan ostidan samovar, muzqaymoq idishi, yana allaqanday odamni qiziqtiradigan tugunlar va qutichalar ko‘rinib turardi. Bular musaffo havoda o‘tirib choy ichishimiz, muzqaymoq va turli xil mevalar yeyishimizdan darak beradi. Aravani ko‘rishimiz bilan suyunib ketib chuvvos ko‘tardik, chunki o‘rmonzorda, maysa ustida va umuman bunday antiqa joyda o‘tirib choy ichmoqlik katta gasht edi.

Turka orol oldiga kelib to‘xtadi. U otamning qanday qilib tenglashib olish va qayerga chiqish haqida bergen mufassal yo‘l-yo‘riqlarini diqqat bilan eshitdi (lekin u bu yo‘l-yo‘riqlarga amal qilmay, o‘z maylicha ish tutar edi), keyin itlarni qo‘yib yuborib, shoshmasdan egarni qattiq bog‘lab, otga mindi, bir hushtak chalib, yosh qayin daraxt-lari orasiga o‘tib ko‘zdan yo‘qoldi. Qo‘yib yuborilgan ov itlari xursand bo‘lib silkinishdi, keyin hid olib dumlarini likillatib, tevarak-atrofga yelib ketishdi.

– Ro‘moling bormi? – deb so‘radi otam.

Men cho‘ntagimdan ro‘molimni chiqarib unga ko‘rsatdim.

– Mana bu kulrang itni ro‘mol bilan bog‘lab ol...

– Jirannimi? – deb bilag‘onlarcha so‘radim men.

– Ha, keyin shu yo‘ldan chopib boraver. Yalanglikka yetganingda to‘xta, bilib qo‘y, mening oldimga quyonsiz qaytish yo‘q!

Men ro‘molni Jiranning baroq bo‘yniga aylantirib bog‘ladim-da, belgilangan yerga zing‘illab chopib ketdim. Otam kulib ortimdan qichqirib qoldi.

– Tezroq bor, bo‘lmasa kechikasan.

Jiran har qadamda to‘xtab, qulqlarini dikkaytirib, ovchilarning tovushlarini tinglar edi. Uni sudrashga kuchim yetmaganidan „Ol! Ol!“ deb qichqira boshladim. Shunda Jiran meni shunday qattiq sudrab ketdiki, uni arang to‘xtata oldim va belgilangan yerga yetib olguncha necha martalab yiqildim. Baland bir dub daraxti ostida soya va tekis yerni tanlab, o‘t ustida cho‘zildim, Jiran ni ham yonimga olib, kuta boshladim. Bunday vaqtarda hamisha bo‘lgani kabi xayolim qochib ketdi: xayolimda go‘yo uchinchi quyonga it qo‘yayotgan edim, shu vaqt o‘rmonzorda tozining tovushi eshitilib qoldi. Turkaning ovozi o‘rmon bo‘ylab baland va kuchli yangradi; tozi angillar, uning tovushi borgan sari tez-tez eshitilardi; unga boshqa yo‘g‘on ovoz ham qo‘sildi, keyin uchinchi, to‘rtinchchi ovozlar ulanib ketdi... Bu tovushlar goh o‘char, goh bir-birini kesib qo‘yardi. Tovushlar tobora kuchayib va to‘xtovsiz davom etib, nihoyat uvvos shovqinga aylan di. Orolni ovoz bosib ketdi, tozilar uvullab hamma yoqni boshlariga ko‘tardilar.

Buni eshitib men turgan joyimda dong qotib qoldim. Ko‘zlarimni o‘rmon etagiga tikib, ma’nosiz kulimsirardim; yuzimdan marjondek ter oqli, ter tomchilari chakkamdan iyagimgacha oqib tushib g‘ashimni keltirsa ham artmas edim. Bu g‘ayritabiiy hol uzoq davom etmaydigandek edi. Tozilar dam o‘rmonning shunday etagida hurganday, dam asta uzoqlashar, lekin quyondan darak yo‘q edi. Men u yoq bu yoqqa alanglay boshladim. Jiran ham olazarak edi: avvaliga u meni tortqilab angilladi, keyin yonimga kelib cho‘zilib, tumshug‘ini tizzamga qo‘yib tinchidi.

Men soyasida o‘tirgan dub daraxtining yalang‘och ildizlari atrofida, bo‘z, quruq yerda, dub xazonlari, zarang daraxtining yong‘oqlari, ustini sariq-yashil tusdagi yo‘sin-

lar qoplab olgan qovjiroq cho‘plar va ko‘m-ko‘k mayin maysalar orasida chumolilar qaynar edi. Ular o‘zлari iz solgan yo‘ldan ba’zilari yuk bilan, ba’zilari yuksiz ketma-ket tizilishib borishardi. Men bir cho‘pni olib, ularning yo‘lini to‘sdim. Ularning ba’zilari xavf-xatarni pisand qilmay cho‘pning ostidan, ba’zilari ustidan oshib o‘tishardi; boshqa birlari, ayniqsa, yuk ortmoqlamaganlari esa o‘zlarini butunlay yo‘qotib qo‘yib, nima qilarini bilmay to‘xtab qolar, aylanma yo‘l izlar yoki ortlariga qaytar, yo bo‘lmasa cho‘pdan qo‘limgacha yurib kelib, chamasi, yengimga kirmoqchi bo‘lardi. Qanotlari sariq bir kapalakni ko‘rib qolib, bu qiziq tomoshadan chalg‘idim, kapalak shundaygina qarshimda ajib bir joziba bilan pirillar edi. Men unga e’tibor berib qarashim bilanoq, u mendan ikki qadam nariaga uchib bordi-da, yovvoyi bedaning so‘layozgan oq gullari ustida pirillab aylanib, keyin unga qo‘ndi. Bilmadim, u o‘zini oftobga solyaptimi yoki o‘tdan shira olyaptimi, nima bo‘lganda ham shu tobda uning huzur qilayotgani ko‘rinib turardi. Kapalak ora-sira qanotini silkitib qo‘yib gulga yopishardi, nihoyat u butunlay qimirlamay qo‘ydi. Boshimni qo‘lim ustiga qo‘yib, huzur qilib unga qarab turdim.

Birdan Jiran vovullab, meni shunday qattiq sudrab ketdiki, yiqilishimga sal qoldi. Men atrofga alanglab qaradim. O‘rmon etagida bir qulog‘ini egib, ikkinchisini chimirib, irg‘ishlab ketayotgan quyonni ko‘rdim. Miyamga qon tepdi, shu payt men hayajon bilan qattiq chinqirib yubordim va itga quvdirib, ortidan o‘zim ham yugurdim. Lekin shu ondayoq pushaymon bo‘lib qoldim: quyon yerga qapishib bir sakradi-da, yo‘q bo‘ldi-qoldi.

Mening chinqirib yuborganimni eshitib, o‘rmon che-tiga otildan tozilar ortidan butalar oralab Turka chiqib qolganida uyalib ketdim! U mening xatoyimni (o‘zimni

tutolmaganimni) ko'rib turgan edi, shuning uchun menga yomon bir qarash qildi-da: „Eh boyvachcha!“ deb qo'ydi. Bu so'zning qay ohangda aytilganini bilsangiz edi! Bundan ko'ra u quyonning o'rniga egariga meni osib olganida qaytaga yaxshiroq bo'lardi.

Men qattiq xafa bo'lib, joyimda uzoq turib qoldim, itni chaqirmadim ham, faqat tizzalarimga urib, hadeb:

– E Xudoyim, nima qilib qo'ydim! – derdim.

Men quyonlarni quvlab ketgan tozilarning tovushini, orolning narigi tomonida shovqin-suron ko'tarilganini, quyonning tutilganini, Turka o'zining kattakon burg'usi bilan itlarni chaqirayotganini eshitib tursam ham, hamon o'rnimdan qimirlamas edim.

VIII bob

O'YINLAR

Ov tugadi. Yosh qayin daraxtlarining ko'lankasiga gilam to'shaldi-da, hamma davra olib o'tirdi. Bufetchi Gavrilo ko'm-ko'k maysa o'tlarni yulib, tarelkalarni artar va qutichalardan yaproqlarga o'ralgan olxo'ri va shaftolilarni olib qo'yardi. Quyosh yosh qayin daraxtlarining ko'm-ko'k shoxlari orasidan o'tib, gilamning naqshlariga, mening oyoqlarim ustiga va hatto Gavriloning terlab ketgan yaltiroq boshiga jimirlagan tanga-tanga shu'la tashlar edi. Mayin shabada daraxtlarning yaproqlari orasidan o'tib, sochlarim va terlagan yuzlarimni siypalab, bahrimni ochar edi.

Bizga muzqaymoq va meva ulashganlaridan keyin gilam ustida qiladigan ishimiz qolmadи va biz quyoshning qiyadan jazillatib turganiga qaramay, o'rnimizdan turib o'ynagani ketdik.

– Qani, nima o'ynaymiz? – dedi Lyubochka oftobdan

ko‘zlarini qisgancha o‘t ustida sakray-sakray. – Kelinglar, Robinzon o‘ynay qolamiz.

– Kerakmas... zerikarli, – dedi Volodya, erinchoqlik bilan o‘tga ag‘anab va yaproqlarni chaynab, – qachon qarasang Robinzon! Juda xohlayotgan bo‘lsanglar, kelinglar, yaxshisi kapa tikamiz.

Volodyaning o‘zini katta olayotgani sezilardi: aftidan, ov otida kelgani uchun kerilib, o‘zini juda charchagan qilib ko‘rsatmoqchi edi. Ehtimol, u ko‘proq to‘g‘ri fikrlashga o‘rgangan bo‘lib, xayol va tasavvur qilishga no‘noqligi uchun Robinzon o‘yinidan to‘la zavq olmasligi ham mumkin. Bu o‘yin, o‘zimiz bundan sal ilgari o‘qigan „Robinson Suisse“¹dan ayrim sahnalarini ko‘rsatishdan iborat edi.

– Xo‘sh, ayt-chi... nega maza qilib bu o‘yinni o‘ynashimizni istamaysan? – deb qizlar uni qistashdi. – Sen Charles yoki Ernest, yo bo‘lmasa otasi bo‘l – istaganing, – dedi Katenka, uning yengidan tortib turg‘izishga urinib.

– Rost, o‘ynagim kelmayapti – odam zerikadi! – dedi Volodya kerishib va shu bilan birga o‘zidan mamnun holda jilmayib.

– Hech kim o‘ynashni xohlamas ekan, bundan ko‘ra uyda o‘tirganimiz yaxshi edi, – dedi Lyubochka yig‘i aralash.

Lyubochka yomon yig‘loqi qiz edi.

– Bo‘pti, yuringlar, faqat yig‘lama, yig‘lashingga toqatim yo‘q!

Volodyaning ra'yimizga ko‘ngani baribir tativadi; aksincha, uning erinchoq va ko‘ngilsiz avzoyi o‘yinning butun gashtini ketkazdi. Biz yerga o‘tirib, o‘zimizni go‘yo qayiqda baliq ovlashga ketayotganday faraz qilib, bor kuchimiz bilan eshkak eshsak, Volodya qo‘llarini qo-

¹ „Shveytsariyalik Robinzon“ (frans.).

vushtirib o‘tirdi, uning bu o‘tirishi baliqchilarning o‘tirishiغا sira-sira o‘xshamas edi. Men unga shuni aytsam, u, qancha urinmaylik, baribir foydasiz, chunki joyimizdan siljiy olmaymiz, dedi. Beixtiyor uning fikriga qo‘shildim. Men go‘yo ovga ketayotgan bo‘lib, yelkamda tayoq bilan o‘rmonga qarab yo‘l olganimda, Volodya qo‘llarini boshi ostiga qo‘yib, chalqancha yotib oldi-da, menga qarab, men ham borib keldim, dedi. Volodyaning bunday harakatlari va so‘zлari bizni o‘yindan sovitib, juda xafa qildi, qolaversa, uning aytganlari to‘g‘ri ekanini har birimiz sezib turardik.

O‘zim bilamanki, tayoq bilan parrandani o‘ldirish u yoqda tursin, uni miltiq qilib otib ham bo‘lmaydi. Bu o‘yin, axir. Shunday bo‘lgach, stullarni ham ot qilib minib bo‘lmaydi-da. O‘ylashimcha, Volodyaning o‘zi eslasa kerak – uzun qish kechalarida kresloning ustini ro‘mol bilan yopib, uni arava qilib o‘ynardik. O‘sanda birimiz kucher, birimiz malay bo‘lardik, qizlar o‘rtada o‘tirishardi, uch stolni uch ot faraz qilib, yo‘lga chiqardik. Bu yo‘lda qanchadan qancha turli-tuman sarguzashtlar sodir bo‘lardi! Qish oqshomlari qanday xushchaqchaq va tez o‘tardi!.. Agar chinakam fikr yuritiladigan bo‘lsa, hayotda hech qanaqa o‘yin bo‘lmaydi. O‘yin bo‘lmaganidan keyin hayotning nima qizig‘i qoladi?..

IX bob

BIRINCHI SEVGIGA O‘XSHASH BIR NARSA

Lyubochka daraxtdan go‘yo allaqanday amerika mevusi terayotgan kishiday yaproqdan juda katta bir qurtuni ushlab oldi-da, o‘takasi yorilib yerga tashlab yubordi va qurtdan biron narsa sachrab ketishidan qo‘rqqanday,

qo‘llarini yuqori ko‘tarib, orqasiga tisarildi. O‘yin to‘xtadi; qurtni ko‘rish uchun hammamiz boshimiz bilan yerga engashdik.

Katenka qurtning yo‘lini barg bilan to‘sib, uni barg ustiga olishga urinardi. Men Katenkaning yelkasi ustidan qarab turardim.

Men qizlarning aksariyati yelkalarini silkitishga odatlanganliklarini bilardim. Ular bu harakatlari bilan pastga tushib ketgan ochiq yoqali ko‘ylaklarini o‘z o‘rniga qaytarmoqchi bo‘lardilar. Shunisi esimdaki, Mimi bu qiliq uchun hamisha jerkib: „C'est un geste de femme de chambre“¹ derdi. Katenka qurt ustiga engashib turib, shu harakatni qildi, bu orada shamol uning oppoq bo‘ynidan durrachasini ko‘tarib yubordi. Shu payt uning yelkasi bilan mening lablarim orasi ikki enlikkina bo‘lib qoldi. Shu tobda men qurtga qaramay, Katenkaning yelkasiga tikilib turdim-da, jon-jahdim bilan o‘pib oldim. Katenka qayrilib qaramadi, lekin men uning bo‘yni va quloqlari qip-qizarib ketganini payqadim. Volodya boshini ko‘tarmasdan, ensasi qotib:

— Bu qanaqa erkalik! — dedi.

Mening ko‘zlarimda yosh paydo bo‘lgan edi.

Katenkadan ko‘zlarimni uzolmasdim. Uning beg‘ubor oppoqqina yuzi menga ko‘pdan tanish, uni juda yaxshi ko‘rar edim; lekin hozir unga razm solib qaragan edim, yana ham ko‘proq sevib qoldim. Biz kattalarning oldiga kelganimizda baxtimizga otam, onajoningizni iltimosiga ko‘ra ketishinglar ertaga qoldi, dedi.

Biz uyga dilijansda qaytdik. Volodya ikkalamiz ot minishga ustalikda bir-birimizdan o‘tamiz, deb dilijans yonida botirlik bilan otni o‘ynatib borardik. Ko‘lankam

¹ „Bu cho‘rilarning qilig‘i“ (*frans.*).

avvalgidan uzunroq edi, shunga qarab, endi kelishgan chavandozga o‘xshayapman, deb taxmin qilardim; biroq kutilmagan hodisa mening shahdimni qaytarib qo‘ydi. Men dilijansda o‘tirgan kishilarning havasini keltirish uchun biroz orqada qoldim-da, so‘ng xipchin bilan savalab va oyoqlarim bilan niqtalab otni qattiq choptirdim, o‘zimni erkin va olifta tutib, xuddi shu vaziyatda dilijansning Katenka o‘tirgan tarafidan yeldek uchib o‘tmoqchi bo‘ldim. Ammo dilijans oldidan indamay o‘tib ketgan yaxshimi yoki qichqirib o‘tgan yaxshimi – buni bilmas edim. Shu payt bat tol otim arava otlariga yetib olgach, zo‘r berib niqtashimga qaramasdan to‘satdan taqqa to‘xtab qolsa bo‘ladimi! Men egardan munkib otning bo‘yniga tushdim, naq uchib ketishimga sal qoldi.

X bob

OTAM QANDAY ODAM EDI?

U o‘tgan asr kishisi bo‘lib, o‘sha asr yoshlariiga xos payqab bo‘lmaydigan mardlik xarakteriga ega edi. U ud-daburon, o‘ziga ishongan, iltifotli va aysh-ishratni sevadigan kishi edi. Hozirgi asr odamlarini yoqtirmasdi. Bu xilda qarashining bir sababi, bizning asrimizda o‘z zamonidagi nufuz va shuhratga ega bo‘lomaganligi uchun undagi yashirin adovat bo‘lsa, boshqa sababi undagi tug‘ma manmanlik edi. Hayotda uning eng asosiy qiziqishi qarta bilan xotinlar; u ko‘p bor qarta o‘ynab bir necha million so‘m yutgan va har toifadan bo‘lgan son-sanoqsiz xotinlardan tanish-bilish orttirgan edi.

U barvasta, kelishgan, maydaqadam, yelkasini uchirib turish odati bor, kichkina ko‘zлari doimo kulib turuvchi, qirg‘iyburun, lablari sal nomutanosisib bo‘lsa ham, bejirim,

pichirlab gaplashadigan bir yaltiroqbosh kishi edi. Otamning esimda qolgan tashqi qiyofasi ana shunday. Bu tashqi ko‘rinishi bilan u bonnes fortunes¹ odam, deb nom chiqaribgina qolmay, balki, hech shubhasiz hammaga – barcha tabaqa va toifa kishilariga, xususan, o‘zi manzur bo‘lishni istagan odamlarga yoqardi.

U har qanday odam bilan muomala qilganida ustun kela olardi. O‘zi juda yuqori zodagonlar muhitidan chiqqan bo‘lmasa ham, hamma vaqt yuqori tabaqa vakillari davrasida yurar va ulardan hurmat ko‘rardi. U mag‘rurlik va o‘ziga bino qo‘yishning me’yorini bilar, ana shu me’yor boshqalarning izzat-nafsiga tegmagan holda, yuqori tabaqa a’yonlari orasida uning obro‘sini balandga ko‘tarardi. U qiziq tabiatli odam edi, lekin o‘zining bu tabiatini hamma vaqt zohir qilavermay, gohida yuqori jamiyat kishisi ekanligini pisanda qilmoq uchun yoki boylikning o‘rniga o‘tadigan bir vositadek ishlatardi. Dunyoda hech narsa uni hayratda qoldirolmasdi: qanaqangi ajoyib narsa bo‘lmasin, go‘yo bu uning uchun yaratilganday bo‘lib tuyulardi. U hayotning hammaga ma’lum bo‘lgan mayda-chuyda alamlar va dilsiyohliklar bilan to‘la qora tomonlarini boshqalardan yashirishga va o‘zidan uzoqlashtirishga shunday mohir ediki, unga havas qilmasdan bo‘lmas edi. U odamga qulaylik va huzur bag‘ishlaydigan barcha narsaning bilimdoni edi va ularдан foydalanish yo‘lini bilardi. Odamlar bilan aloqani juda o‘rniga qo‘yardi. Bu aloqalarni qisman onamning qarindosh-urug‘lari orqali, qisman yoshlikdagi o‘rtoqlari orqali o‘rnatgan edi. O‘rtoqlari yuqori martabalarga erishib, o‘zi umrbod iste’foga chiqqan gvardiya poruchigi bo‘lib qolganligidan u ichida o‘kinardi. Ilgari, harbiylar singari u ham moda bilan kiyinishni bilmas, lekin shun-

¹ Omadli (*frans.*).

day bo'lsa-da, juda antiqa va bejirim kiyinardi. Doim keng va yengli palto kiyar, ichki kiyimlari juda yaxshi bo'lar, katta qaytarma manjet yoqalar tutardi... Xullas, uning barvasta qomati, zo'r vajohati, tepa sochi to'kilgan boshi hamda vazmin va dadil harakatlari o'ziga yara-shardi. U ko'ngilchan va hatto sal narsaga ko'ziga yosh oladigan odam edi. Ko'pincha ovoz chiqarib kitob o'qir ekan, hayajonli yeriga yetganida ovozi qaltirar, ko'zlari yoshlana va xafa bo'lib kitobni yopib qo'yardi. U musiqani yaxshi ko'rар, fortepyanoda o'ziga o'zi jo'r bo'lib, do'sti A... ning romanslarini, lo'lilarning ashulalarini va operalardan ba'zi havolalarни aytar edi; biroq jiddiy musiqani yaxshi ko'rmas va ko'pchilikning fikriga e'tibor qilmasdan Betxovennenning sonatalari meni zeriktiradi va uyqumni keltiradi, men Semyonova aytadigan „Men navqironni uyg'otmang“ hamda Tanyusha ismli lo'liqiz aytadigan „Bir emas“ ashulasidan yaxshiroq narsa eshit-ganim yo'q, deb dangal gapiraverardi. U, yaxshi ishni ko'pchilik jamoat uchun qilish kerak deydigan kishilar xilidan edi. Shu sababdan ko'pchilikka manzur bo'lgan ishnigina yaxshi ish deb hisoblardi. Uning ma'lum axloqiy e'tiqodi bo'lgan-bo'lmananini Xudo biladi. Uning hayoti turli-tuman ishqibozliklar bilan shu qadar to'la ediki, o'ziga biron axloqiy e'tiqod belgilab olishga fur-sati ham yo'q, qolaversa, u hayotda shu qadar baxtli ediki, bunga mutlaqo zarurat ham sezmasdi.

Keksaygan chog'ida unda har narsaga muayyan qarash va o'zgarmas qoidalar paydo bo'ldi, lekin bular faqat amaliy mulohazalarga asoslanardi: o'ziga baxt va huzur bag'ishlaydigan ishlarni va turmush rejasini u yaxshi deb hisoblar va hamma ham doim shunday qilishi kerak deb bilardi. U juda maroqli suhbat qurar va bu qobiliyati, nazarimda, uning qoidalarini har maqomga solayotgandek

bo'lardi: u biron harakatni istasa qiziqchilikka, istasa eng yaramas tubanlikka yo'ya olardi.

XI bob

KABINET VA MEHMONXONADAGI MASHG'ULOT

Biz unga kelganimizda qosh qorayib qolgandi. Maman royal chalishga o'tirdi, biz bolalar esa qog'oz, qalam, bo'yoqlar keltirib, rasm solish uchun aylana stol atrofiga tizilishdik. Menda faqat ko'k bo'yoq bor edi; biroq shunga qaramay, ov manzarasini ishlamoqchi bo'ldim. Apiltapil ko'k ot mingan ko'k bola, ko'k itlar rasmini solib, quyonni ko'k rangli qilib ishlasa bo'larmikin, bo'lmasmikin, deb o'ylab, buni otamdan so'ragani uning kabinetiga yugurdim. Otam nimanidir o'qiyotgan ekan: „Ko'k quyonlar ham bo'ladimi?“ – degan savolimga, boshini kitobdan ko'tarmay: „Bo'ladi, og'ayni, bo'ladi“, deb javob qildi. Men aylana stolga qaytib kelib, ko'k quyon rasmini chizdim, keyin ko'k quyonni buta qilib o'zgartirmoqchi bo'ldim. Buta ham o'zimga yoqmadi: undan daraxt yasadim, daraxtdan – g'aram, g'aramdan – bulut ishladim, oxiri qog'ozni ko'k bo'yoq bilan chaplab yubordim-da, so'ngra alam qilganidan qog'ozni yirtib tashlab, Volter kreslosida mizg'ib olgani ketdim.

Maman o'z o'qituvchisi Fildning ikkinchi konserti ni chalardi. Meni mudroq bosardi, xayolimda qandaydir yengil, yorqin va tiniq xotiralar gavdalanardi. Onam Betxovenning sonatasini chala boshlagan edi, qandaydir qayg'uli, og'ir va g'amgin narsalarni esladim. Maman bu ikki pyesani tez-tez chalib turardi, shuning uchun ular menda qanday tuyg'ular uyg'otganini juda yaxshi eslayman. Bu tuyg'ular xotiralarga o'xshab ketardi; lekin nimaning

xotirasi? Go‘yo hech qachon bo‘lman narsani xotirlayotganday bo‘lardi kishi.

Ro‘paramda kabinetga kiriladigan eshik bor edi, Yakov va yana chakmon kiygan, soqol qo‘ygan allaqanday kishilarning kabinetga kirib ketayotganini ko‘rdim. Ular kirishi bilanoq eshik berkitib olindi. „Mana endi ish boshlanadi“ – deb o‘yladim o‘zimcha. Nazarimda, bu kabinetda qilinadigan ishlardan ko‘ra muhimroq ish dunyoda yo‘q va bo‘lishi mumkin emasdek edi; fikrimni yana shu narsa tasdiqlardiki, odatda, kabinet oldiga kelganda hamma shivirlab gapirar va oyoq uchida yurar edi; u yerdan esa otamning baland ovozi eshitilar va sigaraning hidi kelib turardi, bu hid bilmayman nima uchundir menga juda yoqardi. Chala uyquda ekanman, xizmatkorlar xonasidan etikning g‘archilagan tanish ovozini eshitib hayratda qoldim. Karl Ivanich oyoq uchida yurib, avzoyi buzuq holda qo‘lida qandaydir qog‘ozlar ushlab, eshik oldiga keldi-da, sekingina tinqillatdi.

„Biron baxtsizlik ro‘y bermasa go‘rga edi, Karl Ivanichning avzoyi buzuq: u hech narsadan toymaydigan ko‘rinadi...“ – deb o‘yladim.

Keyin yana mudrab ketdim.

Lekin hech qanday baxtsizlik ro‘y bermadi; oradan bir soatcha o‘tgach, yana o‘sha etik g‘irchillashi meni uyg‘otib yubordi. Karl Ivanich ro‘molchasi bilan yuzlariga oqib tushgan ko‘zyoshlarini artgancha eshikdan chiqdi-da, o‘zicha miyig‘ida nimanidir ping‘illab, yuqoriga chiqib ketdi. Uning ortidan otam ham chiqib, mehmonxonaga kirdi.

– Bilasanmi, hozir miyamga qanday fikr keldi? – dedi u kayfichog‘ ohangda, qo‘lini mamanning yelkasiga qo‘yib.

– Qanday fikr ekan, azizim?

– Karl Ivanichni bolalar bilan birga olib ketaman. Aravada joy bor. Bolalar unga o‘rganib qolishgan, uning o‘zi ham bolalarga qattiq mehr qo‘yib qolganga o‘xshaydi; yili-

ga yetti yuz so'm to'lash hech gap emas. Et puis au fond c'est un tres bon diable.¹

Men otamning Karl Ivanichni bunaqa koyib gapirayot-ganiga aqlim yetmadi.

— Juda ma'qul, xursandman, — dedi maman, — bolalarga ham, unga ham yaxshi bo'ladi, o'zi yaxshi chol.

— Men unga bu besh yuz so'mni sovg'a tariqasida qoldirishni aytganimda, uning qanday ta'sirlanganini ko'rsang edi... Hammadan ham menga bergen manavi yozma hisoboti qiziq. Buni ko'rsang arziydi, ajoyib bir narsa! — deb qo'shib qo'ydi otam kulimsirab va Karl Ivanichning qo'li bilan yozilgan qog'ozni onamga uzatdi.

Mana qog'ozdagi yozuvning mazmuni:

Bolalar uchun ikkita qarmoq — 70 tiyin.

Quticha yasash uchun rangdor qog'oz, oltin hoshiya, yelim va qolip, bular sovg'a uchun olingan — 6 s. 55t.

Bolalarga sovg'a qilingan kitob va o'q-yoy — 8 s. 16 t.

Nikolayga ishton — 4 so'm.

18... yilda Pyotr Aleksandrovich Moskvadan olib borishga va'da qilgan tilla soat — 140 so'm.

Karl Mauer maoshidan tashqari, hammasi bo'lib olishi kerak — 159 so'm 79 tiyin.

Bu qog'ozni o'qib, Karl Ivanich sovg'a qilgan hamma narsa, hatto unga va'da qilingan sovg'a uchun ham pul to'lashlarini talab qilganini bilgan har bir kishi unga nisbatan es-hushini yegan va o'z manfaatidan boshqani o'ylamaydigan ta'magir deb o'laydi, lekin shunday deb o'ylagan kishi yanglishadi.

U qo'lida qog'oz va miyasida pishirib qo'ygan gapi bilan kabinetga kirar ekan, bizning uyimizda ko'rgan-kechirgan butun adolatsizliklarni boplab otamga gapirmoqchi

¹ Aslida, o'zi ham durust, xumpar (*frans.*).

bo‘lgan edi; lekin odatda, bizga diktovka qilib turganidek ta’sirli ovoz va hissiyotli ohang bilan gapira boshlaganida, uning burro nutqi hammasidan ko‘ra o‘ziga kuchli ta’sir qilib, gapining: „Bolalardan ajralish menga qanchalik og‘ir bo‘lsa ham“, degan yeriga yetganida, u butunlay dovdirab qoldi, tovushi qaltirab, cho‘ntagidan katak ro‘molchasini olishga majbur bo‘ldi.

— Shunday, Pyotr Aleksandrovich, — dedi u ko‘zlariga yosh olib (aytmoqchi bo‘lgan gaplari orasida bu gap butunlay yo‘q edi), — men bolalarga qattiq o‘rganib qolgan ekanman, endi ularsiz nima qilishimni ham bilmayman. Sizdan maosh olmay xizmat qilsam ham mayliga, — deb qo‘shib qo‘ydi u, bir qo‘li bilan ko‘zyoshlarini artib, ikkinchi qo‘li bilan yozma hisobotini uzatar ekan.

Karl Ivanich hozir bu gaplarni sidqidildan gapirganiga imonim komil, chunki uning qalbi pok odam ekanini bilaman; biroq uzatgan yozma hisoboti bilan aytgan so‘zları bir-biriga qanday mos kelgani menga hamon sir bo‘lib qolmoqda.

— Ayriliq sizga og‘ir bo‘lsa, menga yana ham og‘irroq bo‘lur edi, — dedi otam Karl Ivanichning yelkasiga qoqib, — men avvalgi fikrimdan qaytdim.

Kechki ovqatdan sal ilgari xonaga Grisha kirdi. U uyimizga kirgan paytdan boshlab tinmay uh tortar va yig‘lar, uning karomat qilishiga ishonadigan kishilarning fikricha, bu qiling‘i bizning xonadonimizda biror baxtsizlik sodir bo‘lishidan darak berar edi. U xayr-ma’zur qilarkan, ertaga erta bilan biznikidan jo‘nab ketishini aytди. Men Vodolyani imladim-da, eshikka chiqdim.

— Nima deysan?

— Grishaning zanjirlarini ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, yuring hoziroq yuqoridagi erkaklar xonasiga, Grisha ikkinchi xonada uxbaydi, qaznoqqa berkinib, hammasini ko‘rib olamiz.

— Juda soz! Shu yerda tura tur; men qizlarni chaqirib kelaman.

Qizlar yugurib kelishdi. Biz yuqori qavatga chiqib ketdik. Qaznoqqa kimning birinchi bo‘lib kirishi janjalsiz hal bo‘lgandan keyin o‘tirib olib kuta boshladik.

XII bob

GRISHA

Qorong‘ida o‘tirish hammamiz uchun ham vahimali edi. Bir-birimizning pinjimizga tiqilishib, hech narsa gapirishmay o‘tirardik. Bizning ortimizdan asta-asta qadam bosib Grisha kirib keldi. U bir qo‘lida hassasini, ikkinchi qo‘lida mis shamdondagi shamni ushlab kelardi. Biz damimizni chiqarmas edik.

— Yo hazrati Iso! Yo Bibi Maryam! Yo padari buzrukvor, aziz avliyolar... — Grisha cho‘zib nafas olarkan, bu so‘zlarni tez-tez takrorlab turadigan kishilarga xos turlicha ohangda va qisqa-qisqa qilib takrorladi.

Grisha duo o‘qib hassani burchakka qo‘ydi-da, o‘rnini ko‘zdan kechirib, yechina boshladi. Eski qora kamari ni bo‘shatib, dalva bo‘lib ketgan malla bo‘z kamzulini yechdi. Uni ehtiyyotlab taxlab, stulning orqasiga ildi. Endi uning yuzida odatdagи shoshmashosharlik va merovlik sezilmasdi; aksincha, u osoyishta, o‘ychan va hatto salobatlι, harakatlari bosiq va bama‘ni edi.

Ichkiyimda qolgach, u sekingina karavotga chiqdi, uning har tomoniga qarab cho‘qindi, so‘ngra kuchanib — bu aftining burishganidan bilinib turardi — ko‘ylagi ostidagi zanjirlarni tuzatdi. Picha o‘tirgach, ko‘ylakishtoni bir necha yeridan yirtilganini ko‘rib achindi-da, o‘rnidan turdi, keyin duo o‘qib turib, shamni bir nechta ikona turgan raf balandligicha ko‘tardi, suratlarga qa-

rab cho‘qindi va shamni to‘nkarib qo‘ydi. Sham lip etib o‘chdi.

O‘rmonzorga qaragan derazalardan to‘lin oy nur sochib turardi. Devonaning uzun gavdasini bir tomondan oppoq, kumushsimon oy nurlari yoritardi; boshqa tomondan esa romlarning pol va devorlarga tushib shipgacha yetgan qora ko‘lankasi qoplagandi. Tashqarida qorovul cho‘yan parchani dang‘illatib urardi.

Grisha bahaybat qo‘llarini ko‘kragiga qo‘yib, boshini engashtirgancha to‘xtovsiz og‘ir oh tortib, but-haykallar oldida indamay qaqqayib turdi-da, keyin arang tiz cho‘kib ibodat qila boshladi.

Avval u ma’lum duolarni o‘qidi, faqat ba’zi so‘zlar-ga urg‘u qildi, keyin ularni qaytardi, lekin bu safar tetik ruhda balandroq ovoz bilan takrorladi. U o‘z so‘zlarini qiynalib bo‘lsa-da slavyancha talaffuz qilishga urinardi. So‘zları qovushmasa-da ta’sirli edi. U o‘zining pushti-panohlarini (u o‘ziga panoh bergenlarni shunday deb atar edi), shu jumladan onamni, bizlarni duo qildi, o‘zining og‘ir gunohlariga tavba qilib: „Ey Parvardigor, dushman-larimning gunohini ham kechir!“ – deb yolvordi. Keyin inqillab-inqillab o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da, yana o‘sha so‘zlarini takrorlab sajda qildi, yerga tegib jarang-jurung qilib ketgan zanjirlarining og‘irligiga qaramasdan yana o‘rnidan turdi.

Volodya oyog‘imni qattiq chimchilab olsa ham, men unga qayrilib qaramay, o‘sha joyimni silab qo‘ya qoldim-da, bolalarcha hayrat, achinish va hurmat hissi bilan Grishaning butun xatti-harakati va so‘zlarini kuza-taverdim.

Qaznoqqa kirayotganimda, xursand bo‘lib kulishib o‘ti-ramiz deb o‘ylagan edim, aksincha, meni qaltiroq bosib, vahima chulg‘ab oldi.

Grisha shu tariqa ancha vaqtgacha diniy masrurlik bilan toat-ibodat qilib o'tirdi. Goh ustma-ust bir necha marta: Parvardigor, o'zingning rahming kelsin, der, lekin har safar buni yangi bir kuch va ifoda bilan aytar; goh gunohlarimni kechir, Xudoyim, o'zing insof ber, haq yo'ldan adashtirma, derdi. Bu so'zlarni u go'yo hozirning o'zidayoq javobini kutayotganday bo'lib aytardi; lekin faqat mungli nola eshitilardi, xolos.

U cho'kkalab oldi-da, qo'llarini ko'kragi ustiga bosib, jim bo'lib qoldi.

Men eshikdan ohista boshimni chiqarib qaradim, o'zim nafas ham olmas edim. Grisha qimir etmasdi; dilidan og'ir xo'rsiniq otilib chiqardi; oy nuri tushib turgan g'ilay ko'zidan yosh chiqib, ko'z qorachig'ini xiralashtirib qo'ydi. Grisha birdan g'alati tovush bilan:

– Xudo, o'zing yorlaqagin! – deb qichqirib, peshonasi bilan yerga yiqildi-da, bolalarcha ho'ngrab yig'lay boshladi.

O'shandan beri ko'p suvlar oqib o'tdi, o'tgan ishlar haqidagi ko'p xotiralar men uchun ahamiyatini yo'qotib, g'ira-shira xayolga aylanib qoldi; hatto darbadar Grisha ham o'zining so'nggi safarini to'xtatganiga allazamonlar bo'lib ketdi; lekin uning menda qoldirgan taassuroti va menda uyg'otgan hissiyoti hech qachon xotiramdan o'chmaydi.

O, buyuk xristian Grisha! Sening e'tiqoding shunchalar kuchli ediki, diling Xudoga yaqinligini sezar eding, sening Xudoga muhabbatning shunchalar ulug'ediki, aytadigan so'zlarining o'z-o'zidan quyilib kelardi – sen ularni o'ylab o'tirmas eding... Sen Parvardigorning qudratini shunchalar ulug'lardingki, hatto tiling ojizlik qilib, ko'zlarinda yosh bilan yerga yiqilarding!..

Grishanining so'zlarini tinglayotganimda menda tug'ilgan räqm-shafqat hissi uzoq davom eta olmasdi, chunki,

birinchidan, mendagi qiziqish qonib, tasalli topgan, ikkinchidan esa bir joyda o‘tiraverib oyoqlarim uvushib qolgan va ortimda qorong‘i qaznoqdan eshitilayotgan shivir-shivir gaplarga va sho‘xliklarga qo‘shilgim kelar edi. Shu vaqt birov qo‘limdan ushladi-da, shivirlab: „Bu kimning qo‘li?“ – dedi. Qaznoq qop-qorong‘i edi; lekin qo‘lning nozikligidan va qulog‘im ostida shivirlagan ovozdan buning Katenka ekanini darrov payqadim.

Men beixtiyor bilagining yengi kalta joyidan ushlab, unga lablarimni bosdim. Katenka mening bu qilig‘imdan taajjublandi shekilli, qo‘lini tez tortib oldi; bu harakati bilan u qaznoqdagi siniq stulni turtib yubordi. Grisha boshini ko‘tarib, jimgina atrofga alangladi va yana duo o‘qib, hamma burchaklarga qarab cho‘qina boshladi. Biz tapir-tupur va shivir-shivir bilan qaznoqdan chopib chiqdik.

XIII bob

NATALYA SAVISHNA

O‘tgan asrning o‘rtalarida Xabarovka qishlog‘ining ko‘chalarida uyluk oddiy ko‘ylakda, oyoqyalang, lekin xushchaqchaq, to‘ladan kelgan va yuzlari qip-qizil Natashka ismli bir qiz chopib yurardi. Klarnetchi otasi Savvaning xizmatlarini e’tiborga olib va uning iltimosiga ko‘ra, bobom Natashkani buvimning oqsochlari qatorida xizmat qilib yursin, deb yuqoriga oldiradi. Xizmatkor qiz Natashka muloyim tabiatи va tirishqoqligi bilan bu ishda o‘zini ko‘rsatadi. Onam tug‘ilganida, unga qarashga enaga lozim bo‘lib, bu vazifani Natashkaga yuklaydilar. Yangi vazifada ham u o‘zining ishchanligi, mehri-vafosi va poshsha qizga sadoqati bilan maqtov va taqdirlarga sazovor bo‘ladi. Lekin xizmat vajidan Natalya bilan tez-tez ko‘rishib turadigan, o‘ziga oro berib, to‘qali paypoq kiyib yuradigan navqiron

ofitsiant Foka uning yosh qalbini asir qiladi. Shundan so'ng, hatto o'zi bobomning huzuriga borib, Fokaga tegmoq uchun undan fatvo olmoqchi bo'ladi. Bobom uning bu istagini ko'rnamaklikka yo'yib g'azablanadi, to'nini teskari kiyib olib, Natalya bechorani jazolash uchun dasht qishloqdag'i qoramol qo'rasiga badarg'a qiladi. Biroq hech kim Natalyaning o'rnini bosolmagani uchun, oradan olti oy o'tgach, u yana qo'rg'onga, avvalgi xizmatiga qaytariladi. Natalya yupungina kiyimda quvg'indan qaytib kelishi bilan bobomning oldiga kelib, uning oyoqlari ostiga yiqlidi-da, undan rahm-shafqat qilishini, iltifot ko'rsatishini, qilgan noma'qulchiligin kechirishini yolvorib so'raydi va bundan keyin boshqa noma'qulchilik qilmaslikka qasam ichadi. Haqiqatan ham u o'z so'zining ustidan chiqadi.

Shu-shu u Natalya Savishna atalib, boshiga chepchik kiyadigan bo'ladi. Qalbida saqlangan butun muhabbatini o'z bekachasiga bag'ishlaydi.

Uning o'rniga onamga murabbiya kelgan paytdan boshlab Natalya Savishna omborxonaning kalitini oladi va kiyim-kechak hamda butun oziq-ovqat uning qo'liga topshiriladi. Bu yangi xizmatni ham u avvalgiday ixlos va muhabbat bilan o'taydi. Butun borlig'i bilan xo'jayining mol-mulki uchun jon kuydiradi, nobudgarchilik, isrofgarchilik va talon-torojga ko'z-quloq bo'lib, bularga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

Maman erga tekkach, Natalya Savishnani yigirma yillik xizmati va mehr-oqibati uchun taqdirlamoqchi bo'lib, huzuriga chaqiradi va undan juda minnatdor ekanligini, unga bo'lgan muhabbatini mammuniyat bilan izhor qilib, muhr bosilgan bir varaq qog'ozni qo'liga topshiradi. Bu vasiqada Natalya Savishnaning ozod qilinganligi yozilgandi. Onam vasiqani unga topshira turib, xonadonimizga uning bundan buyon xizmat qilish-qilmasligidan qat'i

nazar, doimo yiliga uch yuz so'm pensiya olib turajagini aytadi. Shunda Natalya Savishna bularning hammasini indamay tinglab turadi-da, keyin vasiqani qo'liga olib, unga o'qrayib qaraydi va g'ijinib, to'ng'illab, eshikni tars yopib chiqib ketadi. Maman bu g'alati qiliqning sababini tushunolmasdan, oradan biroz fursat o'tgach Natalya Savishnaning xonasiga kirib boradi. Qarasa, u sandiq ustida ro'molchanı taxlab, burda-burda qilib tashlangan ozodlik vasiqasining polda sochilib yotgan parcha-parchalariga tikilgancha yig'lab o'tirgan bo'ladi.

– Sizga nima bo'ldi, aylanay Natalya Savishna? – deydi maman uning qo'lidan ushlab.

– Hech narsa, onajonim, – deb javob beradi u, – biron ishim ko'nglingizga yoqmay qolganga o'xshaydi, dargohingizdan haydayapsiz... Hay, mayli ketaman.

U qo'lini tortib olib, ko'zyoshlarini arang tiyib, xonadan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Biroq maman uni ushlab qolib, bag'rige bosadi va har ikkalalari ham yig'lab yuboradilar. Esimni taniganimdan buyon Natalya Savishnani, uning mehr-muhabbati va erkalashlarini eslayman, biroq bularning qadr-qimmatiga endigina yetadigan bo'l-dim, u vaqtarda kampir qanday bebahो, tengiyo'q ajoyib bir siymo ekanligi xayolimga ham kelmasdi. U o'zi to'g'risida gapirish u yoqda tursin, hatto buni o'ylamas ham edi: uning butun hayoti mehr-oqibat va o'zini bosh-qalarga baxshida qilishdan iborat bo'ldi. Men uning bizga nisbatan ta'masiz, nozik muhabbatiga shunday o'rgangandimki, buning boshqacha bo'lishini tasavvur qilmas edim, undan minnatdor bo'lishni sira esimga keltirmas va o'zimga: u baxtiyormi? Turmushidan mamnunmi? – degan savollarni hech qachon bermasdim.

Shunday paytlar bo'lardiki, biror zarurat vajidan darsdan yugurib kelib, uning xonasiga kirgancha o'trib

qolardim va shu yerda ekanligidan istihola qilmay, xayolimga kelgan narsalarni bemalol gapiraverardim. Hamma vaqt u biron ish bilan shug‘ullanib o‘tirgan bo‘lardi: yo paypoq to‘qib o‘tirgan, yo hujrasi to‘la sandiqlarni titkilab, ko‘ylak-ishtonlarni xatga solib o‘tirar va mening: „Qachon general bo‘lsam, eng go‘zal qizga uylanaman, o‘zimga saman ot sotib olaman, oynavand uy solaman, xat yozib Saksoniyadan Karl Ivanichning qarindoshlarini olib kelaman“, degan kabi xomxayollik bilan aytgan gaplarimni eshitib: „Shunday, otaginam, shunday“, der edi. Odatda, ketmoqchi bo‘lib o‘rnimdan qo‘zg‘alganimda u favorang sandiqni ochardi. Sandiq qopqog‘ining ichki tomoniga – hozir eslasam – bir gusarning rangdor qilib ishlangan surati, yog‘-upa qutichasidan ko‘chirib olingan rasm va Volodyaning surati yopishtirilgan edi. Natalya Savishna shu sandiqdan bir chekim tamaki olib tutatib, tutunini taratar ekan:

– Bu, otaginam, Ochakov degan shaharning tamakisi bo‘ladi. Rahmatli bobongiz turklarga qarshi urushganda buni o‘sha yerdan olib kelgan edilar, – der va bir xo‘rsinib olgach, – o‘shanning oxirgi qolgani shu, – deb qo‘shib qo‘yardi.

Uning hujrasi sandiqlarga to‘la va odamning jonidan bo‘lak hamma narsa bo‘lar edi. Nimaiki kerak bo‘lib qolsa: „Natalya Savishnadan so‘rash kerak“, deyishardi. Haqiqatan ham u birpas timirskilanib, axtarilgan narsani topib: „Yaxshi ham buni yashirib qo‘yan ekanman“, derdi. Bu sandiqlarda ming-minglab shunaqa narsalar bo‘lardiki, bularning borligini xonadonimizda uning o‘zidan bo‘lak hech kim bilmasdi.

Bir marta men undan arazladim. Bu shunday bo‘lgan edi: tushlik ovqat vaqtida o‘zimga kvas quya turib, grafinni tushirib yubordim va dasturxonni shalabbo qildim.

– Natalya Savishnani chaqiringlar, erkatoying qilgan ishini ko‘rib qo‘ysin. – dedi maman.

Natalya Savishna kirdi-da, dasturxondagи shalabbo suvni ko‘rib boshini chayqadi; so‘ngra maman uning qu‘log‘iga allanarsa degach, menga po‘pisa qilib chiqib ketdi.

Tushlik ovqatdan keyin quvnoq bir kayfiyatda dik-dik sakrab zalga kirib ketayotgan edim, eshik orqasidan to‘sat-dan qo‘lida dasturxon bilan Natalya Savishna chiqib qoldi-da, meni ushlab, jon-jahdim bilan qarshilik ko‘rsatishimga qaramay, ho‘l dasturxonni yuzimga ishqlab: „Dasturxonni kir qilma, dasturxonni kir qilma!“ deyaverdi. Menga bu shunday alam qildiki, chidayolmay yig‘lab yubordim.

Keyin zalda u yoqdan bu yoqqa yurib, yig‘idan nafasim tiqilib, o‘zimga-o‘zim bunday dedim:

„Bu qanday gap?! Nega Natalya Savishna, yo‘q, Natalya meni sansiraydi, bu ham yetmaganday, meni yosh bola bilib, ho‘l dasturxon bilan yuzimga uradi. Yo‘q, bunga chidab bo‘ladimi?!”

Yig‘layotganimni ko‘rib Natalya Savishna qochib ketdi, men bo‘lsam hamon u yoqdan bu yoqqa tanda qo‘yib, bunday xo‘rlagani uchun insofsiz Natalyadan qanday o‘ch olsam ekan, deb o‘ylar edim.

Bir necha daqiqadan keyin Natalya Savishna qaytib, hayiqibgina oldimga keldi-da, meni yupata boshladi.

– Bas, bas, yig‘lamang endi, otaginiam... men tentakni kechiring... gunohkorman, tavba qildim, qo‘zichog‘im... mana sizga.

U ro‘molining ostidan surnay qilib o‘ralgan qizil qog‘oz chiqardi-da, qaltiragan qo‘li bilan menga uzatdi. Uning ichida ikki dona konfet va bir dona anjir bor edi. Men bu mehribon kampirning yuziga qaray olmas edim; boshimni teskari qaratib turib, kampirning sovg‘asini ol-

dim-u, ko‘zimdan battar yosh oqib ketaverdi, lekin endi bu alam yoshlari emas, mehr va xijolat yoshlari edi.

XIV bob

AYRILIQ

Tavsif etilgan voqeanning ertasi kuni ertalab soat o‘n ik-kilarda kolyaska bilan arava eshik oldida poylab turar edi. Nikolay safarga shaylanib kiyingan, ya’ni shalvarini etigining qo‘njiga tiqib, eski uzun kamzulini kamar bilan mah-kam bog‘lab olgandi. U aravada turib, o‘rindiqqa shinel va yostiqlar qo‘yar edi; o‘rindiq baland bo‘lib ketganday ko‘ringach, yostiqlarning ustiga o‘tirib, bir-ikki siltanib sakrab, ularni bosib pasaytirdi.

Otamning xizmatkori kolyaskadan boshini chiqarib, entikib harsillagancha:

— Bir yaxshilik qiling, baraka topkur Nikolay Dimitrich. Xo‘jayinning qutichasini sizning oldingizga qo‘ysam degandim, o‘zi kichkinagina... — dedi.

— Shuni ilgariroq aytsangiz bo‘lmasmidi, Mixay Iva-nich, — deb javob berdi qandaydir tugunni aravaga itqitayot-ganday Nikolay, labi-labiga tegmay ijirg‘anib. — Azbaroyi Xudo, boshim shunday ham gangib ketdi, siz bo‘lsangiz yana qutichangizni tiqishtirasiz, — deb qo‘shib qo‘ydi u shapkasini ko‘tarib, oftobda kuygan peshonasidagi yirik ter tomchilarini artarkan.

Uzun kamzul, kaftan kiygan, ko‘ylakchan va boshyalang hovli qorovullari, qo‘lida bolasini ko‘tarib olgan, yo‘l-yo‘l ro‘mol o‘ragan, uylik kiyimdagи xotin-xalajlar va oyoqyalang bolalar zinaning oldiga tizilishganicha arava-larga qarab bir-birlari bilan gaplashib turardilar. Aravakash-lardan biri — boshiga telpak, egniga chakmon kiygan, beli bukchaygan chol kolyaskaning shotisini ushlab olgancha

chuqur o‘yga tolib, aravaning yurishiga qarar edi; boshqa biri – alvonrang qulfakli oqko‘ylak, qora jun qalpoq kiygan ko‘rkam bir o‘spirin malla sochini tarab dam u qulog‘i, dam bu qulog‘i orqasiga qistirgan holda chakmonini aravakash o‘rniga qo‘yib, jilovini ham o‘sha yerga otdi-da, o‘rma qamchinni o‘ynatib, goh etiklariga, goh aravalarni yog‘layotgan kucherlarga qarar edi. Kucherlardan biri kuchanib, aravaning ko‘tarmasini ushlab turardi; boshqa biri g‘ildirak ustiga engashib olib, o‘qni va gupchakni zo‘r hafsalal bilan yog‘lardi, hatto arava yog‘i ortiqcha sarf bo‘lmasin uchun aylanasisiga pastdan yog‘lab chiqar edi. Turli rangdagi horib charchagan pochta otlari panjara oldida to‘xtab, dumlari bilan pashshalarini qo‘rirdi. Bularning ba’zilari sachoqli shishgan oyoqlarini oldinga uzatgancha ko‘zlarini pirpiratib mudrardi; boshqalari zerikkanidan bir-birini qashir yoki eshik oldida o‘sgan to‘q yashil paporotnik o‘tining barglari va poyasini uzib kavshanardi. Bir necha tozi itlarning ba’zisi oftobda yotib hansirar, ba’zilari kolyaska va arava ostidagi ko‘lankada tentirab, o‘qlarga surtilgan moyni yalar edi. Havo allaqanday gard-to‘zonli, ufq kulrang, gunafsha tusda edi; lekin osmonda bulutdan asar yo‘q. G‘arb tomondan esgan kuchli shamol yo‘llar va dalalardan pag‘a-pag‘a to‘zon ko‘tarib, bog‘dagi arg‘uvon va qayinlarning boshini egar va to‘kilgan sariq barglarni uzoqlarga uchirib ketardi. Men devara oldida o‘tirib olib, butun tayyorgarliklarning tugashini sabrsizlik bilan kutar edim.

Ketar jafosi qilib, bir necha daqiqani birga o‘tkazish uchun hamma mehmonxonadagi aylana stol atrofiga to‘planganida, g‘amgin daqiqalarni kechirajagimiz xayolimga ham kelmagan edi. Miyamda hech keraksiz fikrlar kezardi. Men o‘zimga o‘zim: qaysi aravakash arava haydaydi-yu, qaysisi kolyaska haydar ekan? Kim otam bilan boradi-yu, kim Karl Ivanich bilan borar ekan? Nima sababdan men-

ga sharf o'ratishmoqchi va paxtalik kamzul kiygizishmoqchi? – degan savollar berar edim.

„Buncha nozik bo'lmasam endi? Sovuq qotib qolmasman. Bularning hammasi tezroq tugab qo'ya qolsa-chi“.

Ko'zidan yig'lagani bilinib turgan Natalya Savishna qo'lida xat ushlab ichkariga kirdi-da, mamanga murojaat qildi.

– Bolalarning ichki kiyimlari to'g'risidagi qog'ozni kimga berishni buyurasiz?

– Nikolayga bering-da, o'zingiz bolalar bilan xayrlash-gani keling.

Kampirgina nimadir aytmoqchi bo'ldi-yu, birdan to'xtab qolib, yuzini ro'moli bilan to'sdi va qo'lini siltab xonadan chiqib ketdi. Uning bu harakatini ko'rganimda yuragim shuv etdi; biroq ketishga orziqish bu hissiyotdan kuchli edi, shuning uchun men otam bilan onamning gaplarini butunlay parvosizlik bilan eshitaverdim. Ular ortiqcha, bir-birini qiziqtirmaydigan narsalar: uy uchun nimalar sotib olish kerakligi, knyajna Sophie va madame Juliega nimalar deyish lozimligi va yo'Ining yaxshi bo'lish-bo'lmasligi to'g'risida so'zlashardilar.

Foka kirdi-da, ostona oldida to'xtab, xuddi odatdag'i „ovqat tayyor“ deydigan tovushi bilan: „Otlar tayyor“ dedi. Buni eshitib maman go'yo kutilmagan bir xabarni eshitganday seskanib, oqarib ketdi, men buni payqab qoldim.

Fokaga xonaning hamma eshiklarini berkitish buyurildi. Bu narsa meni juda qiziqtirdi, „go'yo hamma allakimdan yashirinayotganday edi“.

Hamma o'tirganidan keyin Foka ham stulning bir chekkasiga o'tirdi; lekin u o'tirar-o'tirmas eshik g'iyq etdi, hamma o'sha yoqqa o'girilib qaradi. Natalya Savishna shoshgancha ichkari kirdi-da, boshini ko'tarmasdan shundaygina eshik oldida Foka bilan bir stulga o'tirdi. Foka-

ning yaltiroq kal boshini, burishgan so‘lg‘in basharasini va Natalya Savishnaning bukchaygan yoqimli qomatini, boshidagi chepchigi ostidan chiqib turgan nuroniy sochlarini endi ko‘rib turgandayman. Ular bir stulga qisilishib o‘tirishar va har ikkalalariga ham o‘ng‘aysiz edi.

Men hamon parvoysi falak va betoqat edim. Eshiklarni berkitib, o‘n daqqa o‘tirganimiz menga bir soatcha bo‘lib tuyuldi. Oxiri hamma turib cho‘qindi va xayrlasha boshladidi. Otam mamanni quchoqlab bir necha marta o‘pdi.

– Yetar deyman, azizim, – dedi otam, – axir, umrbod ayrilishayotganimiz yo‘q-ku.

– Har holda kishining yuragi ezilar ekan! – dedi maman yig‘idan titragan ovoz bilan.

Men bu tovushni eshitib, uning titragan lablari va yoshlari mo‘ltillab turgan ko‘zlarini ko‘rib shu zahoti hamma narsani unutdim, ko‘nglim shunday qayg‘u-hasratga to‘ldiki, onam bilan xayrlashmay qochib ketgim keldi. Shu ondayoq bilsam, uning otamni quchoqlagani biz bilan ham xayrlashgani ekan.

Onam Volodyani ustma-ust o‘pib, cho‘qintiraver-gach, endi men bilan xayrlashadi deb o‘ylab, oldinga siljidim; lekin u hamon Volodyani bag‘riga bosar va unga fotiha berar edi. Oxiri men uni quchoqladim va unga yopishib, o‘z dardimdan boshqa hech narsani o‘ylamay, rosa yig‘ladim.

Biz endi aravaga chiqmoqchi bo‘lganimizda xizmatkorlar, qarollar biz bilan xayrlashgani dahlizga chiqishdi. Ularning „Lutfan qo‘lingizni bering“, deyishlari, yelkamdan o‘pishlari va boshlaridan kelgan yog‘ isi menda tajang odamlarga bo‘ladigan xafalikka yaqin bir hissiyot tug‘dirdi. Natalya Savishna ko‘zlarini yoshga to‘lib men bilan xayrlashar ekan, shu his ta‘siri ostida, men juda sovuqqonlik bilan uning chepchigidan o‘pib qo‘ya qoldim.

Shunisi qiziqliki, men hamma oqsochlar va qarollari-mizning afti-basharasini hozir ham yaqqol ko‘rib turgan-

dayman, lozim bo‘lsa, ularning rasmini xuddi o‘ziday qilib tasvirlay olardim; biroq mamanning chehrasi va holatini yaxshi tasavvur etolmayman: buning sababi, balki, o‘sha paytda yurak betlab bir marta ham onamga qaray ololmaganimdadir. Nazarimda, unga qaraydigan bo‘lsam, har ik-kimizning ham qayg‘u-alamimiz chidab bo‘lmas darajada oshib ketadiganday edi.

Men hammadan oldin kolyaskaga otilib, orqadagi joyga o‘tirib oldim. Soyabon ko‘tarilganidan hech narsani ko‘rolmadim, lekin qandaydir bir tuyg‘u maman hali ham shu yerda turganini sezdirar edi.

„Unga yana bir marta qarasammikin yoki qaramaymi?.. Mayli, so‘nggi bor bir qaray!“ – dedim o‘zimga o‘zim va kolyaskadan zina tomonga boshimni chiqardim. Shu payt maman ham ayni shu fikr bilan kolyaskaning qarshisidan kelib, meni chaqirdi. Ortidan uning tovushini eshitgach, tez o‘girilaman deb boshimni uning boshiga urib oldim; maman ma‘yusgina kulimsirab, so‘nggi daf‘a meni qatiq-qattiq o‘pdi.

Biz bir necha sarjin uzoqlashganimizdan keyin men mamanga qaradim. Shamol uning boshidagi favorang durrachasini hilpiratardi; u boshini quyi solib, yuzini qo‘llari bilan to‘sancha asta-sekin zinadan chiqib borardi. Foka uni qo‘ltig‘idan suyab olgan edi.

Otam men bilan yonma-yon o‘tirar va hech narsa gapirmasdi; men esa ko‘zyoshlardan entikib-entikib qolar, tomog‘imga nimadir tiqilganday bo‘lar edi... Katta yo‘lga chiqishimiz bilan kimningdir boloxonada turib oq ro‘molcha silkitayotganini ko‘rdik. Keyin men ham ro‘molchanni silkita boshladim. Shunda ko‘nglim birmuncha yupandi. Men yig‘idan o‘zimni to‘xtatolmasdim, ko‘zyoshi rahmdillikni isbotlaydi, degan fikr menga huzur va quvonch bag‘ishlardi.

Bir chaqirimcha yo‘l bosgandan keyin men birmuncha tinchib, ko‘z o‘ngimdagι eng yaqin narsa – men tomonda chopib borayotgan otning ortiga zehn solib qaray boshladim. Aravaga qo‘shilgan bu chovkar ot tinmay dumini silkitar, oyoqlarini chalish bosar, orqasiga aravakashning o‘rma qamchisi tushishi bilan yo‘rta boshlar edi; uning us-tidagi quyushqon qayishi va undagi halqalar sakrab-sakrab tushardi. Qayishning ot dumiga yaqin turgan qismi oq ko‘pik bilan qoplanguncha qarab turdim. Tevarak-atrofda pishib mavjlanib yotgan javdarzor, unda-bunda omoch tortayotgan dehqon, qulunli biyalar o‘tlab yurgan qora shudgor, har chaqirimda ko‘milgan yo‘l bo‘yidagi sim yog‘ochlar ko‘zga tashlanardi; men qaysi aravakash bilan ketayotganimizni bilish uchun uning o‘tiradigan joyiga qaray boshladim; hali yuzimdagi yoshlар qurimay turiboq onam xayolimdan ko‘tarildi. Holbuki men u bilan abadiy vidolashgan bo‘lishim ham ehtimoldan xoli emasdi. Lekin har bir xotira baribir uni esga solardi. Men safar arafasida qayinzor xiyobonidan qo‘ziqorin topganimni, Lyubochka va Katenka bu qo‘ziqorinni yulishib-talashganlarini, ular biz bilan xayrlashayotib rosa yig‘laganlarini esladim.

Bechoralar! Natalya Savishnaga ham, qayinzor xi-yobonga ham, Fokaga ham achindim! Hatto badjahl Mi-miga ham achindim. Maman bechora-chi? Ko‘zlarimda yana mo‘lt-mo‘lt yosh paydo bo‘ldi, lekin bu ko‘pga cho‘zilmadi.

XV bob

BOLALIK

Bolalik umrning eng baxtli, eng ma’sum, qaytarilmas faslidir! Bolalik davrini, xotiralarini sog‘inmay, qo‘msa-may bo‘ladimi axir? Bu xotiralar mening ruhimni yengil-

lashtiradi, ko'nglimni ko'taradi, men uchun eng laziz huzur manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday paytlar bo'lardiki, yugura-yugura charchardim-da, choy ichish uchun stol yoniga qo'yilgan baland kreslomga chiqib o'tirardim, kech bo'lib qolgan, qand solingan bir chashka sutimni allaqachon ichib olganman, meni mudroq bosayotgan bo'lsa ham, qimirlamay o'tirib gap tinglardim. Tinglamay bo'larmidi? Maman kim bilandir gaplashar, ovozi biram yoqimli, biram mehribon ediki! Yuragimga ozmuncha narsalar so'ylarmidi! Mudroq bosgan ko'zlarim o'ngida uning siymosi namoyon bo'lardi, keyin butun borlig'i kichrayib-kichrayib, yuzi tugmachaday bo'lib ko'rindi; lekin men uni hamon avvalgidek ravshan ko'rardim; menga boqib, kulimsirab turardi. Uni shunday jajji qiyofada ko'rgim kelardi. Ko'zlarimni ko'proq qissam, u mening ko'zqorachig'imda turganday bo'lardi; biroq qimirlab ketishim bilan bu jozibali siymo yo'qolardi; yana ko'zlarimni qisar, yon-verimga o'girilardim, biroq g'oyib bo'lgan siymoni yana ko'rishga urinishlarim behuda ketardi.

Shundan so'ng o'rnimdan turib, oyoqlarimni yig'ardim-da, kresloga o'rnashib o'tirib olardim.

— Yana uqlab qolasan, Nikolenka, — derdi menga maman, — yaxshisi yuqoriga chiqib o'rningga yota qolgin.

— Uxlagim kelmayapti, oyijon, — derdim unga, lekin yana noaniq, shirin xayollar olib qochar, sog'lom bolalik uyqusi qovoqlarimni qisa boshlardi va birozdan keyin o'zimni unutib, uqlab qolardim. Ba'zan kimningdir nozik qo'li meni silayotganini uyqu aralash sezardim va uyqu ichida ham beixtiyor uni ushlab, lablarimga qattiq bosardim.

Hamma tarqagan, mehmonxonada faqat sham yonib turardi; maman, o'zim uyg'otaman seni degan edi. Mana u, men uqlayotgan kreslo chekkasiga kelib o'tirdi, nozik,

chiroyli qo'llari bilan boshimni siladi, qulog'im ostida yo-qimli tanish ovoz yangradi:

– Tura qol, jonginam, kirib uxla, vaqt bo'ldi.

Birovning parvosiz qarab turishi uni sira iymantirmaydi; u tepamda parvona bo'lib, butun mehr-muhabbatini menga bag'ishlashga tayyor. Men qimirlamay uning qo'lini yana ham qattiq o'paman.

– Bo'l, tura qol, erkam, qo'zichog'im.

Keyin bir qo'li bilan bo'ynimdan ushlab asta qitiqlay boshlaydi. Xona tinch, g'ira-shira qorong'i; qitiqlashdan seskanib, ko'zlarimni ochib yuboraman, onam shunday yonginamda turib, meni paypaslaydi; men uning ta'rif qilib bo'lmaydigan yoqimli hidini sezaman, tovushini eshitaman. Shu on sapchib o'rnimdan turaman-da, uning bo'yniga yopishib, boshimni ko'kragiga qo'yaman va entikib:

– Oh, mehribon oyijonim, seni jonimdan ham ortiq yaxshi ko'raman, – deyman.

U ma'yus, jozibali tabassum qiladi, boshimni ikki qo'li orasiga olib, peshonamdan o'padi-da, bag'riga bosadi.

– Meni juda yaxshi ko'rasanmi? – deydi u va bir daqqaq Jim turgandan so'ng, yana: – Ishqilib, hamisha shunday mehrli bo'lgin, hech unutmagan. Onang yo'q bo'lib qolsa, uni unutmaysanmi, a, Nikolenka? – deb u yana ham mehribonlik bilan meni o'pardi.

– Bas! Bunday dema, jon oyi! – deya qichqirib, uning tizzalarini o'pardim, ko'zyoshlarim – mehr va quvonch yoshlari buloq bo'lib oqardi.

Shundan keyin boloxonaga chiqib paxtalik choponda, but qarshisida tiz cho'kkani holda ajib bir tuyg'uga g'arq bo'lib: „Xudoyo Xudovando, otam bilan onamni o'zing asragin!“ – derdim. Ma'sum lablarim birinchi daf'a onam

uchun duoga ochilib, shu so‘zlarni takrorlaganda unga bo‘lgan mehr-muhabbatim Xudoga bo‘lgan muhabbatim bilan qo‘silib, qalbimda g‘alati bir tuyg‘u kasb etardi.

Duo o‘qib bo‘lgach, ko‘rpaga burkanardim, ruhim yengil, dilim ravshan va shod bo‘lib ketardi; xayol olib qochardi, qayoqqa, nimaga ekanini ilg‘ab bo‘lmas, ammo pok muhabbat va chinakam baxt umidi bilan to‘la bo‘lardi. Ba’zan betole, yolg‘iz o‘zidan boshqa hech kimi yo‘q Karl Ivanichning va uning achchiq qismatini eslardim, shunda unga juda-juda achinardim, uni shunday yaxshi ko‘rib ketardimki, ko‘zlarimdan duv-duv yosh to‘kib: „Xudoyim, unga baxt ato qilgin, unga yordam qilishga, qayg‘usini yengillatishga meni qodir et; men uning uchun har narsaga tayyorman“, – derdim. So‘ngra yaxshi ko‘radigan chinni o‘yinchog‘im – quyoncha yoki kuchuk-chamni paryostiqning burchagiga tiqib, uning o‘sha yerda maza qilib, issiqqina yotganini ko‘rib zavqlanardim. Keyin, Xudo hammaga baxt ato qilsin, hamma xursand bo‘lsin va ertaga o‘ynashimiz uchun havo yaxshi bo‘lsin, deb tilak tilardim, so‘ng boshqa yog‘imga o‘girilishim bilan fikr va xayollarim chuvalashib, qorishib ketardi va yuzimda ko‘zyoshlarim qurimasdanoq tinchgina, xotir-jam uxlab qolardim.

Bolalikdagi beg‘ubor, betashvish, yurakdagi sevgi umidga to‘la onlar yana bir bor qaytib kelarmikan? Ikki ezgu tilak – ma’sum quvnoqlik bilan sevgiga cheksiz ehtiyoj – hayotda birdan bir istak bo‘lgan vaqtdagidan umring qaysi bir fasli yaxshiroq bo‘lishi mumkin?

Qani u haroratli duolar? Qani u eng yaxshi tuhfa bo‘lmish mehr-muhabbatning inju yoshlari? Tasalli farishtasi uchib kelib, tabassum bilan yoshlarni artib quritadi-da, bolaninç beg‘ubor xayoliga shirin orzular soladi.

Hayot qalbimda shunday og‘ir izlar qoldirganki, nahotki bu ko‘zyoshlar va shodliklar mendan mangu uzoqlashgan bo‘lsa? Nahotki ulardan xotiralargina qolgan, xolos?

XVI bob

SHE’RIY MISRALAR

Biz Moskvaga kelganimizdan keyin oradan bir oy o‘tgach, men buvimning yuqori qavatdagi uyida, katta stol yonida o‘tirib xat yozar edim; ro‘paramda rasm o‘qituvchisi o‘tirib, qora qalam bilan chizilgan sallali bir turkning kallasini tuzatardi. Volodya o‘qituvchining orqasidan bo‘ynini cho‘zib, uning yelkasi osha qarab turardi. Bu kalla Volodyaning qora qalamda ishlangan bиринчи asari bo‘lib, u buvimning muchali kuni unga taqdim qilinishi kerak edi.

Volodya oyoq uchida ko‘tarilib, turkning bo‘yini o‘qituvchiga ko‘rsatib turib:

— Hali bu yeriga soya tushirmaysizmi? — dedi.
— Yo‘q, kerak emas, — o‘qituvchi qalamlarni va reysfederalni stolning tortmasiga qo‘ya turib, — mana endi qoyilmagom bo‘ldi, siz boshqa tegmang. Qani Nikolenka, — u o‘rnidan turar ekan, yon tomondan turkka qiya qarab turib qo‘shib qo‘ydi, — siringizni endi bizga ayta qoling, buvingizza nima taqdim qilmoqchisiz? Qaytaga siz ham kallaning suratini taqdim qila qoling. Xayr, afandilar, — u shunday dedi-da, shlyapasi bilan tashrifnomasini olib chiqib ketdi.

Shu onda o‘zim ham men ishlayotgan narsadan ko‘ra odamning kallasini chizganim qaytaga durust bo‘larmidi, deb o‘ylab qoldim. Bizga tez orada buvimning tug‘ilgan kuni nishonlanajagi va bu kunga atab sovg‘alar hozirlashimiz lozimligini aytganlarida, miyamga bu voqeaga bag‘ishlab she’r yozish fikri kelib qoldi-da, o‘sha zahotiyoq ikki misrani qofiyalab, tezda boshqa misralarini

ham to‘qiymen deb umid qilgan edim. Bola uchun g‘alati bo‘lgan bunaqangi fikr qanday qilib yodimga kelib qolgani hech esimda yo‘q, lekin shunisi esimdaki, bu fikr o‘zimga juda yoqar va bu xususdagi hamma savollarga, buvimga albatta bir narsa tortiq qilaman, lekin nima tortiq qilishimni hech kimga aytmayman, deb javob qilar edim.

Biroq men kutgancha bo‘lib chiqmadi, shosha-pisha to‘qilgan ikki misra she’rdan boshqa, qancha urinsam ham, bu yog‘iga hech narsa to‘qiy olmadim. Shundan keyin kitoblarimdagι she’rlarni o‘qiy boshladim; biroq na Dimitriev, na Derjavin menga yordam berdi, aksincha, ular o‘zimning no‘noqligimga meni yanada ko‘proq ishon-tirdilar. Karl Ivanichning kitoblardan she’rlar ko‘chirib olishni yaxshi ko‘rishi bilganim uchun, uning qog‘ozlarini sekingina titkilay boshlagan edim, nemischa she’rlar orasidan ruscha bir she’r topdim. Hoynahoy bu she’rni Karl Ivanichning o‘zi yozgan bo‘lsa kerak.

*L ... Petrovskaya xonimga. 1828, 3-iyun
Eslangiz yaqindan,
Eslangiz olisdan,
Eslangiz meni
Hozir va har chog‘,
Eslangiz yana o‘lgunga qadar
Seva bilishim sadoqat bilan.*

Karl Mayer.

Nafis pochta qog‘oziga chiroyli yumaloq xat bilan yozilgan bu she’r juda ta’sirli bo‘lganligidan menga yoqdi. Men o‘sha zahotiyoy uni yodlab, namuna qilib olmoqchi bo‘ldim. Ishim yengilroq ko‘chdi. Buvimning tug‘ilgan kuni yetib kelganda o‘n ikki misradan iborat she’riy tabrik tayyor edi. Men darsxonada stol yonida o‘tirib, uni yaltiroq qog‘ozga ko‘chirar edim.

Ikki varaq qog'oz buzilgandi... Buning sababi biron narsani o'zgartirmoqchi bo'lganimdan emas... She'r menga juda qoyilmaqomdek ko'rinardi; biroq uchinchi misradan boshlab, ularning oxiri yuqoriga qarab tobora ko'proq burilib boraveriganidan, uning qing'ir yozilganligi va hech narsaga yaramasligi hatto uzoqdan ham ko'zga tashlanib turardi.

Uchinchi varaq ham o'sha xilda egri bo'lib chiqdi; lekin men boshqa ko'chirib yozmaslikka qaror qildim. Men o'z she'rimda buvimni tabriklagan, ko'p yillar sog'-salomat bo'lishini tilagan edim. She'rim shunday tugardi:

*Yupanchig 'ing bo 'lamiz,
Onamizday sevamiz.*

Bu misralar chakki emasdek ko'rinardi, biroq oxirgi misra qulog'imga har qalay g'aliz eshitildi.

– Ona-miz-day se-va-miz, – deb g'ing'illab takrorladim. – Bu misrani qanday qofiyalasam ekan? E, bo'lavera-di! Karl Ivanichnikidan yomon emas.

Oxirgi misrani ham yozdim. So'ngra yotoqxonaga kirib, she'rimni zavq va harakatlar bilan boshdan oxir ovoz chiqarib o'qidim. Butunlay vaznsiz misralar bo'lsa ham, lekin men to'xtamay o'qiyverdim; so'nggi misra menga hammasidan ham ko'ra yoqimsiz tuyuldi. Men karavotga o'tirib olib, o'ylay boshladim...

„Nega endi men onamizday deb yozdim. Axir u bu yerda yo'q-ku, shunday bo'lgach, uni eslashning ham hojati yo'q edi; to'g'ri, men buvimni yaxshi ko'raman, hurmatlayman, lekin nima bo'lganda ham onaning yo'li boshqa... nega endi bunday deb yozdim-a? Nega endi yolg'onladim? Bu shunchaki she'r-da deganimizda ham, har holda bunday qilishim kerak emasdi“.

Shu payt tikuvchi kelib, yangi tikilgan yarim fraklari-mizni olib kirdi.

— Hay, bo‘lgancha bo‘ldi! — dedim men juda toqatsiz bo‘lib va o‘kinch bilan she’rimni yostiq ostiga tiqdim-da, Moskvada tikilgan kiyimni kiyib ko‘rishga yugurdim.

Moskva libosi qoyilmaqom ekan: mis tugmalar qadal-gan jigarrang yarim fraklar quyib qo‘yganday edi — qish-loqda tikib beradiganlaridek halpiragan emas — qora shimalarimiz ham torgina bo‘lib, muskullarimizni juda yaxshi bilintirar va etigimizning ustiga tushib turardi.

O‘zimda yo‘q darajada suyunib, oyoqlarimni har tomondan ko‘zdan kechirib: „Oxiri boplab tikilgan, pocha-si tasmali shimga yetishdim!“ — deb o‘ylardim. Yangi kiyim juda tor va noqulay bo‘lsa ham, men buni hammadan yashirib, aksincha, menga juda bop, mabodo kamchiligi bor deydigani bo‘lsak, faqat biroz kengligini aytish mum-kin, derdim. Shundan keyin men oyna oldida uzoq qolib ketib, juda chaplashtirib yog‘ surtilgan sochimni taradim; lekin har qancha urinsam ham tepe sochlarimni yotqizol-masdim: ularning yotish-yotmasligini sinab ko‘rmoqchi bo‘lib, bosmay tarasam ular ko‘tarilib, har tarafga hurpa-yib, basharamni kulgili qilib ko‘rsatar edi.

Karl Ivanich narigi xonada kiyinar edi. Darsxonadan o‘tib, unga havorang frak bilan yana allaqanday oq buyumlar keltirishdi. Pastki qavatga tushiladigan eshik oldida buvimning oqsochlaridan birining tovushi eshi-tildi; unga nima kerakligini bilmoq uchun tashqariga chiqdim. U qo‘lida qattiq kraxmallangan manishkani¹ ushlab turib, buni Karl Ivanichga olib kelganini va uni o‘z vaqtida yuvib, quritib beraman deb kechasi bilan ux-lamaganini aytdi. Men manishkani Karl Ivanichga berib qo‘yishni zimmamga oldim va buvim uyqudan turganmi-lar, deb so‘radim.

¹Manishka — erkaklar ko‘ylagining tikma yoki qadama ko‘kragi.

— Bo‘lmasam-chi! Kofeni ichib bo‘ldilar, pop hazratlari ham kelganlar, — dedi oqsoch xotin mening yangi kiyimimni ko‘zdan kechirib, kulimsiragancha: — Juda bashang bo‘lib ketibsiz-ku, — deb qo‘sib qo‘ydi.

Bu gap meni biroz qizartirdi; mening haqiqatan ham bashang ekanligimni hali ham yaxshi bilmasligini unga sezdirib qo‘ymoqlik uchun bir oyog‘imda gir aylandim-da, barmoqlarimni shiqillatib, oyoq uchida hakkaladim.

Manishkani Karl Ivanichga keltirganida bu unga kerak bo‘lmay qolgan edi: u boshqa bir manishka kiyib, stol ustida turgan kichkina oyna qarshisida engashgancha galstugining katta qilib bog‘langan tugunini ikki qo‘li bilan ushlab, silliq qilib olingan iyagini bo‘yinbog‘i ichiga bemalol kirib chiqishini sinab ko‘rar edi. U har tomondan kiyimlarimizni tortib-tortib qo‘yib, o‘z kiyimini ham shunday tortishni Nikolaydan iltimos qildi, shundan keyin bizni buvimizning oldiga boshlab bordi. Zinadan tushayotganimizda har uchovimizdan yog‘upa hidi kelib turgani esimga tushsa kulgim qistaydi.

Karl Ivanich o‘zi yasagan qutichani, Volodya rasmni, men bo‘lsam she’rni olib borardik; har birimiz o‘z sovg‘amizni topshirayotib aytadigan muborakbod so‘zimizni takrorlar edik. Karl Ivanich zalning eshigini ochgan paytda pop riza’sini kiydi-da, ichkaridan duoning dastlabki kali-masi eshitila boshladi.

Buvim zalda edi: u bukchaygancha devor tagidagi stuuning takyasiga suyanib duo o‘qirdi; uning yonida otam turardi. Otam bizga o‘girildi-da, tayyorlagan sovg‘alarimizni shosha-pisha orqamizga yashirib, o‘zimizni sezdirmaslikka harakat qilib, eshik oldida to‘xtab qolganimizni payqab kulimsiradi. Biz zalga to‘satdan kirib

¹ Riza – ruhoniylarning ibodat vaqtida kiyadigan libosi.

borib, ularni hayron qoldirmoqchi edik, biroq bunday bo‘lib chiqmadi.

Butning oldiga yaqinlashib kelganimizda, uyatchanlikni yengib bo‘lmas, kishini dovdiratib qo‘yadigan og‘ir bir ta’sir ostida qolganligimni his etdim va sovg‘amni taqdim qilishga yuragim betlamasligini sezib, o‘zimni Karl Ivanichning orqasiga oldim. Shu payt u eng sara so‘zlar bilan buvimni tabriklab, qutichani o‘ng qo‘lidan chap qo‘liga oldi-da, uni topshirib, bir necha qadam orqaga tisarilib, o‘rnini Volodyaga berdi. Chetlariga zarvor uqa yopishtirilgan quticha buvimga nihoyatda yoqib ketgan bo‘lsa kerak, o‘z minnatdorchilagini juda yoqimli tabassum bilan izhor qildi. Biroq u qutichani qayerga qo‘yishni bilmadi shekilli, uni otamga uzatib, mahorat bilan juda ajoyib qilib ishlan-ganini ko‘rishni taklif qildi.

Otam uni maroq bilan ko‘rib, qanoat hosil qilgach, pop hazratlariga uzatdi, quticha u kishiga ham nihoyatda manzur bo‘ldi: u boshini chayqab, dam qutichaga, dam shunday ajoyib bir narsani yasagan ustaga zavq bilan qarardi. Volodya o‘zi ishlagan turk suratini taqdim qilgan edi, har tomondan buning ham maqtovini keltirdilar. Oxiri mening ham navbatim keldi: buvim mammuniyat bilan kulimsirab menga qaradi.

Uyatchanlikni boshidan kechirgan kishilarga ma’lum-ki, bu hissiyot vaqt bilan baravar oshib boradi, qat’iylik esa kamaya boradi, ya’ni bu holat qanchalik ko‘p cho‘zilsa, undan qutulish shunchalik og‘irlashadi va qat’iylik shun-chalik kamayadi.

Karl Ivanich bilan Volodya o‘z sovg‘alarini top-shirganlari zamon mendagi so‘nggi jasorat va dadillik ham yo‘qolib, uyatchanligim oxirgi marrasiga yetdi: men yuragimdagи qon boshimga tepib, dam-badam rangim o‘zgarib turganini va peshonam bilan burnim ustida dona-dona ter

tomchilarli hosil bo‘lganini sezdim. Quloqlarim lovullar, butun a’zoyi badanim qaltirab ter quyilar, dam u oyog‘imga, dam bu oyog‘imga og‘irligimni solib, joyimda qimirlamay turardim.

— Qani, Nikolenka, ko‘rsat-chi seniki nima ekan — qu-tichami yoki surat? — dedi menga otam. Boshqa chora qolmagandi: qo‘llarim titragan holda ezilgan o‘scha o‘rog‘lik dardisar qog‘ozni uzatdim; lekin ichimdan mutlaqo ovozim chiqmas edi, shuning uchun indamay buvimning oldida to‘xtab qoldim. Men, boshqalar mana hozir surat ko‘ramiz deb turganida hammaning oldida hech narsaga arzimaydigan she’rimni o‘qib qoladilar va undagi onamizday degan so‘zlar uni hech qachon sevmaganimni va uni unutganligimni ham-maga aniq oshkor qiladi, degan fikrdan o‘zimga kelolmas-dim. Buvim she’rimni ovoz chiqarib o‘qiy boshlagan va kulimsirab otamga qarab olish uchun (o‘scha paytda menga u masxaralab kulayotganday bo‘lib tuyulgan edi) farqiga bor-may she’rning o‘rtasida to‘xtab qolgan, ba’zan so‘zlarni men xohlaganday ayta olmagan va ko‘zi xiraligi tufayli oxiriga-cha o‘qib tugatmay, qog‘ozni otamga uzatib, uni boshqatdan o‘qishni iltimos qilgan paytdagi tortgan azobimni qanday ifodalasam ekan? Nazarimda, be’mani va qing‘ir yozilgan she’rni o‘qiyverish buvimni zeriktirganligi uchun uni otam-ga uzatganday va mening his-tuyg‘udan mahrumligimni ochiq-oshkor isbotlaydigan so‘nggi misrani otamning o‘zi o‘qisin uchun shunday qilganday bo‘lib ko‘rindi. Men, mana hozir otam: „Onangni unutma, tentak... Shu qilganingga mana senga!“ — deb she’r bitilgan qog‘oz bilan burnimga bir tushiradi deb kutgan edim, hartugul bunday bo‘lmadi, aksin-cha, she’rning hammasi o‘qilib bo‘lgach, buvim: Charmant¹ deb, peshonamdan o‘pib qo‘ydi.

¹ Juda go‘zal“ (frans.).

Quticha, surat va she'r hamisha buvim o'tiradigan Volter kreslosining tortmasiga ikki batist ro'mol va manning portreti yopishtirilgan tamakidon yoniga solib qo'yildi.

Buvimning karetasi ketidan borgan bahaybat xizmat-korlardan biri:

— Knyaginya Varvara Ilinichna keldilar, — deb xabar qildi.

Buvim toshbaqa kosasidan yasalgan tamakidonga o'ylgan suratga qarab o'ylanib qoldi-da, hech qanday javob bermadi.

XVII bob

KNYAGINYA KORNAKOVA

— Ayt, kirsin, — dedi buvim, kresloga o'rnashib o'tirarkan.

Knyaginya qirq besh yoshlardagi mo'jazgina, nimjon, qotmadan kelgan va tajang, yoqimsiz ko'zлari ko'kimtir tusdagi bir ayol bo'lib, bejirimgina og'zi afti-basharasiga nisbatan g'ayritabiyyek bo'lib ko'rinardi. Tuyaqush pati sanchilgan baxmal shlyapasi ostidan oqish malla sochlari ko'rinib turardi, kasalmand yuzining rangi qosh va kipriklarni yana ham oqish va malla tusda ko'rsatardi. Shularga qaramay, Knyaginyaning erkin harakatlari, kichkinagini qo'llari va butun vujudining qotmaligi umumiy ko'rinishi-ga qandaydir oliyjanoblik bag'ishlar va uni serg'ayrat qilib ko'rsatardi.

Knyaginya juda sergap ayol edi. Ba'zi odamlar, hech kim bir og'iz gap qaytarmasa-da, go'yo birov ularning gipi-ga e'tiroz bildirayotgan bir alfozda gapiradilar. Knyaginya ham shunday kishilar jumlasidan edi: u gapirganida goh ovozini baland ko'tarar, goh sekin-asta pasaytirib turib, yana

birdan tetiklanib gapira boshlar va suhbatlasha turib, gapga aralashmay o‘tirgan kishilarga alanglab qarab, go‘yo bu qarash bilan o‘z gapini puxtalashga harakat qilardi.

Knyaginya buvimning qo‘lini o‘pishi va ikki gapning birida uni ma bonne tante¹ deb atashiga qaramasdan, buvim undan norozi ekanligini payqadim: knyaginya knyaz Mixaylo kelishni juda istagan bo‘lishiga qaramay, buvimni tabriklagani kelolmaganining sababini gapirar ekan, buvim qoshlarini qandaydir boshqacha qilib kerdi va knyaginya ning fransuzcha gaplariga ruscha javob berar ekan, so‘zlar ni cho‘zib-cho‘zib bunday dedi:

– Bu iltifotingiz uchun sizdan juda minnatdorman, azizim, knyaz Mixaylo kelmasa kelmabdi-da, buni gapirib o‘tirishning hojati ham yo‘q... Uning hamisha ishi bitmaydi; ha, aytganday, u kampir bilan o‘tirishdan nima ham maza topsin?

Buvim o‘z so‘zlarining knyaginya tomonidan rad qilinishiga fursat bermay, gapini davom ettirdi:

– Bolalaring qalay, azizim?

– Xudoga shukr, ma tante², o‘sib, o‘qib, to‘polon qilib yurishibdi... Ayniqsa, kattasi Etyen shunday sho‘x bo‘lyaptiki, tinim nimaligini bilmaydi, lekin aqli joyida – un garcon, qui promet³. Buni qarang, qaysi kuni nima qilibdi, mon cousin? – so‘zini davom qildirdi u, faqat otamga qarab. Chunki buvim knyaginyaning bolalariga sira ham qiziqmay, o‘z nabiralari bilan maqtanmoqchi bo‘lib, quticha ostidan mening she’rimni olib, qog‘ozni yoya boshlagan edi.

Shundan keyin knyaginya engashibroq turib, nimanidir zo‘r hafsala bilan hikoya qila ketdi. Men uning gaplari-

¹ Mening mehribon xolaginam (*frans.*).

² Xolajon (*frans.*).

³ Bo‘ladigan bola (*frans.*).

ni eshitmadim. U gapini tugatishi bilan kulib yubordi va savol nazari bilan otamning yuziga qarab:

— Qanaqa bolaligini ko‘rdingizmi, mon cousin? Uni asli savalash kerak edi-ku, lekin buni aql ishlatib topgani uchun men uni kechirdim, mon cousin, — dedi.

So‘ngra knyaginya ko‘zlarini buvimga tikib, hech narsa gapirmay kulimsirayverdi.

— Siz hali bolalaringizni urasiz hammi, azizim? — deb so‘radi buvim qoshlarini ancha kerib va urasiz hammi degan so‘zga alohida urg‘u berib.

Knyaginya otamga bir qarab olib, muloyim ovoz bilan javob berdi:

— Eh, ma bonne tante, men bu xususda sizning qanday fikrda ekanligingizni bilaman; lekin shu birligining masalada fikringizga qo‘silmaslikka ruxsat etgaysiz: bu xususda men qancha o‘ylagan, qancha o‘qigan va kengashgan bo‘lmayin, tajribada ko‘rdimki, bolalarga qo‘rquv bilan ta’sir etish zarur ekan. Bola odam bo‘lsin deyilsa, qo‘rqitish kerak... Shundaymasmi, mon cousin? Qani aytинг-chi, je voues demande un peu,¹ bolalarga xipchindan bo‘lak narsa kor qilarmidi?

Shunday deya turib, u savol nazari bilan bizga qaradi, to‘g‘risini aytsam shu onda men har qalay o‘zimni o‘ng‘aysiz sezdim.

— Nima deganingizda ham bola o‘n ikki va hatto o‘n to‘rt yoshgacha ham hali bola bo‘ladi; qiz bolaning yo‘li boshqa.

„Xayriyatki, men uning o‘g‘li emasman“, deb o‘yladim dilimda.

— Ha, bu gaplarning hammasi juda yaxshi, azizim, — dedi buvim, go‘yo shundan keyin knyaginyani bunday asarni eshitishga loyiq ko‘rmaganday she’rimni buklab,

¹ Men sizdan so‘rayotirman (*frans.*).

tortmaning ostiga qo'yayotib, – bularning hammasi durust, lekin marhamat qilib ayting-chi menga, shundan keyin bolalaringizdan nazokatli, boadab bo'lishni talab qila olasizmi?

Buvim bu dalilini rad etib bo'lmaydigan bir gap deb hisoblab, gapni to'xtatmoq uchun qo'shimcha qildi:

– Xullas, bu masalada har kimning o'z fikri bo'lishi mumkin.

Knyaginya javob bermay, takabburona bir iltifot bilan kulibgina qo'ydi, bu bilan u o'zi ko'p hurmat qilgan odamning bu g'alati fikrlarini kechirishini bildirmoqchi edi.

– Aytganday, yigitchalaringiz bilan meni tanishtirsangiz-chi, – dedi u, bizga muloyimgina kulimsirab qarab.

Biz o'rnimizdan turib, knyaginyaning yuziga tikildik, lekin u bilan tanishganligimizni anglatmoq uchun nima qilishimiz kerakligini bilmas edik.

– Knyaginyaning qo'lini o'pinglar, – dedi otam.

– Kampir xolangizga mehr-muhabbatli bo'lishingizni o'tinaman, – dedi u Volodyaning sochidan o'payotib, – garchi men sizga uzoq qarindash bo'lsam ham, qanday qarindoshligimdan qat'i nazar gapiryapman, – deb qo'shib qo'ydi. Bu so'nggi so'zlarini u, asosan, buvimga qarata aytdi, biroq buvim hanuzgacha undan norozi edi, shuning uchun u:

– E, azizim, bunaqa qarindoshlik inobatga olinadimi hozir? – deb javob berdi.

– Bu o'g'lim kibor yigit bo'ladi, – dedi otam, Volod-yani ko'rsatib, – bunisi esa shoир, – deb qo'shib qo'ydi u. Shu payt men knyaginyaning kichkina qotma qo'lini o'par ekanman, bu qo'l xipchin ushlab turganini va xipchin ostida – skameykani va shunga o'xshash narsalarni juda yaq-qol ko'z oldimga keltirdim.

– Qaysi biri? – so'radi knyaginya, mening qo'limdan ushlab turib.

— Manavi, jingalak sochli kichkinasi, — javob berdi otam xushchaqchaq kulimsirab.

„Unga mening jingalak sochim nima qilgan ekan... Shundan boshqa gap qurib qolgan ekanmi?“ — deb o‘ylab, burchakka chekindim.

Men go‘zallik to‘g‘risida juda g‘alati fikrda edim — hatto dunyoda birinchi go‘zal odam Karl Ivanich bo‘lsa kerak, deb o‘ylardim; lekin o‘zimning chiroyli emasligimni bilardim va bunda sira yanglishmasdim; shu sababli tashqi ko‘rinishim to‘g‘risidagi har bir ishora menga juda qattiq tegar edi.

Olti yashar chog‘imdagи bir voqeа juda yaxshi esimda: bir kuni tushki ovqat mahali mening tashqi qiyofam haqida gap ochilib qoldi, shunda maman afti-basharamdan biror yaxshiroq narsa topishga urinib, ko‘zлari aqlii, kulishlari yoqimli, dedi va nihoyat, otamning fikrlariga yon bosib va ko‘rinib turgan afti-basharamni ko‘zda tutib, mening xunukligimni tan olishga majbur bo‘ldi; so‘ngra tushlik uchun unga rahmat aytganimda, yuzlarimga boqib turib:

— Shuni bilib qo‘yginki, Nikolenka, hech kim sening husning uchun sevmaydi; shuning uchun aqlii va yaxshi bola bo‘lishga harakat qilishing kerak, — dedi.

Bu so‘zlar meni chiroyli emasligimga ishontirish bilan birga, albatta yaxshi va aqlii bola bo‘lajagimga ham ishontirdi.

Shunga qaramay, men tez-tez umidsizlikka tushgan onlar ham bo‘lar edi: men kabi burni yapasqi, lablari qalin va ko‘k ko‘zлari kichkina bir odam uchun dunyoda baxt yo‘q deb o‘ylar edim. Men Xudodan bir mo‘jiza ko‘rsatib, meni chiroyli qilib qo‘yishni tilardim va hozir menda nimaiki bo‘lsa, kelgusida nimalarga ega bo‘la olsam, shularning barisini husnga almashtirishga tayyor edim.

KNYAZ IVAN IVANICH

Knyaginiya she'rni eshitib, uning ijodkorini maqtovlarga ko'mib tashlagach, buvim yumshab, u bilan fransuzcha so'zlasha boshladи va uni siz, azizim deyishni bas qilib, hamma bolalarini olib kechqurun biznikiga kelishga taklif etdi. Knyaginiya ham bunga rozi bo'lib, yana birpas o'tirdi-da, keyin ketdi.

O'sha kuni buvimni qutlagani shunchalik ko'p mehmon keldiki, hovlidan, darvoza oldidan kun bo'yi bir nechalab arava arimadi.

— Bonjour, chere cousin¹ — dedi mehmonlardan biri xonaga kirayotib, buviming qo'lidan o'par ekan.

Bu yetmish yoshlar chamasi, novcha bir kishi edi. Egnida zar pogon qadalgan harbiy mundir bo'lib, yoqasi ostidan katta oq but ko'rinish turardi. Chehrasi ochiq va sokin edi. Harakatlarining erkin va soddaligi meni hayron qoldirdi. Ensasidagi yarim doira shaklida siyrakkina soch qolgan va yuqori labining holati og'zida tishlarining but emasligini aniq bildirib turgan bo'lishiga qaramay, uning afi-basharasi hali ham ko'hlikkina edi.

Knyaz Ivan Ivanich o'tgan asrning oxirida, o'zinig olivjanob tabiat, chirolyi qiyofasi, ajoyib dovyurakligi, shuhratli va bardam qarindosh-urug'lari va, ayniqsa, o'zining tolelik ekanligi tufayli hali juda yosh chog'idanoq yuqori martabaga ega bo'lgan edi. U xizmat qilar ekan, tez orada shuhratparastlik yo'lida shunchalik murodi hosil bo'lgan ediki, bu jihatdan hech armoni qolmagandi. Ilk yoshlik chog'idanoq u o'zini shunday tutdiki, taqdir unga keyinchalik ato qiladigan dunyodagi eng bop martabani

¹ Salom qadrdon amakivachcham (*frans.*).

ishg‘ol qilishga go‘yo hozirlik ko‘rayotganday edi; shu sababli boshqalarning hayotida bo‘lgani kabi uning porloq va birmuncha shuhratparastlikka moyil bo‘lgan hayotida ham muvaffaqiyatsizliklar, umidsizliklar va xafagar-chiliklar bo‘lib turgan bo‘lsa-da, u bir marta ham o‘zining na vazmin xarakterini, na balandparvoz fikrlashini, na din va axloqning asosiy qoidalariga bo‘lgan ixlosini o‘zgartirgan va ko‘pchilikning hurmat-izzatiga yuqori marta-basidan ham ko‘ra ko‘proq o‘zining izchilligi va qat’iyati tufayli sazovor bo‘lgan edi. Uning aqli jilla ham ko‘p bo‘lmasa-da, o‘zining mavqeyi shuhratparastlik orqasida hayotda sodir bo‘ladigan jamiki g‘avg‘o-tashvishlarni nazar-pisand qilmaslikka imkon berardi, shu sababli uning fikrlash tarzi ham baland edi. U rahmdil va sezgir odam bo‘lsa ham, odamlar bilan muomalada sovuq, birmuncha dimog‘dor edi. Buning sababi shuki, u o‘z mavqeyi bilan ko‘plarga foyda keltirishi mumkin bo‘lganligidan o‘zining sovuqqonlik qilib uning nufuzidan foydalanish payida bo‘lgan kishilarning iltimoslari va mulozamatlaridan o‘zini olib qochishga harakat qilardi. Biroq yuqori zodagonlardan bo‘lgan bir kishining xushfe’lligi bilan bu sovuqlik yumshar edi. U juda yaxshi tahsil ko‘rgan va ko‘p o‘qigan kishi edi; lekin uning ma’lumoti yoshligida, ya’ni o‘tgan asrning oxirida olgan bilimi bilan cheklanib qolgandi. U XVIII asrda Fransiyada falsafa va fasohat sohasida yozilgan ajoyib asarlarning hammasini mutolaa qilgan, fransuz adabiyotining barcha yaxshi asarlarini puxta bilganligidan, Rasin, Kornel, Boalo, Molyer, Monten, Fenelonning asarlardan tez-tez sitatalar keltira olar va shunday qilishni yaxshi ko‘rar; mifalogiyadan mukammal bilimga ega edi va fransuzchaga tarjima qilingan epik poeziyaning qadimgi yodgorliklarini o‘qib bahra olgan, Segyur asarlarini o‘qib, tarixdan yetarlichcha bilim to‘plagandi; lekin arifmetikadan

bo‘lak na matematika, na fizika va na hozirgi zamon adabiyotidan hech qanday tushunchaga ega emasdi: u odamlar bilan suhbatlashganida Gyote, Shiller va Bayron to‘g‘risida so‘z ochilsa odob bilan sukut etar yoki bir ikki og‘iz umumiy gap aytib qo‘ya qolar, biroq hech qachon ularning asarlarini o‘qimas edi. Endilikda kamdan kam odamlarda bo‘lgan bu xildagi fransuz klassik tahsiliga qaramasdan, u odamlar bilan sodda so‘zlashar va ana shu soddalik uning ba’zi narsalarni bilmasligini bilintirmas hamda unga yo-qimlilik va vazminlik bag‘ishlar edi. U har qanday originallikning zo‘r dushmani bo‘lib, originallik layoqatsiz kishilarning hiylasi der edi. U qayerda yashamasin, unga ulfatlar, odamlar zarur edi. Moskvadami yoki chet eldamni, u hamisha kishilar bilan aloqa qilib yashar va ma’lum kunlarda butun shahar ahlini o‘z uyida qabul qilardi. U shaharda shunday e’tiborli ediki, uning taklifnomasi hamma mehmonxonalarda pasport o‘rniga o‘tar, aksar yosh va go‘zal oyimlar qirmizi yuzlarini o‘z xohishlari bilan unga tutib berar, u bo‘lsa ularni go‘yo bir otalik tuyg‘usi bilan o‘pganday bo‘lardi, juda boobro‘, odamshavanda kishilar ham knyazning ulfatlari qatoriga o‘tsalar, bundan behad quvonar edilar.

Knyaz uchun buvim singari bir toifadan chiqqan, bir xil tarbiya ko‘rgan, bir xilda fikrlaydigan va tengqur odamlar ham qolgan edi; shunga ko‘ra u buvim bilan bo‘lgan eski do‘stona munosabatini alohida qadrlar va doimo unga katta hurmat ko‘rsatar edi.

Men knyazga qarab to‘ymas edim. Hammaning uni hurmat qilishi, katta zarvor pogonlari, uni ko‘rib buviming behad suyunganligi va, nazarimda, birgina uning buvimdan hayiqmay, u bilan butunlay erkin muomala qilishi va, hatto, jur‘at etib, uni ma cousin deb atashi menda unga nisbatan hurmat uyg‘otardiki, bu buvimga bo‘lgan

hurmatimdan ortiq bo‘limganida ham, har holda o‘shanga tenglashib qolar edi. Unga mening she’rimni ko‘rsatganlarida, meni o‘z oldiga chaqirib:

– Kim biladi, ma cousin, balki, bu ikkinchi Derjavin bo‘lar, – dedi.

Knyaz shu so‘zlarni aytar ekan, mening yuzimni shunchalik qattiq chimchiladiki, buni suyib qilayotganini bilganim uchungina baqirib yubormadim.

Mehmonlar tarqalishdi, otam bilan Volodya tashqariga chiqishdi; mehmonxonada knyaz, buvim va men qoldik.

– Nima uchun azizim Natalya Nikolayevna kelmab-dilar? – knyaz Ivan Ivanich bir zumgina sukut saqlagach, to‘satdan shunday deb so‘rab qoldi.

– Ah! Mon cher¹, – buvim ovozini pasaytirib va qo‘lini uning mundiri yengiga qo‘yib turib javob berdi, – u o‘z mayli bilan ish tutganida, turgan gap, kelgan bo‘lardi. Uning menga yozishicha, Pierre unga borishni taklif qilsa ham, uning o‘zi kelishni xohlamabdi, sababki, bu yil daromadlarining mutlaqo tayini bo‘limgan emish. U: „*Bu yil butun uy ichim bilan Moskvaga ko‘chib borishimning hech o‘rni yo‘q. Lyubochka hali juda kichkina; siznikida yashaydigan bolalarim to‘g‘risida esa, o‘zim bilan birga turganlaridan ko‘ra ko‘nglim xotirjam*“, – deb yozibdi. Bularning hammasi juda soz! – buvim so‘zini shunday bir ruhda davom ettirdiki, buning ko‘pda ham soz ekanligiga ishonolmaganini ochiq-oydin bildirdi, – Bolalar biron-bir narsani o‘qib-o‘rganishi va turmushning past-balandini anglashi uchun ularni allaqachon bu yoqqa jo‘natish kerak edi; bo‘lmasa qishloqdagi tarbiya tarbiya bo‘ldimi?.. Axir, hademay o‘n uchgaga kiradi, narigisi o‘n birga to‘ladi... Pay-qadingizmi, mon cousin, bu yerda ular xuddi bir yovvoyidek... uyga ham eplab kirolmayapdilar.

¹Oh azizim (*frans.*).

— Lekin men tushunolmayapman, — deb javob berdi knyaz, — ahvol chatoq deb zo‘r berib shikoyat qilaverishning sababi nima o‘zi? Uning yetarlicha davlati bor, Natashaning Xabarovkasini oladigan bo‘lsak, biz unda, teatrda siz bilan o‘ynar edik, — o‘shandan beri u yerni besh barmog‘imday bilaman — ajoyib bir mulk! U juda yaxshi daromad berishi kerak.

— Sinashta do‘stim bo‘lganingiz uchun sizga ayta man, — deb buvim ma’yuslik bilan uning so‘zini bo‘ldi, — menimcha, buning hammasi uning bu yerda yolg‘iz yashab, klubma-klub, ziyofatma-ziyofat tentirab, istagan noma’qulchilagini qilishi uchun bir bahona. Natasha esa hech narsadan gumonsiramaydi. Buni qarang, bu qanday hotamtoylilik bo‘ldi — u har narsada eriga ishonadi. U bolalarni Moskvaga olib borish kerakligiga Natashani ishontiribdi. Natasha bir o‘zi ahmoq bir murabbiya bilan qishloqda qolishi kerak edi. Natasha bunga ham ko‘na qolibdi. Bordi-yu eri knyaginya Varvara Ilinich na o‘z bolalarini qanday kaltaklasa, biz ham shunday kaltaklashimiz lozim desa, u hoynahoy bunga ham rozi bo‘lar edi, — dedi buvim, oshkora g‘azab to‘nini kiygанича kreslosida aylanayotib. — Shunday, azizim, men ko‘pincha bunday deb o‘ylayman, — buvim birozgina sukul saqlab turgach, ko‘zyoshlarini artmoq uchun ikki ro‘molchasidan birini qo‘liga olib, so‘zini davom ettirdi, — u Natashaning na qadriga yeta oladi va na tushunadi. Natasha o‘zining butun mehribonligi, eriga bo‘lgan mehr-oqibati va o‘z qayg‘u-hasratlarini yashirishga urinishiga qaramasdan — buni men juda yaxshi bilaman — u eri bilan baxtli bo‘lolmaydi; mening gaplarim esingizda bo‘lsin, agar eri...

Buvim yuzini ro‘molcha bilan berkitdi.

— Eh! Ma bonne amie,¹ — dedi knyaz ta’na bilan, — sizga hali ham aql kirmabdi — qachon qaramay qaqshaganingiz-qaqshagan, dardi-hasrat bilan yig‘laganingiz-yig‘lagan. Axir ayb emasmi? Men uni ko‘pdan taniyman va tanigan-da ham g‘amxo‘r, mehribon va juda binoyi bir er hamda eng muhimi — oliyhimmat bir odam deb bilaman, un parfait honnête homme².

Men eshitishim kerak bo‘lmagan bu gaplarni beixtiyor eshitib, oyoqlarimning uchida yurib, zo‘r hayajon ichida xonadan chiqdim.

XIX bob

IVINLAR

Men derazadan qunduz yoqali havorang bekish³ kiy-gan uch bolani ko‘rishim bilan: — Volodya! Volodya! Ivinlar kelishyati! — deb qichqirdim. Ular yosh va olifta murabbiyning orqasidan ergashib, ro‘paradagi yo‘lkadan uyimizga tomon kelishardi.

Ivinlar bizning qarindoshlarimiz bo‘lib, yoshlari biz bi-lan deyarli baravar edi, biz Moskvaga kelishimiz bilan tez orada ular bilan tanishib, chiqishib qolgan edik.

Ivinlarning ikkinchisi — Seryoja — bug‘doyrang, jinga-laksoch bo‘lib, burni tanqaygan, qip-qizil lablari sip-sil-liq bola edi. Lablari yuqori qatordagi birmuncha turtib chiqqan oppoq tishlarini kamdan kam qoplardi. Uning ko‘zлari ko‘m-ko‘k va chiroyli, ko‘rinishi odatdan tashqari tetik va ziyrak. U hech qachon kulimsiramas, yo butunlay jiddiy boqar, yoinki shang‘iroq ovozi bilan astoydil,

¹ Mening mehribon do‘stim (*frans.*).

² Mutlaqo odamshavanda bir kishi (*frans.*).

³ Bekesh — burmabel palto (*frans.*).

juda jozibali kular edi. Uning o‘ziga xos chiroyi bir qarashdayoq meni hayratga qoldirdi. O‘zimda unga nisbatan kuchli mayl sezdim. Uni ko‘rsam bahri-dilim ochilardi. Bir vaqtlar butun fikri-xayolim uni ko‘rishda bo‘lib qolgandi. Uch-to‘rt kun uni ko‘rmay qolsam sog‘ina boshlar va xafa bo‘lib yig‘laguday bo‘lardim. O‘ngimda ham, tushimda ham butun xayolim o‘sanda edi: uxbayotib ham uning tushimga kirishini istar edim. Ko‘zlarimni yumar ekanman, ro‘paramda uni ko‘rar va uning sharpasi menga huzur baxsh etadiganday unga orzumand bo‘lar edim. Dunyoda hech kimga nisbatan bunday hisni tuyishga jur’at etmas edim, bu tuyg‘uni shunchalik yuksak qadrlar edim. Balki besaranjom ko‘zlarimni undan uzmasligim ko‘ngliga urganchidan yoki meni umuman xush ko‘rmaganligidan bo‘lsa kerak, u mendan ko‘ra ko‘proq Volodya bilan o‘ynashni va u bilan gaplashishni yaxshi ko‘rardi; lekin shunday bo‘lsada, men undan mamnun edim, hech narsa istamas, hech narsa talab qilmas va uning uchun har narsaga tayyor edim. Menda unga nisbatan paydo bo‘lgan qizg‘in mayldan tashqari, uni ko‘rishim bilan menda o‘shandan qolishmaydigan boshqa bir kuchli tuyg‘u – uni ranjitib qo‘yishdan, biron narsa bilan izzat-nafsiga tegishdan, uning ko‘nglini qoldirishdan cho‘chish tuyg‘usi ham uyg‘onardi: balki, bu uning takabbur bo‘lib ko‘ringanligidan yoki o‘zimning tashqi qiyofamni yoqtirmay, boshqalardagi chiroyga juda ortiqcha baho berganimdan, yoinki, eng to‘g‘risi, mehr-muhabbatning alomati bo‘lsa kerak, men unga nisbatan qanchalik muhabbat tuysam, shunchalik qo‘rquv ham his qilar edim. Seryoja men bilan birinchi daf‘a gaplashganida, bunday kutilmagan baxtdan men o‘zimni shunchalik yo‘qotib qo‘ydimki, rangim dam bo‘zarib, dam qizarib, javob berolmay qoldim. Seryojaning yomon bir odati bor edi. Bir narsa ustida o‘ylaydigan bo‘lsa, ko‘zlarini bir nuqtaga

qadab, tinimsiz pirpiratar va burnini jiyirib, qoshlarini chi-mirardi. Hamma, bu odati uning aftini juda buzadi derdi, lekin bu menga shunchalik yoqimli tuyulardiki, o‘zim ham beixtiyor shunga odatlanib qoldim va u bilan tanishganidan keyin oradan bir necha kun o‘tgach, buvim mendan, ko‘zlarining namuncha ukkiga o‘xshab olaytirasen, toliq-maydimi, deb so‘radi. Bizning o‘rtamizda hech mahal muhabbat to‘g‘risida gap bo‘lмаган bo‘lsa ham, Seryoja mening ustimdan hukm yurita olishini sezib, bolalik munosabatimizda undan ongsiz ravishda, lekin zolimlarcha foy-dalanar edi, men bo‘lsam ko‘nglimdagи bor gapni aytishni qanchalik istamayin, dardimni ochiq aytishga jur’at qilol-may, beparvo bo‘lib ko‘rinishga urinar va mo‘min-qobil bo‘lib unga bo‘ysunar edim. Ba’zan uning ta’siri menga chidab bo‘lmaydigandek og‘ir tuyulsa-da, lekin bu ta’sir dan qutulishga qodir emas edim.

Yashnamay va xayrixohlik ko‘rmay xazon bo‘lgan beg‘araz, cheksiz muhabbatning beg‘ubor, ajib bir hissini es-lasam yuragim eziladi.

Taajjubki, nechundir men bolalik chog‘imda kattalar-ga o‘xhashga harakat qilar edim, katta bo‘lganimdan ke-yin esa, ko‘pincha bolalikni qo‘msaydigan bo‘lib qoldim. Bolaga o‘xshamaslik orzusi, mening Seryoja bilan bo‘lgan munosabatimda sirtga qalqishga tayyor bo‘lgan tuyg‘umni bo‘g‘ib, meni munofqlikka majbur qilar edi. Men ba’zan uni juda o‘pgim kelsa ham o‘pish, qo‘lidan ushlab, seni ko‘rsam biram suyunaman deyish u yoqda tursin, hatto uni Seryo-ja deb atashga ham jur’at etolmay, o‘zimiz odatlangancha to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sergey der edim. Hissiyotga berilishning har bir ko‘rinishi bolalikni isbotlaydi va bunga yo‘l qo‘yuv-chilarning o‘zi hali boladir. Kattalarni boshqalar bilan mu-nosabatda ehtiyyotkorlikka va sovuqlikka o‘rgatgan achchiq saboqlarni boshimizdan kechirmay turib, kattalarga taqlid

qilishdek g‘alati bir istakning birligina o‘zi bilan biz nozik bolalik mehrining sof lazzatidan o‘zimizni mahrum etamiz.

Men xizmatkorxonadayoq Ivinlarga to‘qnash kelib, ular bilan salomlashdim-da, zing‘illagancha buvimning oldiga tushdim. Ivinlarning kelganini unga shunday bir ifoda bilan aytdimki, go‘yo bu xabar uni butunlay xushnud qilmog‘i kerakday edi. So‘ngra Seryojadan ko‘zimni uzmay, uning orqasidan mehmonxonaga kirar ekanman, uning butun xatti-harakatini kuzatib bordim. Buvim Seryojaning kap-katta bola bo‘lib qolganini aytib, unga o‘tkir nazar tashlagan paytda, rassom o‘z asari to‘g‘risida hurmatli hakamdan fikr kutib qanday kayfiyat kechirsa, men ham shunday qo‘rquv va umid tuyg‘usini kechirdim.

Ivinlarning yosh murabbiysi Herr Frost buvimdan ijozat olib, biz bilan birga bog‘chaga chiqib, skameykada oyoqlarini kelishtirib chalishtirib o‘tirdi, u dumaloq birinj tutqali hassani buti orasiga qo‘yib, o‘z qilmishidan juda mamnun odamlarga o‘xshab sigara tortdi.

Herr Frost nemis bo‘lsa ham, bizning oqko‘ngil Karl Ivanichimizdan mutlaqo boshqacha nemis edi. Birinchidan, ruschani to‘g‘ri gapirsa ham, ora-sira yomon talaf-fuzda fransuzcha qistirib qo‘yar, bu bilan umuman va xususan xotinlar orasida mo‘min-qobil odamdek obro‘ga ega edi. Ikkinchidan, mallarang mo‘ylov qo‘yar, uchlari yelka tasmalari ostiga qistirib qo‘yilgan qora atlas sharfga katta yoqut to‘g‘nag‘ich qadab yurar, tovlanib turadigan och havorang, pochasi tasmali shim kiyardi. Uchinchidan, u yosh bo‘lib, ko‘rinishi chiroyli va o‘ziga mag‘rur odam edi. Oyoqlarining muskuli odatdan tashqari durkun va baquvvat bo‘lib, o‘zining bu afzalligiga alohida bino qo‘yanligi oshkora bilinib turardi. Uning har bir harakati xotin zotining diqqatini tortmay qolmaydi va shuning uchun bo‘lsa kerak, oyog‘ini ko‘zga tashlanadigan joyga

qo‘yar va oyoqda turgan yoki o‘tirgan bo‘lsin, boldirini har doim qimirlatib turardi. Xullas, bu o‘zini azamat va xotinboz qilib ko‘rsatishni istagan rus-nemis yigit edi.

Bog‘chada o‘yin juda ko‘ngilli bo‘ldi. O‘g‘ri-o‘g‘ri o‘yini avjida edi. Lekin bir hodisa sal bo‘lmasa butun xur-sandchilikni buzib yuborayozdi. Seryoja qaroqchi bo‘lgandi: u yo‘lovchilarning orqasidan quvayotib, qoqilib yiqildi-da, tizzasi bilan daraxtga shunday qattiq urildiki, men uni tilka-tilka bo‘lib ketdi deb o‘ylovdim. Men jandarm edim, vazifam uni ushlab olish bo‘lsa ham, uning yoniga borib, kuyinchaklik bilan og‘riyaptimi deb so‘radim. Seryojaning jahli chiqdi: mushtlarini qisib, yer tepindi va menga o‘shqirdi. Uning ovozidan tizzasini juda qattiq urib olgani ochiq bilinib turardi.

– Xo‘s, nima bo‘pti? Shu bilan o‘yin to‘xtarmidi! Nega endi meni ushlamaysan? – U shu so‘zlarni bir necha marta qayta takrorlab, Volodyaga va Seryojaning akasiga qiyo boq-di. Ular yo‘lovchi bo‘lganlari uchun hakkalaganlaricha yo‘lka bo‘ylab qochar edilar. Seryoja birdan qichqirib qahqahlab kuldi-da, ularni ushplash uchun orqalaridan quvib qoldi.

Uning bu mardona harakati meni qanday hayratda qoldirgani va asir qilganini ifodalashga ojizman: tanasi qattiq alamda bo‘lsa ham yig‘lash u yodqa tursin, og‘rig‘ini sezdirmadi va o‘yinni bir daqiqa ham unutmadi.

Shu hodisadan ko‘p o‘tmay, to‘damizga Ilinka Grap qo‘shilgach, biz tushlik ovqat mahaligacha yuqoriga chiqqanimizda, Seryoja o‘zining ajoyib mardligi va matonatli xarak-teri bilan meni yanada ko‘proq asir qilib, hayratda qoldirdi.

Ilinka Grap kambag‘al bir ajnabiyning o‘g‘li edi. Bu ajnabiy bir zamонлар bobomga boqimanda bo‘lib ya-shab, undan ko‘p yaxshilik ko‘rgan ekan. Endilikda u o‘z o‘g‘lini biznikiga tez-tez yuborib turishni o‘ziga farz deb bilar edi. Agar u biz bilan tanishligi o‘g‘limga qandaydir

bir sharaf yoki huzur bag‘ishlashi mumkin, deb o‘ylagan bo‘lsa, bu xususda butkul yanglishardi, negaki biz Ilinka bilan do‘stlashish u yoqda tursin, qachonki uni masxaralab ermak qilgimiz kelgandagina unga nazar tashlar edik. Ilinka Grap o‘n uch yoshlardagi chuvakkina, novcha, rangi siniq, basharasi qushsimon, qarashlari muloyim-yuvosh bir bola edi. Uning ust-boshi juda yupun bo‘lsa ham boshiga doimo ko‘p yog‘ surkab yurishidan, oftob chiqqan kunlari ‘boshidagi yog‘ erib, kamzuli ichiga oqib tushsa kerak deb o‘ylardik. Hozir uni eslasam, juda mulozamatli, mo‘min-qobilgina bola bo‘lgan ekan. U paytda esa u menga ayashga va hatto uning to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga ham arzimaydigan jirkanch bir vujud bo‘lib ko‘rinardi.

O‘g‘ri-o‘g‘ri o‘yini tugashi bilan biz yuqoriga chiqib, sho‘xlik bilan turli gimnastika o‘yinlari qilib, bir-birimizga maqtana boshladik. Ilinka iymanibgina kulimsirab, hayronlik bilan bizga qarab turardi, unga ham gimnastika qilib ko‘rishni taklif qilganimizda, sira darmonim yo‘q, deb bundan bosh tortdi. Seryoja juda ham yoqimtoy bola edi; u kamzulini yechdi – uning yuz-ko‘zлari yonar edi – to‘xtovsiz qahqaha urib kular va yangi o‘yinlar chiqarar edi: yonma-yon qo‘yilgan uch stul ustidan sakrab, butun uy bo‘ylab g‘ildirak bo‘lib yumalar, Tatishchevning lug‘at kitobini uyning o‘rtasiga qo‘yib, uning ustida boshi bilan turar va oyoqlari bilan shunday alomat harakatlar qilardiki, buni ko‘rib odam qotib-qotib kulardi. Bu so‘nggi o‘yindan keyin u o‘ylanib, ko‘zlarini pirpiratdi va birdan jiddiy tus olib, Ilinkaning oldiga kelib: „Qani shuni qilib ko‘r-chi, uncha qiyin emas“, – dedi. Grap hammaning diqqati o‘zida ekanini payqab, qizarib ketdi va eshitilar-eshitilmas ovozda buni qilolmasligini aytdi.

– Bu qanaqa gap, nega hech narsa ko‘rsatishni xohlamaydi? Qiz bolami bu... albatta boshi bilan turishi kerak!

Shu gaplarni aytib Seryoja uning qo‘lidan ushladi.

– Albatta, albatta boshi bilan! – hammamiz Ilinkani qurshab olib shunday deb qichqirdik. Ilinka bu onda qo‘rqib, rangi bo‘zarib ketdi. Biz uning qo‘lidan ushlab olib, lug‘at kitobi oldiga tortqilar edik.

– Qo‘yib yuboringlar, o‘zim boraman! Kamzulimni yirtib yuborasizlar! – deb qichqirdi sho‘rlik Ilinka. U dodvoy qilgan sayin biz qaytaga haddimizdan oshar edik; ko‘k kamzulining choklari so‘kilganday bo‘lardi.

Volodya bilan katta Ivin Ilinkaning boshini egib, lug‘at kitobi ustiga qo‘yishdi; men bilan Seryoja bola bechoraning har tarafga tipirchilagan ingichka oyoqlaridan ushlab, shimini tizzasi qadar shimardik va qattiq kulishib, oyoqlarini yuqoriga ko‘tardik; kichik Ivin uning butun gavdasining muvozanatini saqlab turdi.

Shunday bo‘ldiki, chuvvos kulgidan keyin hammamiz birdan jim bo‘lib qoldik va xonada sukunat cho‘kib, sho‘ring qurg‘ur Grapning og‘ir-og‘ir nafas olganigina eshitilardi, xolos. Shu onda men bu ishimizning zarracha kulgili va quvonadigan bir narsa emasligiga aqlim yetgan edi.

– Mana endi azamat desa bo‘ladi seni, – dedi Seryoja uni shapatilab.

Ilinka indamas va qo‘limizdan chiqib ketishga urinib, oyoqlarini har tarafga siltar edi. Jon-jahdi bilan oyog‘ini tipirchilatib, poshnasi bilan Seryojaning ko‘ziga shunday qattiq tepdiki, Seryoja o‘sha zahoti uning oyoqlarini qo‘yib yuborib, beixtiyor yosh oqayotgan ko‘zini ushlagancha bor kuchi bilan Ilinkani siltab yubordi. Ilinka endi ushlab turmaganimiz uchun u jonsiz bir narsaday gursullab yerga tushdi va yig‘i aralash:

– Nega buncha meni qiynaysizlar? – deya oldi arang. Ilinka bechoraning afti-angori, to‘zigan sochlari, pochalari shimalrilgan shimi va shimining ostidan ko‘rinib turgan kir

boldiri uning butun vajohatini ayanchli qilib ko'rsatardi. Uning bu vajohati bizni hayratda qoldirdi. Biz indamasdan zo'rma-zo'rakilik bilan kulimsirashga urinardik.

Dastlab Seryoja o'ziga keldi.

– Qiz boladan kam joyi yo'q ekan, – dedi u oyog'i bilan Ilinkani sekingina turtib, – u bilan hazillashib bo'lmaydi... qani, bo'ldi, turinglar.

– Ha, ha! Poshnasi bilan tepgani-tepgan, yana so'kkani ortiqcha! – deb baqirdi Seryoja va lug'atni qo'liga olib, sho'rlik bolaning boshiga o'qtaldi. Ilinka esa o'zini himoya qilishni o'ylamay, qo'llari bilan boshini berkitdi, xolos.

– Ana xolos! Ana xolos!.. Hazilni bilmagandan keyin u bilan o'rtoqchilik qilmaymiz... Yuringlar pastga, – dedi Seryoja g'ayritabiyy tarzda kulib.

Men achinib u bechoraga qaradim, u polga yotib olib, yuzini kitoblarning orasiga yashirgancha shunday yig'lardi-ki, nazarimda, butun a'zoyi-badanining qaqshab titrashidan sal fursat ichida o'lib qoladigandek edi.

– Ey, Seryoja! – dedim men unga, – nega bunday qilding?

– Yaxshi bo'ldi!.. Oyog'imning suyagi majaqlanib keta-yozgan bo'lsa ham men yig'laganim yo'q.

„Darvoqe, bu rost, – deb o'yladim men. – Ilinka o'lgu-day yig'loqi, Seryoja bo'lsa – biram azamat... rostakam azamat!..“

Men u sho'ring qurg'ur a'zoyi badanining alam-sitamidan ham ko'ra, ehtimol, o'ziga yoqqan besh bolaning hammasi hech bir sababsiz undan hazar qilib, uni haydar yubormoqchi bo'lganligidan o'ksinib yig'layotgandir, deb o'yab ko'rmabman.

Berahmlik qilganimning sababini o'zim ham bilmayman. Nima bo'lib, men uning oldiga bormadim, uning yonini olmadim va yupatmadim? Inidan otib yuborilgan zag'cha bolasini yoki devorning orqasiga uloqtirish uchun

olib ketilayotgan kuchukbolani, yoinki sho‘rva qaynatish uchun so‘ygani olib borilayotgan tovuqni ko‘rganimda meni ho‘ngrab yig‘lashga majbur qilgan rahm-shafqat hissi qayda qoldi?

Nahotki Seryojaga bo‘lgan mendagi muhabbat hamda uning qarshisida o‘zi singari azamat bo‘lib ko‘rinish istagi bu ajib hissiyotni so‘ndirgan bo‘lsa? Bu muhabbat va azamat bo‘lib ko‘rinish istagi havas qilgudek emas edi! Mening bolalik xotiralarim sahifalariga yolg‘iz shulargina qora dog‘ soldilar.

XX bob

MEHMONLAR YIG‘ILISHGANI

Bufetda odatdan tashqari besaranjomlik hukm surardi, mehmoxona bilan zal charog‘on yoritilgan bo‘lib, u yerdag‘i menga tanish bo‘lgan hamma narsani qandaydir bayram tusiga kiritgan edi. Mana shularga va xususan, knyaz Ivan Ivanichning o‘z musiqasini bejiz yubormaganligiga qara-ganda, kechqurun bir talay mehmonlar kelishi kutilardi.

Har safar uyimiz oldidan o‘tgan arava shovqini eshitilishi bilan men deraza oldiga yugurib, kaftlarimni chakkamga qo‘ygancha betoqatlik bilan, qiziqib oynadan ko‘chaga qarardim. Derazadan qaraganda dastlab hamma narsa qorong‘ilik ichida yashiringan edi, biroz fursat o‘tgach, atrofdagi narsalar birma-bir ko‘zga tashlana boshladi: ro‘parada – menga ko‘pdan tanish bo‘lgan fonus yoqilgan do‘kon, uning yonida pastki ikki derazasidan chiroq shu’lasi tushib turgan katta bir uy, ko‘chaning o‘rtasida – ikki yo‘lovchi bilan allaqanday Vanka yoki sekin-sekin yurib uyga qaytayotgan kolyaska ko‘rindi; shu payt eshik oldiga bir kareta kelib to‘xtadi. Ivinlar barvaqt kelishga va’da bergenliklari uchun men kare-

tadagilar albatta o‘shalardir deb o‘ylab, ularni qarshi olish uchun dahlizga yugurdim. Eshikni uqali kamzul kiygan bir xizmatkor ochdi. Eshik ochilishi bilan Ivinlar emas, ikki xotin ko‘rindi: bularning biri – qunduz yoqali havorang salop¹ kiygan barvasta ayol, ikkinchisi esa – yashilrang sholga butunlay o‘ralib olgan mo‘jazgina vujud edi. Uning sholro‘moli ostidan mo‘ynali botinka kiygan kichkina oyoqlarigina ko‘rinib turardi. Ular ko‘rinishi bilan ta’zim qilishni o‘ylagan bo‘lsam ham, biroq dahlizga turganimga sira e‘tibor bermasdan, kichigi indamasdan kattasini oldiga borib to‘xtadi. Kattasi kichkinasining boshini butunlay berkitib turgan ro‘molini tushirdi, uning salopini yechdi va uqali kamzul kiygan xizmatkor bu narsalarni olgach va uning mo‘ynali botinkalarini yechgach, ro‘molga o‘ralib olgan xotinning bag‘ridan o‘n ikki yashar bir do‘ndiqqina qizcha chiqdi. Qizcha oldi ochiq kaltagina doka ko‘ylak, oppoq lozimcha va jajjigina qora boshmoqcha kiygan edi. Oppoq bo‘yniga qora baxmal lenta tashlagandi; to‘q malla jingalak soch qoplagandi, sochlari oldidan qaraganda do‘ndiqqina yuziga, orqasidan qaraganda – yalang‘och yelkasiga biram yarashgan ediki, „Московские ведомости“ning parcha-purchalariga ertalabdan beri o‘ralib va qizdirilgan qisqich bilan kuydirilib jingalak qilingan deb kim aytса ham, hatto Karl Ivanich aytса-da bunga ishonmasdim. U onadan shunday jingalak soch bilan tug‘ilgandek ko‘rinardi.

Uning chehrasida kishini hayron qoldiradigan jihatи bodomqovoq ko‘zlarining odatdan tashqari kattaligi edi. Shahlo ko‘zлari bilan jajjigina og‘zi o‘rtasida g‘alati, lekin yoqimli bir nosozlik mavjud edi. Lablari bejirim; ko‘zлari shunday jiddiy boqar va yuzining umumiyo ko‘rinishi shunday ediki; odatda, bundaylardan tabassum kutmaydi kishi va lekin ularning tabassumi shunga yarasha jozibali bo‘ladi.

¹ Salop – ayollarning XIX asr oxirlarida rusm bo‘lgan keng paltosi.

Men o‘zimni ko‘rsatmaslikka harakat qilib, lip etib zalning eshididan o‘tib oldim-da, o‘zimni o‘yga cho‘mgan va mehmonlar kelganini mutlaqo bilmaganga solib, u yoqdan bu yoqqa yurib turdim. Mehmonlar zalning o‘rtasiga yetishlari bilan men go‘yo o‘zimga kelganday bo‘lib, oyoqlarimi bir-biriga urdim-da, ularga buvimning mehmonxonada ekanligini bildirdim. Valaxina xonim iltifot bilan men ga boshini silkitdi. Uning yuzi qizi Sonechkaning yuziga o‘xshashligi uchun ham menga yoqdi.

Buvim Sonechkani ko‘rishi bilan juda sevinganday bo‘ldi: uni o‘z oldiga chaqirib olib, peshonasiga tushib turgan birgina kokilini to‘g‘rilab qo‘ydi-da, unga tikilib turib: Quelle charmante enfant¹ – dedi. Sonechka kulimsirab qizardi va biram suyumli bo‘lib ketdiki, unga qarab men ham qizarib ketdim.

– Menikida zerikmassan deb o‘ylayman, qoqindiq, – dedi buvim, uning iyagidan ushlab, do‘ndiq yuzini yuqori ko‘tarib, – bemalol o‘ynab-kulaver. – Buvim Valaxina xonimga qarab qo‘li bilan meni tutib turib, qo‘shib qo‘ydi: – Mana hozirdanoq bir xonim bilan ikki yigit bor.

Bu yaqinlashuv menga shunchalik yoqib ketdiki, yana bir karra qizarishga majbur bo‘ldim.

Tobora ortiq uyalayotganimni sezib va yana arava shovqinini eshitib, tashqariga chiqishni lozim ko‘rdim. Dahlizda o‘g‘li va bir gala qizlari bilan knyaginya Kornakovani uchratdim. Hamma qizlarining afti-angori bir xilda bo‘lib, knyaginyaning o‘ziga o‘xshar va ko‘rimsizgina edi; shu sababdan birortasi ham diqqatni tortmasdi. Ular saloplari va mo‘yna bo‘yinbog‘larini yechib, hammalari birdan chuldirashib gaplashar, yelib-yugurishar va negadir, hoynahoy bunchalik ko‘p bo‘lganliklari uchun bo‘lsa kerak, kulishardi. Etyen o‘n besh yoshlardagi novcha,

¹, „Qanday yoqimtoy bola!“ (frans.).

to‘ladan kelgan bola bo‘lib, botiq ko‘zlarining ostki qovoqlari ko‘kimtir, qo‘l-oyoqlari yoshiga nisbatan katta edi; u beso‘naqaygina, ovozi yoqimsiz va dag‘al bo‘lsa ham, o‘ziga bino qo‘ygan ko‘rinar va xuddi, mening nazarimda, kaltak yeb turadigan bolalarga o‘xshab ketardi.

Biz ancha vaqtgacha bir-birimizga ro‘para bo‘lib, churq etmay, diqqat bilan tikilishib turdik, so‘ngra o‘pishmoqchi bo‘lganday yaqinroq surilishdig-u, lekin bir-birimizning ko‘zimizga qarab, nimagadir fikrimizdan qaytdik. Uning singillari ko‘ylaklarini hilpiratishib yonimizdan o‘tib ketgach, men gap boshlamoqchi bo‘lib, karetada siqilishmay keldinglarmi, deb so‘radim.

– Bilmadim, – deb javob berdi u pisand qilmay, – men hech vaqt karetada yurmas edim, negaki o‘tirgan zahotim ko‘nglim ayniyidi, shunaqa bo‘lishini onam ham biladi. Biz kechqurunlari biron yerga boradigan bo‘lsak, men hamisha kucherning yonida o‘tiraman – hamma narsani ko‘rib, tomosha qilib boraman – Filipp menga haydattiradi, ba’zan qamchinini ham olaman. – U ma’noli bir harakat bilan qo‘shib qo‘ydi, – o‘tgan-ketganlarni ko‘rib boraman, juda qoyilmaqom bo‘ladi, bildingizmi!

Xizmatkor dahlizga kirayotib:

– Afandim, Filipp qamchinni qayerga qo‘yganingizni so‘rayotibdi, – dedi.

– Qayoqqa qo‘yardim? O‘ziga bergenman.

– Bermaganlar deyapti.

– Unday bo‘lsa fonusga osgandirman.

– Filipp fonusda ham yo‘q deyapti, siz yaxshisi, olib yo‘qotdim deb qo‘ya qoling, shunda sizning bu o‘yinqa-roqligingiz uchun o‘z hamyonidan to‘laydi, – xizmatkor tobora qizishib, ranjib gapirar edi.

Ko‘rinishidan hurmatga sazovor, ammo badqovoq odam bo‘lgan xizmatkor astoydil Filippning yonini olar

va nima bo'lsa-da, bu ishni aniqlash payida ekanligi ko'rnardi. Men beixtiyor nazokat hissi bilan, go'yo hech narsa payqamaganday bo'lib o'zimni chetga oldim; biroq bu yerdag'i xizmatkorlar o'zlarini butunlay boshqacha tutdilar: ular keksa xizmatkorning gapini ma'qullaganday tikilishib, uning yoniga yaqinlashib bordilar.

— Nima bo'libdi, yo'qotsam yo'qotibman-da, — dedi Etyen yana izoh berib o'tirishdan qochib, — qamchini qancha turadi, haqini to'layman-qo'yaman, — u menga yaqinlashib va meni mehmonxonaga tortib, — zap g'alati bo'ldida! — deb qo'shib qo'ydi.

— Yo'q, to'ram, qani aytinq-chi, qayerdan olib to'laysiz? Sizning qanaqa qilib to'lashingizni bilaman: sakkiz oy bo'ptiki, Marya Vasilyevnaga bir tangani hali to'layman deb kelasiz, ikki yil bo'ldi shekilli, mendan ham qarzsiz, Petrushkaga bo'lsa...

— Jim bo'lasanmi yo'qmi! — yosh knyaz g'azabidan rangi o'chib qichqirdi. — Bularning barini aytaman.

— Barini aytaman, barini aytaman! — dedi xizmatkor va biz zalga kirayotganimizda, ayniqsa, ma'nodor qilib: — Yaxshi emas, afandim! — deb qo'shib qo'ydi, so'ng salopi bilan kanduk tomon ketdi.

— Mana shunaqa, shunaqa! — bizning ortimizda; dahlizza kimningdir ma'qullagan tovushi eshitildi. Buvim odamlar to'g'risida o'z fikrini aytar ekan, u ma'lum hollarda ma'lum ohang bilan ko'plik va birlik olmoshlarining ikkinchi shaxsini ishlatishga mohir edi. U siz va sen olmoshlarini umumiyl odathing teskarisicha qo'llansa ham, bular u gapirganda butunlay boshqacha ma'no kasb etar edi. Yosh knyaz uning oldiga kelganda buvim uni sizlab turib bir-ikki og'iz so'z aytdi va mensimay unga bir qarash qildiki, yosh knyazning o'rnida men bo'lganimda butunlay dovdirab qo'lgan bo'lardim; biroq Etyen bunaqa tabiatli bolalar-

dan emas ekan: u buvimning qanday qarshi olganligi va, hatto, uning o'ziga ham hech qanday e'tibor bermay, kelistihan bir tarzda bo'limganda ham, har qalay odobsizlarcha butun jamoatga qarab egildi.

Sonechka butun diqqatimni o'ziga tortgan edi: Volodya, Etyen va men zalning Sonechka bizga ko'rinish turadi-gan, u ham bizni ko'ra va eshitila oladigan bir yerida gaplashayotganimizda, rohatlanib, yayrab gapirganim esimda. O'z tushunchamda, kulgili yoki mardona bir so'z aytadigan bo'lsam, men buni balandroq aytib, mehmonxona eshigiga bir qarab qo'yardim; qachonki, mehmonxonadan bizni na eshitib, na ko'rib bo'lmaydigan joyga o'tganimizdan so'ng men gapirmay qo'ya qoldim, negaki gapdan endi ortiq maza topmas edim.

Mehmonxona va zal sekin-sekin mehmonlarga to'lib borardi; ularning orasida hamisha bolalar kechalarida bo'lgani singari, bir necha katta bolalar ham bor edi, bular go'yo faqat mezbonning ko'nglini olish uchungina xursandchilik qilishib, tansa tushish fursatini o'tkazmaslik payida edilar.

Men, odatda, Seryoja bilan ko'rishganimda juda xursand bo'lguvchi edim. Bu safar Ivinlar kelganda esa Seryoja Sonechkani ko'radi va Sonechka ham uni ko'radi-yu, deb dilim allaqanday g'ash bo'ldi.

XXI bob

MAZURKADAN AVVAL

— Eh-e, hali tansa ham bo'ladiganga o'xshaydi-ku, — dedi Seryoja mehmonxonadan chiqayotib va cho'ntagidan yangigina mayin qo'lqopini olar ekan, — qo'lqopni kiyib olish kerak.

„Qanday bo‘ldi endi? Bizning qo‘lqoplarimiz yo‘q-ku, – deb o‘yladim men, – yuqoriga chiqib, axtarib ko‘rish kerak“. Men butun kamodlarni kavlashtirib, faqat biridan biron yerga borganda kiyiladigan ko‘k qo‘lqopimizni, boshqasidan esa birgina yumshoq qo‘lqopni topdim, lekin bu hech bir ishga yaramasdi, chunki, birinchidan, haddan tashqari eskirib ketgan va isqirt edi, ikkinchidan menga juda katta kelardi va eng yomoni o‘rta barmog‘i kesib tashlangandi, buni Karl Ivanich o‘zining yara barmog‘i uchun qulay bo‘lsin deb allaqachonlar qirqib tashlagan bo‘lsa kerak. Shunday bo‘lsa-da men bu yarimta qo‘lqopni kiyib, o‘rta barmog‘imning hamisha siyoh tegib yuradigan yeriga tikilib qarardim.

– Shu tobda Natalya Savishna bo‘lsaydi, turgan gap, unda qo‘lqop ham topilardi. Bu ahvolda pastga tushib bo‘lmaydi, negaki, nega tansa qilmaysan, deb mendan so‘rab qolsalar, nima deb javob beraman. Bu yerda ham qolib bo‘lmaydi, negaki, albatta sudrab olib ketishadi. Nima qilsam ekan? – derdim men qo‘llarimni silkib.

– Nima qilib o‘tiribsan bu yerda? – dedi yugurib kirgan Volodya, – bor, xonimlarni taklif qil... hozir tansa boshlanadi.

Men ikki barmog‘im isqirt qo‘lqopga suqilganicha qo‘limni unga ko‘rsatib:

– Volodya, sen bu to‘g‘rida o‘ylamagandirsan ham! – dedim ilojsizlikka yaqin bir holatni ifodalovchi ovoz bilan.

– Nimani? – dedi u sabrsizlik bilan. – Ha, qo‘lqop to‘g‘risidami, – deb qo‘shib qo‘ydi qo‘limni ko‘rib, butunlay parvosizlarcha, – yo‘q, o‘ylamaganman; buvimdan so‘rash kerak... nima der ekan u? – Volodya shunday dedi-yu, bu to‘g‘rida boshqa bosh qotirmay, pastga chopib ketdi.

Men uchun jiddiy ko‘ringan ahvol to‘g‘risida Volodyaning sovuqqonlik bilan gapirishi meni xotirjam qildi va

chap qo‘limga kiyib olgan xunuk va yirtiq qo‘lqopni butunlay unutib, men ham mehmonxona tomon shoshildim.

Ehtiyyotlik bilan buviming kreslosiga yaqinlashib va uning paltosidan sekkingina tortib:

– Buvi! Nima qilsak ekan? Qo‘lqopimiz yo‘q! – dedim unga shivirlab.

– Nima deyapsan, o‘rgilay?

– Qo‘lqopimiz yo‘q deyapman, – dedim takror, tobora unga yaqin surilib va har ikkala qo‘limni kresloning dastasiga qo‘yib.

– Bu nima, – dedi buvim, birdan chap bilagimdan ushlab olib. – Voyez, ma chere¹, deb davom etti yuzini Valaxina xonimga o‘girib, – voyez comme ce jeune homme s’est fait elegant pour danser avec fille².

Buvim qo‘limdan mahkam ushlab olgancha jiddiy, lekin savol nazari bilan atrofdagilarga qarab chiqdi, to mehmonlarning qiziqishi qonib, baralla kulgi ko‘tarilmaguncha qo‘limni qo‘yib yubormadi.

Uyalganidandan aftim burishib, qo‘limni tortib olishga behuda urinayotganimni Seryoja ko‘rsa, menga juda alam qillardi, lekin Sonechkaning oldida esa sira uyalmadim, holbuki, Sonechka rosa xaxolab kulavergandan ko‘zlar yoshlangan va jingalak sochlari to‘zib, qip-qizarib ketgan yuzi uzra silkinar edi. Uning kulgisi juda qattiq va tabiiyligidan masxarali kulgi emasligini fahmladim; aksincha, bizning birgalikda va bir-birimizga qarab turib kulishimiz, meni u bilan yaqinlashtirganday bo‘ldi. Qo‘lqop voqeasi, garchi oqibati xunuk bo‘lishi mumkin bo‘lsa ham, menga shunday foyda keltirdiki, buning bahonasida, doimo eng qo‘rinchli bo‘lib ko‘ringan mehmonlar davrasida o‘zimni

¹ Buni qarang, azizim (*frans.*).

² Buni qarang, sizning qizingiz bilan tansa tushish uchun bu yigitcha qanday bashang bo‘lib olibdi (*frans.*).

erkin tutib oldim. Endi zalda sal bo‘Isa-da o‘zimni bemalol his eta boshladim.

Uyatchan odamlarning qiynalishiga, odatda, ular to‘g‘-risida fikrning ma‘lum emasligi sabab bo‘ladi, bu fikr ochiq ifoda qilinishi bilan – u har qanaqa bo‘lganida ham – noqulay vaziyatdan qutuladi.

Sonechka Valaxina mening ro‘paramda beso‘naqay yosh knyaz bilan fransuzcha kadrilga tansa tushayotgani-da biram dilbar bo‘lib ketdiki! „Chaine“¹ paytida menga qo‘lini uzatayotib biram issiq kulimsiraganini aytmay-sizmi! Uning mallarang qo‘ng‘ir sochlari musiqa maqomi-ga biram dilbar silkinar, jajji oyoqlarida „jute assemble“ni biram sodda bajarar ediki! Men tansa tushayotgan sherigim beshinchi figurada mendan ayrilib narigi tomonga chopib o‘tganida va men maqomning boshlanishini kutib, yakka ijroga hozirlanayotganimda, Sonechka lablarini jiddiy bir tarzda juftlab chetga qaray boshladи. Lekin uning mendan xavotirlanishi o‘rinsiz edi: men „chasse en avent, chasse en arriere, glissade“²ni dadil bajarib, unga yaqinlashgan paytimda o‘ynoqi bir harakat bilan ikki barmog‘im chiqib turgan qo‘lqopni unga ko‘rsatdim. Sonechka qahqaha urib kulib yubordi-da, polda yanada yoqimli bir tarzda pildirab ketdi. Biz davra olib, hammamiz qo‘l ushlashganimizda u boshini eggancha qo‘lini qo‘limdan chiqarmay, qo‘lqopi bilan burnini qashiganini hali-hali eslayman. Bularning hammasi hozirgiday ko‘z o‘ngimda, o‘sha onda „Dunay qizi“dan chalingan kadril hali ham menga eshitilib turadi.

Ikkinchi kadril ham boshlandi, men bu safar Sonechka bilan tansa tushdim. Yonma-yon o‘tirar ekanman, o‘zimni juda ham noqulay sezar va u bilan nima haqda gaplashishni sira bilmas edim. Men ancha fursat indamay

¹ *Shen, jete-assamble* – tansadagi figura (frans.).

² *Shasse-an-avan, shasse-an-aryer glissad* – tansadagi figuralar (frans.).

o‘tiraver ganimdan keyin, yana meni ovsar ekan, degan xayolga bormasin deb qo‘rqib, o‘zim to‘g‘rimda bunday yanglish fikrdan uni har nima qilib bo‘lsa ham qaytarmoq-chi bo‘ldim. Vjus etes une habitante de Moscou?¹ dedim unga, va tasdiq javobini olishim bilan: – Et moi, je n’ai encore jamais frequente la capitale² deb so‘zimni davom ettirdim. Men, ayniqsa, frequenter³ so‘zining ta’sirli chiqishini kutardim. Garchi gap juda yaxshi boshlanib, fransuz tilini puxta bilishimni to‘la isbotlagan bo‘lsam ham, biroq suhbatni bu ruhda ortiq davom ettira olmasligimni sezdim. Bizning tansa qilish navbatimiz hali uzoq edi, yana sukut boshlandi. Men bezovtalik bilan unga boqar, unda qanday taassurot qoldirganimni bilishni istab, undan na-jot kutardim. Birdan u mendan: „Bunaqa antiqa qo‘lqopni qaydan topdingiz?“ – deb so‘rab qoldi; bu savol jonimga oro kirib, ahvolim yengillashdi. Men qo‘lqopning Karl Ivanichniki ekanligini aytdim. Hatto Karl Ivanichning o‘zi to‘g‘risida ham birmuncha kinoyali gaplar qildim, u qizil qalpog‘ini boshidan olganda qanday kulgili ko‘rinishi, bir kuni u yashil burmabel paltoda otdan yiqilib, to‘ppa-to‘g‘ri balchiqqa tushgani va shunga o‘xshash narsalarni hikoya qildim. Kadrilning qanday o‘tganini sezmay qoldim. Bularning hammasi juda joyida bo‘ldi; lekin nega endi men Karl Ivanichni masxaralab gapirdim-a? Men Karl Ivanich-ni unga bo‘lgan mehr-muhabbatim va hurmat-izzatimga yarasha ta‘riflab bersam, nahotki Sonechkaning mening to‘g‘rimdagi yaxshi fikridan mahrum bo‘lardim?

Kadril tugashi bilan Sonechka menga „merci“ dedi. Bu so‘zni u go‘yo men uning tashakkuriga sazovor bir ish qilganday juda yoqimli bir tarzda aytdi. Men terim-

¹ „Siz doimo Moskvada yashaysizmi?“ (*frans.*).

² Men esa hali hech qachon poytaxtga bormaganman (*frans.*).

³ „Bormoq“ (*frans.*).

ga sig‘may ketdim, shodligimdan o‘zimni yo‘qotdim, o‘zimni-o‘zim tanimay qoldim: mendagi bu dadillik, ishonch va, hatto, jasorat qayoqdan paydo bo‘ldi ekan? „Meni esankiratadigan narsa yo‘q! Men har narsaga tayyorman!“ – deb o‘yladim ichimda, zalni u yoqdan bu yoqqa parvosizlarcha kezib.

Seryoja meni u bilan birga vls-a-visda qatnashishga taklif etdi. „Yaxshi juftim bo‘lmasa ham topib olaman“, dedim men. Zalga astoydil ko‘z yogurtirib chiqsam, mehmonxona eshigi yonida turgan gavdali bir qizdan bo‘lak hamma xonimlarni ilib ketibdilar. Novcha bir yigit bu qizning yoniga bordi, men uni, tansaga taklif qilish maqsadida bordi, degan fikrga keldim. Yigit undan ikki qadam narida, men bo‘lsam – zalning narigi boshida edim. Men chaqqonlik bilan parket ustidan sirg‘anib, oramizdagи masofani bir lahza da bosib o‘tdim-da, oyoqlarimni gursullatib urib, qat’iy bir ovoz bilan uni kontrdansga taklif etdim. Qiz iltifot bilan kulimsirab, qo‘lini menga uzatdi, boyagi yigit juftsiz qoldi.

Men o‘z kuchimga shunchalik ishongan edimki, hatto u yigit ranjib qolganiga ham ahamiyat bermadim; lekin keyinchalik bilsam, bu yigit o‘zining yonidan sakrab o‘tib, uning shundoqqina burni ostidagi qizni ilib ketgan, sochlari hurpaygan bolaning kimligini so‘rabdi.

XXII bob

MAZURKA

Men qizini ilib ketgan yigit mazurkaning birinchi juftida o‘ynardi. U o‘z juftining qo‘lidan ushlab, sakrab o‘rnidan turdi-da, Mimi bizga o‘rgatgan „pas de Basques“¹ni qilish o‘rniga to‘ppa-to‘g‘ri oldinga yugurdi; burchakka yugurib

¹ Pa-de-bask – mazurkaning eskicha maqomi (*frans.*).

borgach, to‘xtadi-da, oyoqlarini kerib, poshnasi bilan yer tepindi, so‘ngra burilib, hakkalab nariga yugurib ketdi.

Mazurkada qatnashishga mening juftim yo‘q edi, shuning uchun buvimning baland kreslosi orqasiga o‘tib, o‘yinni kuzatib o‘tirardim.

„Bu nima qilgani bo‘ldi uning? – men o‘zimcha fikr yuritdim. – Mimi bizga bunaqa o‘rgatmagan edi-ku, axir mazurka oyoq uchida, tekis va oyoqlarni doirasimon kerib ijro etiladi, deb uqtirar edi u. Ma’lum bo‘ldiki, butunlay boshqacha tansa tushilar ekan. Mana, Ivinlar ham, Etyen ham, boshqalar ham tansa tushishyapti, lekin pas de Basques qilishmayapti; Volodya ham mana shu yangicha usulda o‘ynayapti. Chakki emas!.. Sonechka bo‘lsa qanday dilbar?! Mana u o‘yinga tushib ketdi...“ – men nihoyatda xursand edim.

Mazurka oxirlab qoldi: keksayibroq qolgan bir erkak va xotin-xalaj buvim bilan xayrlashib jo‘nab ketishardi. Xizmatkorlar tansa qilayotganlarni turtib yubormaslikning ehtiyyotini qilib, idish-tovoqlarni orqa xonaga olib o‘tardilar; buvim ancha charchagan ko‘rinadi, u so‘zlash malol kelib, juda cho‘zib gapirardi; sozandalar o‘sha bir xil kuyni erinibgina o‘ttizinchi marta chala boshladilar. Men bilan tansa tushgan qiz bir figura qilib, menga ko‘zi tushdi-da, takabburlik bilan kulib qo‘ydi va buvimning ko‘nglini topish uchun bo‘lsa kerak, mening oldimga Sonechkani va bir gala knyaz qizlardan birini boshlab kelib: „Rose ou hortie“?¹ – dedi menga.

– Iya, hali sen shu yerdamisan? – dedi buvim kreslosida burilib turib. – Bor, bora qol, qoqindiq.

Garchi shu onda men kresloning orqasidan chiqqandan ko‘ra, uning tagiga boshimni tiqib yashirinishni istasam-da, bo‘yin tovlab bo‘larmidi? – O‘rnimdan turdim-da,

¹ „Gulmi yoki qichitqi o‘tmi?“ (frans.).

„rose“¹ dedim va qo‘rqa-pisa Sonechkaga qaradim. O‘zimni o‘nglab olganimcha yo‘q edi, kimningdir oq qo‘lqopli qo‘li mening qo‘limga tegdi. Men oyoqlarimni qayoqqa qo‘yishni bilmas edim, knyajna bundan aslo gumonsiramay, juda yoqimli bir tabassum bilan oldinga tashlandi.

Men pas de Basquesni o‘rinsiz, kelishmagan va hatto meni butunlay sharmanda qilishi mumkinligini bilar edim. Lekin mazurkaning tanish ohanglari qulog‘imga ta’sir qilib, asablarimni ishga soldi, asablarim esa o‘z navbatida oyoqlarimni harakatga keltirdi; oyoqlarim butunlay beixtiyor ravishda va qarab turganlarning hammasini hayron qoldirib, barmoq uchida aylanar va silliq harakatlar qilar edi. Biz to‘g‘ri ketar ekanmiz, ish bir nav bordi, lekin burilishga kelganda vaqtida chora ko‘rmasam, albatta oldinga ketib qolishimni payqab qoldim. Bunday ko‘ngilsizlikning oldini olmoqlik uchun birinchi juftdagи yigitga o‘xshab chiroyli bir muqom qilmoqchi bo‘lib to‘xtadim. Biroq oyoqlarimni kerib, endi sakrayman deb turganimda, knyajna atrofimda gir aylanib, to‘pori bir qiziqish bilan va hayron bo‘lib mening oyoqlarimga qaradi. Bu qarash meni tamom ado qildi. Shunchalik o‘zimni yo‘qotib qo‘ydimki, tansa qilish o‘rniga, juda g‘alati, hech bir narsaga o‘xshamaydigan, hech bir ohangga tushmaydigan tarzda bir yerda oyoqlarimni tapillata-tapillata oxiri taqqa to‘xtadim. Hamma menga qarab turardi: birov hayron bo‘lib, birov qiziqsinib, birov masxaralab va birov achinib qarar; yolg‘iz buvimgina butunlay parvosizlik bilan kuzatardi.

– Il ne fallait pas danser, si vous ne savez pas!² – dedi otam zarda bilan qulog‘imga va sekingina meni itarib, juftimning qo‘lidan ushlagancha u bilan eskicha usulda bir davra yasab, tomoshabinlarning ma’qullovchi baqir-

¹ „Gül“ (frans.).

² Bilmas ekansan tansa qilmasliging kerak edi! (frans.).

chaqirlari ostida uni joyiga olib borib qo‘ydi. Mazurka o‘sha onda tugadi.

– Ey Xudo! Nima uchun meni bunchalik qattiq jazolaysan!

Hamma mendan nafrat qiladi va doimo shunday bo‘ladi... Men uchun hamma yo‘l: do‘slikning, muhabbatning, hurmat-izzatning yo‘li berkildi... barchasi barbod bo‘ldi! Nima uchun Volodya menga imo-ishoralar qildi? Axir uning imo-ishoralarini hamma ko‘rib turgani bilan hech kim menga yordam bera olmadi-ku. Nima uchun o‘sha yoqimsiz knyajna mening oyoqlarimga bunchalik qarab qoldi? Nima uchun Sonechka... o‘sha dilbar qiz kelib-kelib shu payt kulimsiradi? Nima uchun otam qizarib, mening qo‘limdan ushlab oldi? Nahotki men tufayli hatto u ham uyalgan bo‘lsa? O‘ho‘, bu dahshat-ku! Onaginam shu yerda bo‘lsa edi, o‘z Nikolenkasi uchun qizarmasmidi... Shu o‘rinda bu dilbar siymo mening xayolimni uzoq-uzoqlarga olib qochdi. Men uyimiz oldidagi ko‘kalamzorni, bog‘dagi yuksak arg‘uvon daraxtlarini, qaldirg‘ochlar charx urib uchib yuradigan tiniq ko‘lni, oq shaffof bulutli feruza osmonni, hidlari anqib turgan, yangigina o‘rilgan pichan g‘aramlarini eslab ketdim va yana bir talay sokin, shirin onlar parishon xotiramdan birma-bir o‘tdi.

XXIII bob

MAZURKADAN KEYIN

Birinchi juftda tansa qilgan yigit kechki ovqat mahali bizning bolalar stolimiz yoniga kelib o‘tirib, menga alohi-da e’tibor berib qaradi. Yuz bergan ko‘ngilsiz hodisadan keyin biron-bir narsa sezsam, nafsoniyatimga qattiq tekkan bo‘lur edi. Lekin ko‘rinishicha, bu yigit har nima qilib bo‘lsa-da meni xursand qilish payida edi: u men bi-

lan o‘ynashar, meni azamat ekansan der, kattalardan bিrontasining bizga qarab turmagan paytini topib turli xil shishalardan darrov ryumkamga vino quyib, ichgin deb qistar edi. Ovqatlanish tugayotganida xizmatchi sochiqqa o‘rab qo‘yilgan butilkadan menga qadahning tagida shampان quygan edi, boyagi yigit idishni to‘ldirib quyishga majbur qildi va qo‘yarda-qo‘ymay uning hammasini bir ko‘tarishda ichirdi. Shundan keyin butun badanimda yo-qimli bir iliqlik sezdim, menga homiylik qilayotgan quvnoq yigitga nisbatan alohida bir xayrixohlik his qildim va nimagadir qahqahlab kulib yubordim.

Birdaniga zaldan grosfaterning ovozi eshitildi va mehmonlar stoldan tura boshladilar. Yonimdagи yigit bilan do‘stligimiz shu ondayoq uzildi: u kattalarning oldiga ketib qoldi, men bo‘lsam uning ortidan borishga jur’at etmay, Valaxinaning qizi bilan nima haqda gaplashayotganini eshitishga qiziqib, ularning oldiga bordim.

– Yana yarim soatgina qolaylik, – deb yolvorardi Sonechka.

– Yo‘q, bo‘lmaydi, jonginam.

– Jon oyi, men uchun ko‘na qoling, – derdi u erkalanib.

– Ertaga kasal bo‘lib qolsam, senga yaxshi bo‘ladimi? – dedi Valaxina xonim va kulgisini yashira olmadi.

– Ana, ana, ko‘ndirdim! Qolamizmi? – dedi Sonechka suyinganidan sakray-sakray.

– Seni nima qilsam bo‘ladi? Bo‘lmasa, bor, tansa tush... ana senga yigit ham tayyor, – dedi u meni ko‘rsatib.

Sonechka menga qo‘lini uzatishi bilan biz zalga yugurdik.

Ichilgan vino, Sonechkaning borligi va xushchaqchaqligi mazurka vaqtidagi ko‘ngilsiz hodisani butunlay unutirdi. Men oyoqlarim bilan juda antiqa harakatlar qilardim: goh oyoqlarimni ot singari viqor bilan ko‘tarib mayda

yo'rg'alar, goh itni ko'rib ishqori aynigan qo'y singari yer tepinar va qarab turganlarga qanday ta'sir qilishni hech o'y lamay, rosa qotib-qotib kulardim. Sonechka ham rosa kulardi: u qo'l ushlashib olib gir-gir aylanishimizga kular, bir mo'ysafid boyonning oyoqlarini asta-asta ko'tarib, ro'mol ustidan oshib o'tganiga va buni qilaman deb o'zini juda qiyngalgan qilib ko'rsatishiga qahqahlar va men o'zimning chaqqonligimni ko'rsatmoqchi bo'lib boshim shipga yetguncha irg'ishimga ichagi uzulgudek qotib-qotib kulardi.

Buvimning xonasidan o'tayotib, o'zimni oynaga soldim: yuzimni ter bosgan, sochlarim to'zigan, jingalaklarim har mahalgidek hurpaygan bo'lsa ham, chehram shunday shod, yaxshi va sog'lom ediki, o'zimga o'zim yoqib ketdim.

„Agar men hamma vaqt ham hoziriday bo'lsam, yana ham yoqimtoy bo'lardim“, deb o'yladim o'zimcha.

Lekin Sonechkaning go'zal yuziga yana bir bor boq-qanimda, o'zimda ko'rib yoqtirganimni shodlik, sog'lomlik va parvosizlikdan tashqari unda yana o'shancha nafis va nozik go'zallik mavjudligini ko'rib, o'zimdan o'zim ranjidim, shunday bir go'zal nozaninning diqqatini tortishga umid bog'lashim tentaklik ekanini tushunib qoldim.

Uning menda ko'ngli borligiga umid qilolmasdim, bu to'g'rida hatto o'ylamasdim ham: busiz ham qalbim shodlikka limmo-lim edi. Mening qalbimni quvonch bilan to'ldirgan muhabbat tuyg'usi nima ekanligini, bundan ham kattaroq baxt tilash va bu tuyg'u hech qachon so'nmasligi uchun yana nimalardir istash mumkinligini tushunmas edim. Menga shunday ham yaxshi edi. Yuragim kaptarniki singari tipirchilar, yuragimga to'xtovsiz qon quyilib, yig'lagim kelardi.

Biz koridor bo'ylab qorong'i qaznoq yonidan o'tib borar ekanmiz, zinapoya ostida unga qarab turib, o'yla-

dim: „Qani endi mana shu qorong‘i qaznoqda umrbod u bilan yashash mumkin bo‘lsa! Bizning bu yerda ya-shayotganimizni hech kim bilmasaydi, qanday bir baxt bo‘lar edi bu“.

— Kunimiz bugun juda vaqtichog‘lik bilan o‘tyapti, shunday emasmi? — dedim men titroq ovoz bilan sekingina va aytgan gapimdan ham ko‘ra, aytmoqchi bo‘lgan gapim-dan cho‘chib, qadamimni tezlatdim.

— Shunday... juda ham! — U boshini men tomon burib, shunday bir yoqimli, ochiq chehra bilan javob berdiki, endi men cho‘chimay qo‘ydim.

— Ayniqsa, kechki ovqatdan keyin... Lekin mening qan-day achinayotganimni bilsangiz edi (men asli qayg‘urayot-ganimni demoqchi edim-ku, ammo botinolmadim), axir siz birozdan keyin ketib qolasiz-da, biz boshqa ko‘risha olmaymiz.

Sonechka boshmoqlarining uchiga tikilgancha, biz yonidan o‘tib borayotgan panjaralni shirmalarga qo‘lini surtib:

— Nega ko‘rishmas ekanmiz? Biz har seshanba va juma kunlari oyim bilan Tverskoya boramiz. Siz sayr qilmaysizmi? — dedi.

— Unday bo‘lsa seshanba kuni albatta ruxsat so‘raymiz, bordi-yu yubormasalar, bir o‘zim shapkasiz qochaman. Yo‘lni bilaman.

— Bilasizmi nima? — dedi birdan Sonechka, — Men uyimizga kelib turadigan bolalar bilan doimo sensirab gaplasha-man, keling, siz bilan ham senlab gaplashaylik. Xohlaysan-mi shuni? — dedi u, boshini silkigancha ko‘zimga tik boqib.

Shu payt biz zalga kirdik va grosfaterninig boshqa jonli qismi boshlanib ketdi.

— Boshlang, — dedim men, musiqa va shovqin-suron so‘zimni bosib ketadigan bir paytda.

– Boshlang emas, boshla, – deb Sonechka so‘zimni tuzatib, kulib qo‘ydi.

Grosfater tugadi, men esa bu orada sensirab bir jumla ham aytib ulgurmadi, holbuki to‘xtovsiz o‘ylab, sen olmoshi bir necha marta takrorlanadigan jumlalar tuzardim. „Xohlaysanmi?“, „Boshla“ degan so‘zlar qulog‘imda jaranglab, meni allaqanday sarxush qilardi: men Sonechkadan bo‘lak hech kimni va hech narsani ko‘rmas edim. Uning kökillarini yig‘ishtirib quloqlarining ostiga qistirganlarini, peshonasining va chekkasining men hali ko‘rma gan qismlarini ochganlarini ko‘rdim; uni yashil sholga shunday chirmab o‘radilarki, faqat jajji burnining uchigina ko‘rinardi; men shuni payqadimki, agar u qirmizi tusga kirgan barmoqlari bilan og‘zining oldini sal ohib qo‘ymasa, shubhasiz, nafasi bo‘g‘ilar edi. Men uning onasi orqasidan zinapoyadan tushib borayotib, tezgina biz tomonga o‘girilib, boshini silkib, eshik orqasiga o‘tganini ko‘rdim.

Volodya, Ivinlar, yosh knyaz, men – hammamiz Sonechkani yaxshi ko‘rib qolgan edik, zinapoyada unga tikilib turgancha uni kuzatib qo‘ydik. Uning ko‘proq kimga bosh silkiganini bilmayman-ku, o‘sha onda buning men uchun qilinganiga ishonchim komil edi.

Ivinlar bilan xayrlashar ekanman, Seryoja bilan juda bemalol, hatto birmunchasov uqqonlik bilan gaplashib, qo‘lini siqib qo‘ya qoldim. Agar u shu bugundan boshlab mening o‘ziga bo‘lgan muhabbatimdan mahrum bo‘lganini, endilikda menga hukmini o‘tkaza olmasligini tushungan bo‘lsa, garchi butunlay parvosiz bo‘lib ko‘rinishga urinsa ham, bunga achinishi turgan gap edi.

Men umrimda birinchi daf‘a muhabbatga xiyonat qildim va bu tuyg‘uning shirinligini birinchi marta his etdim. Odad tusiga kirib siyqalanib qolgan sadoqat tuyg‘usini sirli va noaniqliklarga to‘la sof muhabbat tuyg‘usi bilan

almashtirish men uchun quvonchli edi. Yana buning us-tiga, ayni bir vaqtida bir kishidan ko‘ngil sovib, boshqa birovni sevib qolish – avvalgidan ikki hissa kuchliroq se-vish demakdir.

XXIV bob

TO‘SHAKDA

„Qanday qilib men Seryojani bunchalik qizg‘in va uzoq seva oldim ekan? – Men o‘rinda yotib shularni o‘ylardim. – Yo‘q! U hech vaqt mening muhabbatimni tushunmas, qadriga yetolmas va mening muhabbatimga arzimas edi... Sonechka-chi? Qanday bir so‘lim narsa! – „Xohlaysanmi?“, „Sen boshla“, dedi-ya.

Men qo‘l-oyoqlarimga tiralib to‘rt oyoqlaganim holda uning do‘ndiqqina yuzini ko‘z oldimga keltirdim, boshim-ni ko‘rpaga burkab, uning etaklarini ostimga qistirdim-da, hech bir yerda ochiq joy qolmagach, cho‘zilib yotib, yoqimli bir iliqlik his etib shirin xayollar va xotiralarga cho‘mdim. Qimir etmay ko‘rpaning astariga tikilib qolgancha men uni bundan bir soat avvalgidek yaqqol ko‘rardim; u bilan fikran gaplashardim, garchi bu gapda hech qanday ma’no bo‘lmasa-da, u menga ta’rifga sig‘mas bir huzur bag‘ishlar edi, chunki bu suhbatda *sen, senga, sen bilan, sening* degan so‘zlar muttasil uchrab turardi.

Bu xayollarim shunchalik aniq-ravshan ediki, totli ha-yajondan ko‘zimga uyqu kelmas va ichimga sig‘mayotgan xursandchiligimni birov bilan o‘rtoqlashishni istardim.

– Dilbar qiz! – dedim men deyarli ovoz chiqarib, narigi yonimga ag‘darildim. – Volodya! Uxlayapsanmi?

– Yo‘q, nima edi? – deb javob berdi u uyqu aralash.

– Men oshiq bo‘lib qoldim, Volodya! Sonechkani qat-tiq yaxshi ko‘rib qoldim!

– Xo'sh, nima bo'pti sevgan bo'lsang? – deb javob berdi u kerishayotib.

– Eh, Volodya! Sen mening ahvolimni ko'z oldingga keltirolmaysan... mana, hozirgina, men ko'rpgaga burkanib tasavvurimda aniq, yaqqol ko'rdim, u bilan gapplashdim, bu endi juda bir hayron qoladigan narsa. Tag'in bilasanmi nima? U haqda o'ylasam, sababini Xudo biladi, xafa bo'lib, juda-juda yig'lagim keladi.

Shu payt Volodya qimirlab qo'ydi.

Men so'zimni davom ettirdim.

– Men birgina narsani istayman, u ham bo'lsa doimo u bilan birga bo'lmoq, doimo uni ko'rmoq, xolos. Sen ham sevdingmi? To'g'risini ayt, Volodya?

Qizig'i shuki, hamma Sonechkani sevishini va hammaning shu to'g'rida gapirishini istar edim.

Volodya menga yuzini o'girib:

– Sening nima ishing bor? Ehtimol, sevgandirman, – dedi.

Men Volodyaning parillagan ko'zlaridan uxlashni xayoliga ham keltirmayotganini payqab: – Uxlaging kelmayapti-ku, sir boy bermayapsan-da, – deb baqirib, ko'rpani irg'itdim. – Kel, yaxshisi, o'shandan gaplashib o'tiramiz. Haqiqatan, so'lim bir narsa, shunday emasmi?.. Shunday jozibadorki, agar u menga: „Nikolasha! Shu derazadan o'zingni ot yoki o'tga o'zingni tashla“ desa, ont ichaman, o'sha zahoti quvona-quvona o'zimni otardim. Eh, qanday so'lim bir narsa! – dedim uni yaqqol ko'z oldimga keltirib va uning jamolidan to'yib huzurlanmoqchi bo'lib. So'ngra bir silkinib narigi yonimga ag'darildim-da, boshimni yostiqning ostiga tiqib, – judayam yig'lagim kel-yapti, Volodya, – dedim.

– Manavi ahmoqni qarang! – dedi u kulimsirab va biroz jim turgandan so'ng, dedi: – Men senga o'xshagan emas-

man; o‘ylaymanki, agar iloj topganimda, avval boshda u bilan yonma-yon o‘tirib gaplashardim...

– Ha, ha! Sening ham yuragingdan urgan ekan-da? – deb uning so‘zini bo‘ldim.

– Keyin, – Volodya muloyimgina kulimsirab so‘zida davom etdi, – keyin uning jajji barmoqlarini, ko‘zlarini, lablarini, burnini, oyoqlarini o‘pardim – boshdan oyoq o‘pib chiqardim...

– Ahmoqlik bu! – deb yostiq ostidan baqirdim.

– Sen hech narsani tushunmaysan, – dedi jirkanib Volodya.

– Yo‘q, men-ku tushunaman, lekin sen tushunmasdan bema’ni valdirayapsan, – dedim yig‘i aralash.

– Iya, yig‘lashning nima hojati bor. O‘zingni ham qiz boladan farqing qolmabdi!

XXV bob

XAT

16-aprelda, men tasvir etib o‘tgan kundan deyarli olti oydan keyin, otam dars vaqtida yuqoriga, bizning oldimizga chiqib, bugun kechasi qishloqqa jo‘nab ketishimizni bildirdi. Bu xabarni eshitishim bilan yuragim orziqib ketdi va o‘sha zahotiyoy onaginam fikri-xayolimni band qildi.

Dabdurstdan jo‘nab ketishimizga quyidagi xat sabab bo‘lgan edi:

„Sening 3-aprelda mehribonchilik bilan yozgan xatingni hozirgina, kech soat o‘nda oldim. Har vaqtdagi odatimcha, o‘sha zahotiyoy javob qaytarayotibman. Fedor xatingni kecha shahardan qaytishda ola kelgan ekan, lekin kech bo‘lganligidan bugun ertalab Mimiga beribdi. Mimi esa tobi yo‘q va ko‘ngli g‘ash degan vaj bilan kun bo‘yi

xatni menga bermabdi. Mening biroz isitmam chiqqan edi, senga to 'g'risini aytsam, mana to 'rtinchi kundirki mazam yo 'q, o 'rnimdan ham turmayapman.

Lekin sen zinhor tashvish qilma, aziz do 'stim, men o 'zimni xiyla yaxshi sezyapman va agar Ivan Vasilyevich ruxsat etsa, ertaga o 'rnimdan turmoqchiman.

O 'tgan hafta juma kuni bolalar bilan aylangani bor-gan edim, xuddi o 'sha katta yo 'Ining boshiga chiqqan joy-da, o 'tganimda doim o 'takam yoriladigan ko 'prik yoni-da otlar loyga botib qolishdi. Kun juda yaxshi bo 'lgani uchun, kolyaskani loydan chiqargunlaricha, katta yo 'lga-cha bitta-bitta yurib boraverayin, dedim. Kichik butxo-naga yetgunimcha juda charchab qolib, dam olayin deb o 'tirdim. Aravani loydan chiqargani to odamlar to 'plan-guncha oradan yarim soatcha fursat o 'tdi, mensov uq qota boshladim, ayniqlas, oyoqlarimsov uq qotdi, chunki botinkamning tag charmi yupqa bo 'lib, undan suv o 'tib ketgan edi. Tushki ovqatdan keyin etim uvishib, tanam qiziy boshladni, shunday bo 'lsa ham, odat bo 'yicha yurib turdim, choy ichib bo 'lganimizdan keyin esa Lyubochka bilan to 'rt qo 'llab chalishga o 'tirdik (hozir ko 'rsang, uni taniyolmaysan: biram chaladigan bo 'lganki!). Lekin men maqomni sanayolmay hayron bo 'lganimni bir ko 'z oldingga keltirib ko 'r. Sanamoqchi bo 'lib bir necha bor urinib ko 'rgan bo 'lsam ham, xotiramda hammasi chuvvalashib ketdi va quloglarimda g 'alati bir shovqin g 'uvulladi. Men bir, ikki, uch deb so 'ngra birdan sakkiz, o 'n besh deb sanar va eng achinarlisi – yanglishayotganimni bilardim-u, lekin sira tuzata olmasdim. Oxiri Mimi men-ga yordamga kelib, majburlab o 'ringa yotqizdi. Mana senga, o 'zimga o 'zim dard sotib olganimning tafsiloti, azizim. Ertasi kuni isitmam juda ko 'tarilib ketgach, bizga mehribon chol Ivan Vasilyevich yordamga keldi, u

hali ham biznikida yashamoqda, u tezda oyoqqa turg‘izib yuborishga va‘da qilyapti. Ivan Vasilyevich topilmay-digan ajoyib bir chol! Baland isitma ichida alahlagan kunim tuni bilan mijja qoqmay mening to‘shagim yonida tong ottiribdi. Hozir bo‘lsa xat yozayotganimni bilib, divan qo‘yilgan uyda qizlar bilan o‘tiribdi. Qizlarga nemischa ertak aytib berayotgani va ular buni eshitib, kula-kula ichaklari uzilayotganini yotoqxonadan eshitib turibman.

Cen la belle Flamande¹ deb ataydiganing ikki haftadan beri biznikida mehmon bo‘lib turibdi, chunki onasi qayer-gadir mehmonga ketgan ekan. U bizga g‘amxo‘rlik qilib, o‘zining eng samimiyl mehr-u sadoqatini isbot qilmoqda. O‘zining yurak sirlarini ham mendan yashirmaydi. U yaxshi odamlar qo‘lida bo‘lsaydi, har jihatdan ajoyib bir qiz bo‘lib yetishardi, axir u istarasi issiqqina, yuragi sof va o‘zi hali yosh. Biroq uning gaplariga qaraganda, u shunday bir muhitdaki, bu sharoitda u butunlay xarob bo‘ladi. Miyamga bir fikr keldi, agar bolalarim ko‘p bo‘lmaganda, uni o‘z qaramog‘imga olsam yaxshi ish qilgan bo‘lar edim.

Lyubochkaning o‘zi senga xat yozmoqchi edi, lekin uchin-chi varaqni ham yirtib tashladi. „Otamning qanday mas-xaralashini bilaman: bitta xato qilib qo‘ysam ham, u ham-maga ko‘rsatib chiqadi“, deydi u. Katenka hanuz avvalgidek yoqimtoy, Mimi ham hanuz avvalgidek mehribon va dilgir.

Endi jiddiy masalalardan gaplashaylik: sen menga bu qish ichi ishlaring yaxshi yurishmaganini va shu sababli Xabarovka pullarini olish zarur bo‘lajagini yozibsan. Bu to‘g‘rida roziligimni so‘rashing meni hatto taajjubda qoldirdi. Nahotki mening narsam sening ham narsang bo‘lmasa?

Sen, azizim, shunchalar mehribonsanki, xafa bo‘ladi deb qo‘rqib, ishing aslida qay ahvoldaligini mendan

¹ Go‘zal flamandka (frans.).

yashirasani; lekin men o'zim buni sezaman: juda ko'p yutqizgansan, shundaymi, lekin, Xudo haqqi, men buning uchun sira kuymayman; shuning uchun, agar bu ishni tuzatish mukin bo'lsa, zinhor ko'p o'ylama va behuda o'zingni koyitma. Men sening yutuqlaring u yoqda tur-sin, kechirgin-u, hatto bor-bisotingdan bolalarim uchun biron narsa umid qilishga odatlanmaganman. Yutqizi-shing meni ortiqcha ranjitmaganidek, yutishing ham ortiqchä suyuntirmaydi; meni faqat qimorga bunchalik berilganining xafa qiladi, xolos. Sening bunday berilishing menga bo'lgan nozik muhabbatningni kamsitgan bo'ladi va senga hozirgidek achchiq haqiqatlarni aytishga meni majbur qiladi. Buning men uchun naqadar og'irligi bir-gina Xudoning o'ziga ma'lum. Doimo Xudoga sig'inib, bizni kambag'allikdan emas (kambag'allik nima bo'pti), men xavotir olgan dahshatli ahvoldan asra deb tilaga-nim-tilagan, bolalarning himoya qilishim lozim bo'lgan manfaatlari bilan bizning manfaatimiz to'qnash kelib qolishini Xudo ko'rsatmasin. Hozirga qadar Xudo me-ning duolarimni ijobat qilib keldi: sen haddan oshmay kelding, mabodo haddan oshgudek bo'lsang, yo biz bor-yo 'g'imizdan (bu ham ortiq bizniki emas, bolalarimizni endi) ayrılamiz, yoki... bu yog 'ini o'ylashning o'zi ham dahshatlidir, lekin bu dahshatli falokat hamisha bizga tahdid solib turadi. Ha, bu Xudoning biz ikkimizga yubo-radigan og'ir ko'rgiligi bo'ladi!

Sen yana bolalar to'g'risida ham yozib, bizning o'sha eski bahsimizni qayta boshlabsan: bolalarni maktabga berishga rozilik so'rabsan. Mening bunday tarbiyaga qar-shi ekanligimni o'zing bilasan-ku.

Mening fikrimga rozi bo'lasanmi-yo 'qmi, bilmayman, azizim, lekin har holda senga yolvoraman, menga bo'lgan muhabbatning hurmati tirikligimda va Xudo bizni bir-biri-

mizdan judo qilguday bo 'lsa, ajalimdan keyin ham buni hech qachon qilmaslikka va 'da ber.

Sen ishlarimiz yuzasidan Peterburgga borishing zarurligini yozibsan. Xudo safaringni bexatar qilsin, bor azizim, lekin tezroq qaytgin. Biz hammamiz sensiz biram zerikyapmiz! Ko 'klam naqadar nash'ali, naqadar ajoyib; balkon eshigini ochib yuborganmiz, oranjereya yo 'li bundan to 'rt kun ilgari quruq edi, shaftoli qiyg 'os gullagan, unda-bundagina qor qolgan, qaldirg 'ochlar uchib kelishyapti, bugun Lyubochka menga ilk bahor gullari keltirdi. Doktorning aytishicha, men yana uch kundardan keyin butunlay sog 'ayaman va sof havodan nafas olib, aprel oftobida isinsam bo 'ladi. Xayr, aziz do 'stim, kasalim to 'g 'risida ham, o 'zingning yutqiziqlaring to 'g '-risida ham zinhor tashvish chekma; tezroq ishlaringni bitkazib, bolalar bilan butun yoz bo 'yi turadigan bo 'lib kel! Men yozni birgalikda o 'tkazish to 'g 'risida ajoyib rejalari tuzyapman, bularni amalga oshirish uchun yolg 'iz sen keraksan ".

Xatning qolgan qismi boshqa bir parcha qog 'ozda chalkashtirib, notekis qilib fransuz tilida yozilgan edi. Men uni so 'zma-so 'z tarjima qilib keltiraman: „Kasalim to 'g 'risida yozganlarimga ishonma: uning qay darajada jiddiyligiga hech kim shubha qilmaydi. Men shunigina bilamanki, to 'shakdan turish menga nasib bo 'lmaydi. Bir daqiqa ham hayallamay darhol yetib kel, bolalarni ham ola kel. Balki, yana bir bor seni bag 'rimga bosishga va bolalarni duo qilishga ulgurarman; mening oxirgi birdan bir tilagim shu. Sening qanchalik g 'amga botishingni bilaman, lekin baribir ertami-kech mendanmi yoki boshqa birovdanmi shunday tashvishli xabarni eshitgan bo 'larding. Xudoning marhamatidan umidvor bo 'lib bu baxtsizlikka bardosh berishga o 'zimizga sabr-qanoat tilaylik.

Senga va bolalarimga bo‘lgan muhabbatim umrim bilan birga bitarmikan? Bunday bo‘lishi mumkin emasligini tushundim. Men shu onda bu muhabbatni nihoyatda kuchli his etayotirman va shunday bir tuyg‘usiz yashashni aqlimga ham keltira olmayman, bu tuyg‘u hech vaqt yo‘q bo‘lmaydi. Mening qalbim sizlarga mehr-muhabbatsiz yashay olmaydi; men uning mangu yashamog‘ini bilaman, chunki mening muhabbatim kabi bir tuyg‘u, qachondir, bir kun bítadigan bo‘lsa, avvalboshda vujudga kelmagan bo‘lur edi.

Bizning oramizga ayriliq tushadi; lekin shunga qat’iy aminmanki, mening muhabbatim sizlardan hech vaqt ayrlmaydi, mana shu fikr mening qalbimni shunchalik quvontiradiki, yaqinlashib kelayotgan ajalni xotirjamlik bilan va qo‘rquvsiz kutmoqdaman.

Men xotirjamman, Xudo guvohki, men doimo o‘limga yaxshiroq hayotga yetishish deb qaraganman va shunday deb o‘layman; shunday ekan, ko‘zyoshlar nechuk meni buncha ezadi?.. Bolalarни nima uchun sevikli onasidan mahrum etish kerak? Nima uchun sening boshingga bunday og‘ir, kutilmagan tashvish solish kerak? Qachonki, sizning muhabbatingiz hayotni men uchun cheksiz bir baxtga aylantirganda nega endi men o‘lishim kerak?

Lekin baribir Xudoning xohlagani bo‘ladi.

Men ko‘zyoshlarim sababli ortiq yozolmay qoldim. Balki, seni ko‘rolmay qolarman. Bu hayotda sen menga baxsh etgan hamma baxt uchun senga tashakkur aytaman, beba ho do‘stim; menga qilgan yaxshiliklarining Xudodan qaytsin, men narigi dunyoda Xudodan shuni tilayman. Xayr, aziz do‘stim; esingda bo‘lsin, mendan judo bo‘lasan, lekin mening muhabbatim hech qachon va hech bir yerda sendan ayrlmaydi. Xayr Volodya, xayr, jonginam, xayr, Vinyamin – Nikolenkam.

Nahotki ular qachondir meni unutsalar?!“

Bu maktubning orasiga Mimining fransuzcha yozgan quyidagi mazmundagi xatchasi ham qo'shib yuborilgan edi:

„*Uning sizga yozgan qayg'uli bashoratlari doktorning so'zлari bilan tamomila tasdiqlandi. Bu xatni u kecha kechasiyoq darhol pochtaga jo 'natishni buyurgan edi. Men bu gapni bosinqirab aytyapti deb o'ylab, bugun ertalabgacha kutdim va xatni ochishga qaror qildim. Men xatni endigina ochgan ham edimki, Natalya Nikolayevna xatni nima qilganimi surishtirib qoldi va agar jo 'natilmagan bo 'lsa, uni yoqib yuborishni buyurdi. U mudom shu to 'g'rida gapirib, sizni ado qiladi degani-degan. Bu farishtani, bizlar ni tark etmasdan ko 'rib qolishni istasangiz, qaytishingizni paysalga solmang. Bu badburush xatim uchun kechiring. Men uch kecha uxlaganim yo 'q, uni naqadar sevishimni siz bilasiz axir!*“

11-aprelning butun tunini onamning yotoqxonasida o'tkazgan Natalya Savishna maman xatining birinchi qismini yozib bo'lgach, uni oldidagi stolcha ustiga qo'yib, keyin uyquga ketganini menga gapirib berdi.

– To 'g'risini aytsam, mening o'zim ham kresloda mudrab qolibman, – deydi Natalya Savishna, – paypoq qo'limdan tushib ketibdi. Kechasi soat birlarda bo'lsa kerak, uning gapirganday bo'lganini uyqu aralash eshitdim; ko'zimni ochib qarasam, mening jonginam, qo'llarini mana bunday bukib, to'shak ustida o'tiribdi, ko'zlaridan esa shashqator yosh quyilmoqda. „Xullas, hammasi tamommi?“ – dedi-yu, qo'llari bilan yuzini berkitdi.

Men sapchib turdim-da: „Nima bo'ldi o'zi sizga?“ – deb surishtira ketdim.

– Eh, Natalya Savishna, hozir men kimni ko'rganimni bilsangiz edi.

Men qancha so‘rab-surishtirmayin, menga bo‘lak gap aytmadni, faqat stolchani oldiga surib qo‘yishni buyurdi-da, yana bir nimalar yozdi, so‘ngra xatni kanvertga joylab, hozirning o‘zida jo‘natishni buyurdi. Shundan keyin ahvoli tobora yomonlashaverdi.

XXVI bob

QISHLOQDA BIZNI NIMA KUTARDI

18-aprelda biz Petrovskoye qishlog‘idagi uyning oldida kolyaskadan tushdik. Moskvadan chiqqanimizdan beri otam o‘ychan bo‘lib qolgan edi, Volodya undan maman kasal emasmikan, deb so‘raganida u Volodyaga g‘amgin bir qarash bilan indamay boshini tebratib qo‘ya qoldi. Yo‘lda kela turib u bir qadar xotirjam bo‘lgandek ko‘rinardi; biroq uyimizga yaqinlashganimiz sari uning avzoyi tobora qayg‘uli tusga kira bordi va kolyaskadan tushgan zamon xarsillagancha qarshimizga yugurib kelgan Fokadan „Natalya Nikolayevna qani?“ deb so‘rar ekan, tovushi titrar va ko‘zлari yoshaangan edi. Mehribon chol Foka bizga zimdan qarab, ko‘zlarini pastga tikdi va dahlizning eshigini ocha turib, otamga o‘girilib javob berdi:

— Olti kun bo‘libdiki, yotoqxonalaridan chiqqanlari yo‘q.

Keyinchalik bilsam, maman tashqariga chiqmaydigان kundan boshlab Milka o‘ksib, tinmay angillar ekan. Mana hozir u suyunib otamga tashlandi – uning ustiga irg‘ishlar, g‘ingshir, qo‘llarini yalab-yulqar edi; otam esa uni itarib, mehmonxonaga, undan divanli uyga o‘tdi, bu xonadagi eshikdan to‘g‘ri yotoqxonaga kirilar edi. Otam bu xonaga yaqinlashgan sari uning harakatlaridan bezovtalanayotganligi sezilardi; divanli uyga kirar

ekan, u nafasini ichiga yutib, oyoq uchida bordi va berk eshikning zulfini tortishdan avval cho‘qinib oldi. Shu vaqt koridordan yig‘lagancha sochlari taralmagan Mimi yugurib chiqdi. U juda hayajonli bir tarzda „Oh, Pyotr Aleksandrovich, – dedi shivirlab, so‘ngra otamning qulf dastasini burayotganini payqab, eshitilar-eshitilmas qilib: – Bu yerdan o‘tib bo‘lmaydi – qizlar xonasidan kirladi“, – dedi.

O, dahshatli voqeа yuz berishini oldindan sezib, g‘amga chog‘langan mening bolalik zehnimga bularning bari naqadar og‘ir ta’sir etgan edi!

Qizlar xonasiga bordik, yo‘l-yo‘lakay koridorda bizza Akim ovsar yo‘liqib qoldi. U doimo afti-basharasini burishtirib kuldirgani-kuldirgan edi; biroq bu onda u kulgili bo‘lib ko‘rinmadni. Vaholanki hech narsa meni afti-basharasining ma’nosiz, parvosiz ko‘rinishdek lol qilib qo‘ymagan. Qizlar xonasida qandaydir ish qilib o‘tirgan ikki qiz bizga ta’zim qilmoq uchun o‘rinlaridan turdi, lekin ularning chehrasi shunchalik qayg‘uli ediki, buni ko‘rib men dahshatga tushdim. Mimining ham xonasini bosib o‘tganimizdan keyin otam yotoqxona eshigini ochdi-yu, biz ichkariga kirdik. Eshikning o‘ng tomonidagi ikki deraza ro‘mollar bilan to‘silgan edi. Natalya Savishna ko‘zida ko‘zoynak bilan derazalardan birining oldida paypoq to‘qib o‘tirardi. U doimiy odaticha bizni o‘pib ko‘rishmay, o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da, ko‘zoynagi ostidan bizga qaradi-yu, ko‘zyoshlari do‘ldek to‘kilaverdi. Menga yoqmagan holat – o‘tirgan kishilarning bizni ko‘riboq yig‘lay boshlagani edi.

Eshikni chap tomonida shirma, shirmaning orqasida – karavot, stolcha, dori-darmonlar terib qo‘ylgan shkafcha bor edi, yana katta bir kreslo ham bo‘lib, unda doktor mudrab o‘tirardi, karavot yonida oppoq, do‘ndiqqina yosh bir

qiz turardi. U oppoq ko‘ylakda bo‘lib, yenglari sal shi-marilgan holda mamanning boshiga muz qo‘yardi. Bu payt hali onamning boshi menga ko‘rinmas edi.

Bu qiz maman o‘z xatida ta’rifini qilgan la belle Flamande bo‘lib, keyinchalik u bizning butun oilamiz hayotida juda muhim rol o‘ynadi. Biz ichkariga kirishimiz bilan u bir qo‘lini mamanning boshidan tortdi-da, ko‘ksidagi bur-malarni tekisladi va pichirlab, „Behushlar“, dedi.

Shu onlarda qattiq qayg‘uga botgan bo‘lsam ham, lekin mayda-chuyda narsalarning hammasini beixtiyor payqayotgan edim. Uy ichi deyarli qorong‘i va issiq bo‘lib, yalpiz,odekolon, moychechak va gofman tom-chisining hidi aralash-quralash bo‘lib dimog‘ga urib turar edi. Bu hid meni shunchalik hayron qoldirdiki, u to‘g‘risida eshitish u yoqda tursin, eslasa xayolotim bir lahzada meni o‘sha motamsaro, diqqinafas uyga olib kiriadi va o‘sha mudhish kunning butun ikir-chikirlarini esga soladi.

Mamanning ko‘zlari ochiq edi-yu, lekin hech narsani ko‘rmasdi... Oh, bu dahshatli nigohni hech vaqt unutmayman! Bu qarashda naqadar alam va iztirob aksi bor edi!..

Bizni bu yerdan olib chiqib ketishdi.

Keyinchalik men Natalya Savishnadan onam so‘nggi onlarni qanday kechirganini so‘raganimda, u menga bunday dedi:

– Sizni olib chiqib ketishganidan keyin ham mana bu yerlariga bir narsa tinqilganday bo‘lib, ancha vaqtgacha tipir-chilab yotdilar; so‘ngra boshlarini yostiqdan tushirib, shunday tinch, osoyishta mudrab ketdilarki, ko‘rgan kishi xuddi pari yotibdimi, deydi. Nega suv keltirishmayapti ekan, deb endigina tashqariga chiqib qaytib kirsamki, mening yurak bandim hamma narsani atrofga uloqtirib tashlab, hadeb

otangizni imlardilar; u kishi onangizga egilardilar-u, lekin endi onaginangizning aytmoqchi bo‘lgan gaplarini aytishga hollari kelmas edi: lablarini ochar-ochmas yana oh-voh qilib: „Ey, Xudoyim! Bolalarni! Bolalarni!“ deya boshladilar. Men sizlarni olib kelgani yugurmoqchi bo‘lgan edim, Ivan Vasilyevich to‘xtatib: „Bu battar bezovta qiladi, ularni keltirmagan yaxshi“, dedilar. Shundan keyin qo‘llarini ko‘tarib, yana pastga tushirdilar. Xudo biladi, nima demoqchi bo‘ldilar ekan. O‘ylashimcha, sizlarni g‘oyibona duo qilgan bo‘lsalar kerak, lekin, afsus, so‘nggi damda farzandlarini bir ko‘rib qolishni Xudo u kishiga nasib etmagan ko‘rinnadi. So‘ngra, azizim boshlarini ko‘tarib, qo‘llarini bunday qildilar-da, birdan tilga kirib: „Maryam onam, ularni yolg‘iz qo‘yma!..“ dedilar, buni qanday bir tovush bilan aytganlarini hozir eslolmayman ham. Shu payt alam yurakka borib taqaldi, bechoraginaning qattiq azob chekayotgani ko‘zlaridan ko‘rinib turardi, onangiz o‘zlarini yostiqqa tashladi, tishlari bilan choyshabga yopishdilar; ko‘zyoshlarining oqqanini asti qo‘yaverasiz, otaginam.

— So‘ngra nima bo‘ldi? — so‘radim men.

Natalya Savishna ortiq gapira olmadi: u yuzini chetga o‘girib, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Mamanning dahshatli azoblar ichida joni uzilgan edi.

XXVII bob

G‘AM

Ertasi kuni kechqurun allamahalda onamni yana bir ko‘rgim keldi; men g‘ayriixtiyoriy ravishda paydo bo‘lgan qo‘rquv hissini yengib, sekingina eshikni ochdim-da, oyoq uchida zalga kirdim.

Xona o‘rtasidagi stol ustida tobut turardi, uning atrofida baland kumush shamdonlarda yonib bitgan shamlar

ko‘rinar, uzoq burchakda dyachok¹ bir turli sekin ovoz bilan oyat o‘qib o‘tirardi.

Men eshik oldida to‘xtab qaray boshladim; lekin ko‘zlarim yig‘idan shu qadar tolgan, asablarim shu qadar buzilgan ediki, hech narsani ajratolmasdim; hamma narsa: nur, kimxob, baxmal, katta-katta shamdonlar, to‘r tutilgan pushtirang yostiq, gulchambar, lenta qadalgan chepchik va yana sariq rangdagi yaltiroq bir narsa allaqanday ayqash-uyqash bo‘lib ketgan edi. Men uning yuziga qarash uchun stul ustiga chiqdim; lekin uning yuzi o‘rnida ko‘zimga yana o‘sha yaltiroq za’faron narsa ko‘rindi. Bu uning yuzi bo‘lishiga ishonolmasdim. Unga yana ham tikilibroq qarab, undagi o‘zim bilgan yoqimli belgilarni sal-pal taniy boshladim. Bu uning o‘zi ekanligiga ishonch hosil qilganimdan so‘ng dahshatdan seskanib ketdim; axir yumuq ko‘zlar nega bunchalik ichiga botib ketiddi? Bunday dahshatli za’faronlik va bir yuzidagi yaltiroq teri ostidan bilinib turgan qora dog‘ nimadan bo‘ldi ekan? Butun afti-basharasi nega bunchasov uq ko‘rinadi? Nima uchun lablari bunchalik oqarib ketgan va lekin bichimi go‘zal va ulug‘vor bo‘lib, ilohiy bir sokinlik kasb etgan va ammo, nega bu holni ko‘rib a’zoyi badanimni titroq bosdi?

Men unga qarar ekanman, allaqanday noma'lum, yengilmas bir kuch ko‘zlarimni bu jonsiz chehra tomon chorlab turganini sezdim. Men undan ko‘zimni uzmasdim, xayolimda esa hayot va baxt bilan gulgun manzaralar gav-dalanardi. Mening qarshimda yotgan va men o‘z xotiralarim bilan hech qanday aloqasi yo‘q bir narsaday ma’nosiz qarab turgan bu jonsiz jasad onam ekanligini unutgandim. Men uni turli xil vaziyatda – tetik, quvnoq, kulimsirab turgan holda tasavvur qillardim, so‘ngra birdan uning za’faron

¹Dyachok – pravoslav cherkovida unvonga ega bo‘lmagan ruhoniy.

yuzidagi allaqanday bir nuqta meni hayratda qoldirdi va unga tikilib qoldim: men dahshatli haqiqatni eslab, seskanib ketdim-u, lekin hamon unga qarab turaverdim. Ammo yana xayollar haqiqat o‘rnini olar va yana haqiqat shuuri xayollarni parokanda qilib yuborar edi. Nihoyat, miyam charchab, meni ortiq xayolot iskanjasiga olmay qo‘ydi; haqiqat shuuri ham tark etib, tamom o‘zimni unutdim. Qancha vaqtgacha shunday holatni boshdan kechirganimi-ni, buning nimadan iborat ekanligini bilmayman, lekin shunisini bilamanki, vaqtincha o‘z borlig‘imni unutgan holda, allaqanday oliy, ta’rifga sig‘mas yoqimli va g‘amgin bir lazzatni tuyardim.

Balki uning ajib ruhi ezgu dunyoga ucha turib, bizni tashlab ketgan bu dunyoga g‘amli boqqandir; balki, u mening g‘amga botganimni ko‘rib achinan va menga tasalli bermoq va duo qilmoq uchun muhabbat qanotlariga o‘tirib, taassufli samoviy bir tabassum bilan yerga tushgandir.

Eshik g‘ijirlab, navbat almashgani xonaga dyachok kirdi. Bu shovqin meni o‘zimga keltirdi va miyamga kelgan birinchi fikr shu bo‘ldiki, yig‘lamayotganim va ta’sirsiz bir qiyofada stul ustida turganligim uchun dyachok meni achi-nib yoki qiziqsinib stul ustiga chiqib olgan his-tuyg‘udan mahrum bir bola deb o‘ylashi mumkin: shuning uchun men cho‘qinib ta’zim qildim va yig‘lab yubordim.

Endilikda o‘z taassurotimni eslab bilyapmanki, o‘sha bir on o‘zimni unutib qo‘yganimda chinakam g‘am chekkan ekanman. Onam dafn etilmasdan oldin ham, undan keyin ham tinimsiz yig‘lab g‘am chekkan bo‘lsam-da, lekin buni eslasam hali-hali xijolat tortaman, chunki bu g‘am-tashvishga hamisha qandaydir nafsoniyat hissi – goh o‘zimni hammadan ortiq qayg‘urgan qilib ko‘rsatish istagi, goh boshqalarda taassurot tug‘dirmoqlik uchun nima qilsam ekan degan tashvish, goh meni Mimining

bosh kiyimini va kishilarning afti-basharasini kuzatishga majbur etgan maqsadsiz bir qiziqsinish aralashib ketardi. Faqat g‘am chekib qo‘ya qolmaganim uchun o‘zimni o‘zim koyir va boshqa hamma hissiyotlarimni yashirishga harakat qillardim; shu sababli mening g‘am-g‘ussam samimiy va tabiiy emasdi. Yana ustiga-ustak o‘z baxtsizligimni bilib, bundan qandaydir huzurlanar, baxtsizligimni anglashga harakat qilar va ana shu xudbinlik tuyg‘usi mening haqiqiy g‘am-g‘ussamni boshqa hissiyotlardan ko‘ra ko‘proq bo‘g‘ardi.

Doimo qattiq xafalikdan keyin bo‘lgani singari bu kecha hamma narsani unutib tinch uxladim. Uyg‘onganimda ko‘zyoshlarim qurigan, asablarim tinchlangan edi. Soat o‘nda onamni chiqarish oldidan bizni janozaga chaqirdilar. Uy ichi xizmatkorlar va dehqonlar bilan to‘lgan edi. Ularning hammasi yig‘lab-siqtagan holda o‘z bekalari bilan vidolashgani kelgan edilar. Janoza o‘qilayotgan vaqtda binoyiday yig‘lar, cho‘qinar va sajda qilar edim-u, lekin yuragimdan chiqarib ibodat qilmas va anchayin sovuqqon edim. Men yangi kiygan kamzulim qo‘ltig‘imni siqayotganidan tashvishlanar, shimimning tizzalarini juda ham iflos qilib qo‘ymaslik to‘g‘risida o‘ylar va bu yerdagilarning hammasini zimdan kuzatib turardim. Otam rangi quv o‘chgan holda tobutning bosh tomonida turar, u ko‘zyoshlarini arang tiyib turgani sezildi. Uning qora frak kiygan barvasta qaddi-qomati, zahil, lekin ma’noli yuzi va cho‘qinayotgan, qo‘li yerga tekkuncha engashib sajda qilayotgan kishining qo‘lidan shamni olayotgan yoki tobutning yaqiniga kelayotgan mahalda har vaqtdagidek komil ishonch bilan qilayotgan serviqor harakatlari favqulodda ta’sirli edi. Lekin bilmadim, nima uchundir bu onda uning bunchalik ta’sirli ko‘rina olishi menga yoqmayotgan edi. Mimi devorga

suyangancha go‘yo oyoqda zo‘rg‘a turardi; uning kiyimlari g‘ijim-g‘ijim bo‘lib ketgan va yostiq patlariga belangan, chepchigi bir tomonga og‘gandi. Yig‘idan shishgan ko‘zları qip-qizarib ketgan, boshi qaltirar edi. U yurakni ezadigan bir tovush bilan tinimsiz yig‘lar hamda ro‘moli va qo‘llari bilan yuzini to‘sardi. Mening nazarimda, u yuzini odamlardan yashirib, yasama ho‘ngrashlardan bir daqiqa bo‘lsa-da tinchish uchun shunday qilayotganday edi. Men kuni kecha uning otamga mamanning o‘limi uning uchun juda dahshatli bir zarba ekanligi va bu alamga chiday olishiga ko‘zi yetmasligi, bu judolik uni hamma narsadan mahrum etganligi, bu farishta (Mimi mamanni shunday deb atar edi) o‘layotganida ham uni unutmay, u bilan Katenkaning kelajagini umrbod ta’mindish istagini bildirgani to‘g‘risida gapirganini esladim. Mimi bularni gapirar ekan, yum-yum yig‘lar va balki, uning g‘am-g‘ussasi chinakam bo‘lsa ham sof va pok emasdi. Lyubochka motam hoshiyasi tutilgan qora kiyimda, butun yuzi yoshlangan holda boshini quyi solgancha ahyon-ahyonda tobutga qarab qo‘yardi, uning chehrasi bolalarga xos qo‘rquvnigina ifodalardi. Katenka onasining yonida turardi, uning chehrasi tirishgan bo‘lsa ham, har doimgidek qip-qizil edi. Volodya ochiq tabiatli bo‘lganidan, dard-alami ham ochiq sezilib turardi. U goh o‘yga tolib, serraygancha biron narsaga tikilib qolar, goh birdan og‘zi qiyshaya boshlar va shosha-pisha cho‘qinib, boshini egardi. Motam marosimidagi boshqa kishilar bilan ishim yo‘q edi. Ular otamga taskin berib, marhuma bu dunyoning odami emasdi, oxiratda u rohatda bo‘ladi, der edilar, bu gaplar mening qandaydir xo‘rligimni keltirardi.

Ularning onam to‘g‘risida gapirishga va uning uchun yig‘lashga nima haqlari bor edi? Ba’zilari esa biz to‘g‘rimizda gapirib, bizni yetim deb atashardi. Ular xuddi shun-

day deyishmasa-da, onasi yo‘q bolalarning yetim deb atashini go‘yo bilmaydiganday edi! Yangigina erga tekkan qizni kishilar birinchi daf‘a xonim deb atashiga shoshilganchi singari bularning ham bizni birinchi bo‘lib yetim deb atashlari, to‘g‘risi, o‘zlariga xush yoqar edi.

Zalning uzoq burchagida, bufetning ochiq eshigi orqasiga o‘zini olib, sochlari oppoq, beli bukchaygan bir kam-pir tiz cho‘kib turardi. U qo‘llarini qovushtirib, ko‘zlarini ko‘kka qarangancha yig‘lamasdan duo o‘qirdi. Uning ruhi Xudoga talpinar, Xudodan uning uchun eng aziz narsalar yetishtirishni tilar va buning tezlikda bo‘lajagiga qat’iy umid qilardi.

„Uni chinakam suygan odam mana shu!“ – deb o‘yladim men va o‘zimdan o‘zim uyalib ketdim.

Janoza marosimi tugadi. Marhumaning yuzi oolib qo‘yildi va bizdan boshqa hamma birin-ketin tobut yoniga kelib, u bilan xayrlasha boshladи.

Marhuma bilan vidolashgani oxirgilar qatorida bir dehqon xotin keldi, uning qo‘lida besh yashar do‘ndiqqina qizchasi bor edi, Xudo biladi, uni nima uchun bu yerga olib kelgan ekan. Shu vaqt mening ho‘l bo‘lib ketgan ro‘mol-cham tasodifan yerga tushib ketgan edi, uni olmoqchi bo‘lib endigina egilgan edimki, dahshatli bir qichqiriqdан hang-mang bo‘lib qoldim, men yuz yil yashasam ham bu qichqiriqni unutmayman va har qachon uni eslasam butun a’zoyi badanimni sovuq qaltiroq bosadi. Men boshimni ko‘tarib qarasam, boyagi dehqon tobut yonidagi kursicha ustidagi qizchani arang ko‘tarib turibdi, qizcha qo‘llarini silkitar, qo‘rquvdan o‘takasi yorilib, boshini orqaga tashlab, olayib ketgan ko‘zlarini marhumaning yuziga tikkan-chi dahshatli bir tovush bilan qichqirar edi. Men ham, o‘ylashimcha, meni hang-mang qilib qo‘yan tovushdan ham dahshatli bir qichqiriq bilan tashqariga yugurdim.

Men ladan hidi bilan qo'shilib uyni to'ldirgan o'tkir, og'ir hidning nimadan hosil bo'lganini faqat shu ondagina tushundim va bundan bir necha kun ilgari go'zallik va latofat timsoli bo'lgan va dunyoda har narsadan ortiq su-yilgan bir kishining yuzi dahshat tug'dira olishi to'g'risidagi fikr go'yo birinchi marotaba menga achchiq haqiqatni ochdi va qalbimni umidsizlik bilan to'ldirdi.

XXVIII bob

OXIRGI QAYG'ULI XOTIRALAR

Maman ortiq yo'q edi, lekin turmushimiz maromi bilan borardi: biz o'sha soatlarda, o'sha xonalarda yotib turardik; ertalabki va kechki nonushta ham, tushlik va kechki ovqat ham o'sha odatdag'i vaqtarda bo'lardi; stol-stullar o'zining joy-joyida edi; uyimizda va turmushimizda hech narsa o'zgarmadi; lekin faqat ugina yo'q edi...

Menga shunday baxtsizlikdan keyin hamma narsa o'zgarishi lozimday tuyulgandi, nazarimda, bizning odadagicha turmush kechirishimiz uning xotirasini tahqirlashday ko'rinar va uning yo'qligini doim esga solardi.

Dafn marosimidan bir kun ilgari, tushlik ovqatdan keyin mizg'ib olmoq uchun, Natalya Savishnaning xonasiga borib uning yumshoq to'shadiga issiq ko'rpa yopib cho'zilmoqchi bo'ldim. Men ichkariga kirganimda Natalya Savishna o'z o'rnida yotar va hoynahoy uxlagan ham edi; u mening oyoq tovushimni eshitib boshini ko'tardi-da, pashshadan saqlanmoq uchun boshiga yopgan sholro'molini bir chekkaga olib qo'yib, chepchigini tuzatdi va kara-votining bir chekkasiga o'tirdi.

Avvallari ham tushlik ovqatdan keyin mizg'ib olmoq uchun tez-tez uning xonasiga kelib turardim, shuning

uchun u meni ko‘rishi bilan nima maqsadda kelganimni sezdi-da, o‘rnidan turayotib:

– Nechuk? Dam olmoqchimisiz, aylanay? Keling, cho‘zila qoling, – dedi.

– Iya, bu nima deganingiz Natalya Savishna? – dedim uning qo‘lidan ushlab, – uxlagani emas, shunday o‘zim keldim... o‘zingiz ham charchagansiz; qaytaga o‘zingiz cho‘ziling.

– Yo‘q otasinam, men to‘yib uxladim, – dedi u menga (men uning uch kundan beri uyqusiz ekanini bilardim). – Uyqu qayoqda deysiz endi, – dedi u chuqur xo‘rsinib.

Men boshimizga tushgan kulfat to‘g‘risida Natalya Savishna bilan gaplashishni istardim; uning samimiya-ti, mehr-muhabbatini bilganim uchun u bilan qo‘shilib yig‘lash menga taskin berardi.

Biroz jim qolganidandan so‘ng, o‘ringa o‘tirayotib:

– Shunday bo‘lishini kutganmidingiz, Natalya Savish-na? – dedim.

Kampir hayron bo‘lib va qiziqsinib menga qarab qo‘ydi, chamasi, u nima uchun buni so‘rayotganimni tu-shunmadi.

– Kim shunday bo‘ladi deb o‘ylardi? – deb takrorladim men.

Natalya Savishna afsus va hasrat bilan menga boqib dedi:

– Eh, otasinam, shunday bo‘lishini kutish u yoqda tursin, men hozir ham buni miyamga sig‘dira olmayman. Keksaygan chog‘imda shu g‘amlarni ko‘rmay o‘lsam bo‘lmasmidi. Bu boshim nimalarni ko‘rmadi: avvalgi xo‘jamiz – bobongiz, knyaz Nikolay Nikolayevichni, ikki inimizni, singlim Anushkani go‘rga qo‘ydim, ularning hammalari mendan yosh edilar. Xudo mendek gunohkor bandasiga endi bu ko‘rgilikni ham ko‘rsatdi. Xudoning iro-

dasi ekan! Xudo uni kiroyi munosibligidan oldi, oxiratda unga shunaqa yaxshi odamlar kerak.

Soddagina bu fikr meni quvontirdi va men Natalya Savishnaga yaqinroq surildim. U qo'lllarini ko'ksiga qo'yib, tepaga qaradi, uning chuqur botgan va yoshlangan ko'zla-rida ulug'vor, lekin sokin bir dard aks etgan edi. Natalya Savishna shuncha yillar davomida uning mehr-muhabbati butun kuchini o'ziga og'dirgan bir kishidan Xudo uni qisqa bir muddatgagina ayirganligiga qat'iy bir umid bog'lagan edi.

— Ha, otiginam, men u kishiga enagalik qilganimga, yo'rgaklaganimga va u kishi meni Natasha deb atay bosh-laganiga ko'p zamonlar bo'ladi. Ba'zan u oldimga yugurrib kelib, jajji qo'llari bilan meni quchoqlab olib, o'pa boshlar va:

— Mening Nashaginam, mening go'zalim, mening jonginam, — der edi.

Men bo'lsam hazil qilib bunday derdim:

— Yo'q, onaginam, siz meni yaxshi ko'rmaysiz. Xudo umr berib katta bo'lganingizda Natashangizni unutib yuborasiz. Shunda u o'ylab qolardi-da: — Yo'q, Natashani o'zim bilan olib ketolmasam, hech qachon erga tegmayman; Natashani sira tashlab ketmayman, — derdi. Mana axir tashlab ketdilar-ku, kutmadilar-ku meni. Bo'lmasa, rahmatli qanday sevar edi meni! To'g'risini aytganda, u kishining sevmagan kishisi yo'q edi! Ha, otiginam, onangizni unut-sangiz bo'lmaydi; u kishi inson emas, osmondan tushgan bir farishta edi. Uning ruhi Xudoning dargohiga borganida, oxiratda ham sizni sevadi va o'sha yerdan sizni ko'rib ruhi shodlanadi.

— Nega endi Xudoning dargohiga borganida deyapsiz, Natalya Savishna? — so'radim men, — axir u hozir ham o'sha yerda bo'lsa kerak?

Natalya Savishna tovushini pasaytirib va menga yaqinroq surilib o'tirib:

– Yo'q, otiginam, hozircha uning ruhi shu yerda, – dedi.

So'ngra u yuqoriga ishora qildi. U pichirlayotganday sekin gapirar va shunchalik hissiyot va ishonch bilan so'zlardiki, men ixtiyorsiz ravishda ko'zlarimni yuqoriga ko'tarib, bir narsa axtarayotganday shipga qaradim.

– Taqvdor odamlarning ruhi jannatga ketishdan avval qirq kun davomida qirq chig'iriqdan o'tadi, otiginam, yana o'z uyida ham bo'la oladi...

Natalya Savishna shu tariqa uzoq gapirardi, u shunday bir soddalik va ishonch bilan gapirar ediki, go'yo o'zi ko'rgan va birovda zig'ircha ham shubha tug'dirmaydigan eng oddiy narsalar to'g'risida hikoya qiloyotganday edi. Men damimni chiqarmay uning gaplarini eshitar va garchi uning aytayotganlariga yaxshi tushunmasam ham, tamomila ishonardim.

– Ha, otiginam, u hozir shu yerda, bizni ko'rib, gaplrimizni eshitib turgan bo'lsa ham, ehtimol, – dedi oxirida Natalya Savishna.

So'ngra, boshini quyi solib, jim bo'lib qoldi. Ko'z-yoshlarini artish uchun unga ro'moli lozim bo'ldi. U o'rnidan qo'zg'aldi-da, yuzimga tik qarab, hayajondan qaltiragan ovoz bilan dedi:

– Xudo bu ishi bilan meni o'ziga yaqinroq chorladi. Mening endi bu yorug' dunyoda nimam qoldi? Kim uchun ham yashayman? Kimni suyib ardoqlayman?

– Hali bizni suymaysizmi? – o'pkalandim ko'zyoshlarimni arang tiyib.

– Sizlarni qanday sevishim Xudoning o'ziga ma'lum, lekin u kishini sevgancha sevmaganman va seva olmayman ham.

U ortiq gapirolmasdi, yuzini mendan o‘girdi-da, qattiq ho‘ngrab yubordi.

Men endi uqlash fikridan qaytdim; biz churq etmay bir-birovimapizga ro‘para o‘tirgancha yig‘lardik.

Xonaga Foka kirib keldi. Bizning avzoyimizni ko‘rib, ortiq behuzur qilmaslik uchun bo‘lsa kerak, indamay va qo‘rqa-pisa bizga tikilgancha eshik oldida to‘xtab qoldi.

– Nechuk kelding, Fokasha? – so‘radi Natalya Savishna ro‘moli bilan ko‘zyoshlarini artayotib.

– Kasha uchun bir yarim qadoq kishmish, to‘rt qadoq qand va uch qadoq so‘k berarkansiz.

– Hozir, hozir, otaginam, – dedi Natalya Savishna va shosha-pisha tamaki hidlagancha pildirab sandiq tomonga qarab ketdi. U o‘z burchiga nihoyatda muhim narsa deb qarar edi, shuning uchun bu ishni bajarishga kirishar ekan, suhbatlashayotganimizda hosil bo‘lgan qayg‘uli kayfiyatning so‘nggi izlari g‘oyib bo‘ldi.

– To‘rt qadoqning nima keragi bor? Uch qadoq ham yetib ortadi, – dedi u, vaysagancha tarozida qandni tortayotib. So‘ngra u bir necha bo‘lak qandni tarozidan olib qoldi.

– Bu nima degan gap o‘zi, kechagina sakkiz qadoq so‘k bergandim, bugun yana so‘rashibdi! Nima desang deyaver, Foka Demedich, lekin so‘k bermayman. Uyda besaramjonlik bo‘lib, Vankaning joni kirib qoldi: hamma o‘zi bilan o‘zi servor, bilishmaydi deb o‘ylaydi. Yo‘q, men xo‘jayinning molini anoyi qilmayman. Qayerda bir kunda sakkiz qadoq so‘k ishlatibdi?

– Nima qilgin deysiz? Hammasi ishlatildi, deyapti u.

– Yaxshi, ma, ol, olaver! Olsa ola qolsin!

Uning gaplashib turganidagi yurakni ezadigan bir hissiyotdan birdan vaysashga va mayda-chuyda hisobga o‘ta olgani meni hayratda qoldirdi. Keyinchalik bu xususda o‘ylab ko‘rib bildimki, u yuragidagi dardiga qaramasdan,

o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lmoq uchun keragicha kuch topa olgan, odat kuchi esa uni doimgi mashg‘ulotlarga tortib turar ekan. G‘am unga shu qadar kuchli ta‘sir etgan ediki, shunday bir paytda boshqa ishlar ham yuragiga sig‘ganini yashirishni lozim topmadi; u bunday bir fikrning kelishini hatto tushunmas ham edi.

Shuhratparastlik haqiqiy g‘am-g‘ussa bilan sira yopish-maydigan hissiyotdir va shu bilan birga bu hissiyot insonning tabiatiga shu qadar qattiq singib ketganki, hatto eng zo‘r qayg‘u-alam ham uni kamdan kam hollarda tark etadi. Qayg‘uli damlarda shuhratparastlik yo juda alamli, yoki baxtsiz, yoinki bardoshli bir ko‘rinishda namoyon bo‘ladi; biz tan olmaydigan bu tuban mayllar deyarli hech qachon – hatto eng zo‘r qayg‘uli damlarda ham bizni o‘z holimizga qo‘ymaydi, qayg‘u-alamni kuchdan, samimiylikni nafsoniyatdan mahrum etadi. Natalya Savishnani bo‘lsa baxtsizlik shu qadar yengib olgan ediki, uning qalbida hech bir orzu-istak qolmagan va u faqat odat bilan yashar edi.

Natalya Savishna talab qilingan masallig‘ni Fokaga bergenidan keyin poplarning dasturxoniga qo‘yiladigan piroglarni uning esiga soldi va uni jo‘natganidan keyin paypoqni olib, yana yonimga o‘tirdi.

Yana avvalgi gap boshlandi, yana yig‘lashdik, yana ko‘zyoshlarimizni artdik.

Natalya Savishna bilan har kuni suhbatlashib turgandik. Uning sokin ko‘zyoshlari va xudojo‘ylik bilan gapiradigan osoyishta gaplari menga quvonch va yengillik bag‘ishlar edi.

Lekin oradan ko‘p o‘tmay bizni ayirdilar: dafn mafrosimidan uch kun o‘tgach, biz butun oilamiz bilan Moskvaga ko‘chib keldig-u, shu-shu uni ko‘rish menga boshqa nasib qilmadi.

Buvim dahshatli xabarni faqat biz kelgandan keyingina eshitib, haddan tashqari qayg‘urdi. Bizni uning oldiga qo‘yishmasdi, chunki u butun bir hafta behush bo‘lib yurdi, doktorlar uning hayotidan xavotirda edilar, alalxusus, u hech bir dori ichmas, hech kim bilan so‘zlashmas, uxlamas va sira tuz totmas edi. Goho, u bir o‘zi uyida kreslo-da o‘tirib, birdaniga kula boshlar, so‘ngra ko‘zyoshisiz ho‘ngrab yig‘lar, uni titroq bosar va ma’nosiz yoki yaramas so‘zlar aytib, dahshatli bir tovush bilan qichqirar edi. Bu uning yurak-bag‘rini tilka-pora qilgan bиринчи zo‘r kul-fat edi. Bu g‘am uni juda mushkul bir ahvolga solib qo‘ydi. U o‘zining baxtsizligi uchun kimnidir ayblashi kerak edi, shu sababli og‘zidan dahshatli so‘zlar chiqar, juda darg‘azab bo‘lib kimgadir po‘pisa qilar, kreslodan sakrab turib, katta-katta qadamlar bilan uyda tez-tez yurar va so‘ngra o‘zidan ketib yiqlar edi.

Bir safar men uning xonasiga kirdim. U odatdagicha kreslosida o‘tirar va osoyishtadek ko‘rinar edi. Lekin uning qarashlari meni hayron qoldirdi. Ko‘zlar katta ochilgan bo‘lsa ham qarashlari belgisiz va ma’nosiz: u to‘g‘ri menga qarab turgan bo‘lsa ham, meni ko‘rmayotgandek edi. Uning lablari ohista kulimsiray boshladi va u juda ta’sirli, muloyim ovoz bilan: „Kela qol, azizim, kela qol, farishtam“, dedi. Menga aftyapti shekilli deb o‘yladim-da, yaqinroq bordim, lekin u menga qaramadi. „Oh, jonginam, mening naqadar azoblanganimni va kelganidagi qanchalik suyunganimni bilsang edi...“ Men uning xayolida mamanni ko‘rayotganini fahmlab to‘xtab qoldim. „Seni yo‘q deyishgandi menga, – deb so‘zini davom ettirdi chimirilib, – bu bemani gap! Nahotki mendan avval o‘lsang?“ – u shunday dedi-da, dahshatli bir asabiylilik bilan qahqaha urib kuldi.

Faqat qattiq seva oladigan kishilargina qattiq g‘am-alam tuyishlari mumkin; lekin o‘sha sevish ehtiyojining

o‘zi g‘am-alamni daf etib, ularga malham bo‘ladi. Mana shu sababdan insonning ma’naviy tabiatini uning jismoniy tabiatidan ko‘ra chidamliroq bo‘ladi. G‘amdan hech vaqt odam o‘lmaydi.

Oradan bir hafta o‘tgandan keyin buvim yig‘lay oladigan bo‘lib qoldi va ahvoli yaxshilandi. U o‘ziga kelar-kelmas, dastavval o‘ylagani biz bo‘ldik va bizga bo‘lgan mehr-muhabbati yanada ortdi. Biz uning kreslosidan uzoqlashmasdik, u ohistagina yig‘lar, maman to‘g‘risida gapiralar va mehribonlik bilan bizni erkalardi.

Buvimning g‘am-alamini ko‘rgan kishi u o‘z g‘amini oshirib ko‘rsatyapti deb o‘ylamasdi va buning ifodasi kuchli, ham juda ta’sirli edi. Lekin, bilmayman, nima uchundir, men ko‘proq Natalya Savishnaga achinardim va hozir ham mamanni hech kim bu oqko‘ngil, mehr-vafoli siymo singari samimiylar va chin ko‘ngildan sevmagan degan ishonchdamani.

Onam vafot qilishi bilan men uchun baxtiyor bolalik davri tugab, yangi davr – o‘smirlilik davri boshlandi. Lekin men boshqa ko‘rmagan va mening maslagimga hamda sezgirlik qobilyatimning o‘sishi juda zo‘r va ezgu ta’sir ko‘rsatgan Natalya Savishna to‘g‘risidagi xotiralarim birinchi davrga taalluqli bo‘lgani uchun uning o‘zi va o‘limi haqida yana bir necha og‘iz gapirmoqchiman.

Qishloqda qolgan kishilarning keyinchalik menga gapirib berishlariga qaraganda, biz jo‘nab ketganimizdan so‘ng Natalya Savishna nima qilarini bilmay juda zerikkan ekan. Butun sandiqlar hanuz uning qo‘lida bo‘lib, bu sandiqlarni tinimsiz timirskilab, ichidagi narsalarni yangidan joylashtirib, taxlab, yig‘ib-yig‘ishtirib yurgan bo‘lsa ham, lekin u o‘z xo‘jayinlari yashagan bu qishloq xonadonining shovqin-suron va besaranjomligiga bolalik chog‘idanoq o‘rganib qolgan ekan. Biz ko‘chib ketgach, Natalya Sa-

vishna bulardan mahrum bo‘lib qolgan. Bir tomondan g‘am, bir tomondan turmush tartibining o‘zgarganligi va qilar ishining tayini yo‘qligi tezda unda keksalarga xos kasallikni orttirgandi, uning o‘zida ham bunga moyillik bor edi. Onamning vafotidan rappa-raso bir yildan so‘ng unda istisqo kasali boshlanib, to‘sakka yotib qolibdi.

Petrovskoyedagi huvullab qolgan kattakon bir xonadonda qarindosh-urug‘siz, do‘s-t-yorlarsiz, yoppa-yolg‘iz yashash va ayniqsa, shu ahvolda o‘lim topish Natalya Savishnaga juda og‘ir bo‘lgandir deb o‘ylayman. Bu xonadondagilarning hammasi Natalya Savishnani sevar va hurmatlar edi. Lekin u hech kim bilan do‘s tutinmagan va bundan o‘zi faxrlanar edi. U ro‘zg‘orini yuritadigan xo‘jayinlar hamma narsani unga ishonib topshirgan, xilma-xil narsalar bilan to‘la qanchadan qancha sandiqlar uning qo‘lida bo‘lgani uchun birov bilan do‘splashish, albatta, yuz-xotirchilikka va ra’yi-andisha qilib xijolatga yo‘l qo‘yishga olib boradi, deb o‘ylardi. Shu sababli yoki boshqa xizmatkorlar bilan aloqa qilmagani uchun bo‘lsa kerak, u hammadan uzoq yurar va bu xonadonda mening egachi-singlim, quda-qudag‘ayim yo‘q va xo‘jayinning mol-mulkini hech kimga anoyi qilmayman, derdi.

U toat-ibodat bilan Xudodan tilak tilab, shundan o‘ziga tasalli izlar va ovunar edi. Lekin hammamizda ham bo‘lib turadigan xafalik onlarida ko‘zyoshlari to‘kish va jonli bir narsaga alahsish odamga eng yaxshi tasalli beradigan paytlarda u kuchugi Moskani ko‘rpasi ustiga qo‘yib (Moska sap-sariq ko‘zlarini unga tikib, uning qo‘llarini yalardi), u bilan so‘zlashar va uni erkalab jimgina yig‘lardi. Moska zorlanib angillay boshlagach, uni ovutmoqchi bo‘lib: „Bas, sen ishora qilmasang ham, tezda o‘lajagimni o‘zim bilaman“, derdi.

Vafotidan bir oy ilgari u o‘zining sandig‘idan oq kolengor, oq doka va pushti lentalar olibdi; oldidagi qizning

yordami bilan oq ko‘ylak, chepchik tikibdi va o‘lganidan keyin qilinadigan rasm-rusumlarning butun ikir-chikirlarigacha hammaga tushuntiribdi. So‘ngra xo‘jayinlarga qarashli sandiqlarni ham ochib, undagi narsalarni ro‘yxat bo‘yicha birma-bir qo‘ldan o‘tkazib, gumashta xotinga topshiribdi; keyin ikkita ipak ko‘ylakni, bir vaqtlar buvim unga hadya qilgan qadimgi shoyi ro‘moli va bobomning zarhal uqali harbiy mundirini sandiqdan chiqaribdi. Bu mundir ham unga bisot qilib berilgan edi. Uning ehtiyyotkor va saranjomligidan mundirning chok va jiyaklari sira eskirmagan, movutiga kuya tushmagan edi.

Natalya Savishna o‘limi oldidan bu ko‘ylaklardan pushtisini xalat yoki kamzul qilib tiktirish uchun Volodyaga, katak ko‘ylakni shu maqsad uchun menga, sholro‘molini esa – Lyubochkaga berishni vasiyat qilibdi. Mundirni qay birimiz oldin ofitser bo‘lsak o‘shanga berishni tayinlabdi. Dafn va xayr-xudoyi uchun ajratilgan qirq so‘mdan tashqari o‘zining hamma mol-mulki va pullarini inisiga vasiyat qilib qoldiribdi. Uning inisi allazamonlar ozod qilingan bo‘lib, uzoq bir guberniyada harom-harish turmush kechirar, shu sababli Natalya Savishna tirikligida u bilan hech qanday aloqada bo‘lmagandi.

Natalya Savishnaning inisi meros olgani kelganda, undan qolgan bor-bisoti atigi yigirma besh so‘mlik ekanligi ma’lum bo‘ldi. Inisi bunga ishonmasdan, badavlat bir xonadonda oltmis yil yashab hamma narsa qo‘lida bo‘lgan, bir umr ayab-tejab kun kechirgan va har bir lattasining ustidan titrab-qaqshagan bir kampirning hech narsa qoldirma-gan bo‘lishi mumkin emas, derdi. Lekin bu haqiqatan ham shunday edi.

Natalya Savishna ikki oy dard chekibdi va bu dard-alamlarga chinakam xristianlarcha sabr-toqat bilan chi-

dabdi. U g‘ingshimabdi, nolib shikoyat ham qilmabdi, faqat o‘z odaticha, kecha-yu kunduz Xudoni yod qilibdi. U o‘limidan bir soat ilgari sokin bir quvonch bilan Xudodan gunohlarini kechirishini so‘rabdi, diniy marosimda qatnashibdi va tanasiga moy surtibdi.

U uydagilarning hammasidan orada bo‘lib o‘tgan yaxshi-yomon gaplar uchun kechirim so‘rabdi va o‘z piri Vasiliy otadan bizning mehribonchiliklarimiz uchun qanday qilib minnatdorlik izhor qilishni bilmayotganini aytib qo‘yishni va mabodo nodonlik bilan bizdan birontamizni xafa qilib qo‘ygan bo‘lsa, kechirishlarini o‘tinibdi va „Hech qachon o‘g‘irlilik qilmaganini va xo‘jayinning bir qatim ipiga ham xiyonat qilmaganini“ aytibdi.

Tayyorlab qo‘ygan yaktak ko‘ylagini va bosh kiyimini kiyib, yostiqqa yonboshlagancha oxirgi nafasgacha pop bilan gaplashib o‘tiribdi, kambag‘allarga xayr-ehson qilishga hech narsa qoldirmayotgani esiga tushgach, o‘n so‘m pul chiqarib, uni cherkovning kambag‘al qavmlariga bo‘lib berishni vasiyat qilibdi; so‘ngra cho‘qinibdi va cho‘zilib, quvonchli bir tabassum bilan Xudoning nomini tilga ola turib, so‘nggi nafasini olibdi.

U dunyodan o‘tayotganiga sira afsus qilmabdi, ajaldan qo‘rqmabdi va uni xayrli bir narsadek qarshi olibdi. Bunday hollarda odamlar ko‘pincha gapirsalar ham, lekin bu turmushda kamdan kam bo‘ladigan narsa: Natalya Savishna o‘limdan cho‘chimaganligining sababi shuki, u injilning butun qonunlarini ado etib, mustahkam bir iymon bilan o‘lgan. Uning butun hayoti sof, beg‘araz muhabbat va fidoyilik bilan o‘tdi.

Nima ham derdik, uning e’tiqodi, balki, bundan ham oliv maqsadlarni ko‘zlagandir; shu sababli bu pok qalbga ortiqcha mehr-muhabbat qo‘ymay, undan ortiqcha hayratlanmay bo‘lar ekanmi?

Natalya Savishna bu hayotda ajoyib va juda ulug‘ ish qildi – u o‘layotganida afsuslanmadi va o‘limdan qo‘rqmadi.

Uni o‘z xohishiga ko‘ra, onamning qabri ustidagi butxonaga yaqin bir yerga dafn etdilar. Qabrining ustini chakamug‘ bilan qichitqio‘t qoplagan bo‘lib, atrofi qora panjara bilan o‘rab qo‘yilgan. Onamning qabrini ziyyorat qilar ekanman, bu panjara oldiga kelib, yer o‘pib sajda qilishni hech qachon kanda qilmayman.

Goho men butxona bilan qora panjara oralig‘ida beixtiyor to‘xtab qolaman. Shunda dilimda og‘ir xotiralar uyg‘onadi. Miyamga shunday bir fikr keladi: nahotki taqdir umrbod achinishga majbur etmoqlik uchungina meni bu ikki siymo bilan birlashtirgan bo‘lsa?..

MUNDARIJA

Nashriyotdan	5
<i>I bob.</i> O‘qituvchi Karl Ivanich.....	8
<i>II bob.</i> Maman.....	15
<i>III bob.</i> Otam.....	18
<i>IV bob.</i> Darsxona	23
<i>V bob.</i> Telba-devona	27
<i>VI bob.</i> Ov taraddudi.....	32
<i>VII bob.</i> Ov.....	35
<i>VIII bob.</i> O‘yinlar.....	40
<i>IX bob.</i> Birinchi sevgiga o‘xshash bir narsa	42
<i>X bob.</i> Otam qanday odam edi?	44
<i>XI bob.</i> Kabinet va mehmonxonadagi mashg‘ulot.....	47
<i>XII bob.</i> Grisha.....	51
<i>XIII bob.</i> Natalya Savishna	54
<i>XIV bob.</i> Ayriliq.....	59
<i>XV bob.</i> Bolalik.....	64
<i>XVI bob.</i> She’riy misralar	68
<i>XVII bob.</i> Knyaginya Kornakova	75
<i>XVIII bob.</i> Knyaz Ivan Ivanich.....	80
<i>XIX bob.</i> Ivinlar.....	85
<i>XX bob.</i> Mehmonlar yig‘ilishgani.....	93

<i>XXI bob.</i> Mazurkadan avval.....	98
<i>XXII bob.</i> Mazurka.....	103
<i>XXIII bob.</i> Mazurkadan keyin.....	106
<i>XXIV bob.</i> To'shakda.....	111
<i>XXV bob.</i> Xat	113
<i>XXVI bob.</i> Qishloqda bizni nima kutardi	120
<i>XXVII bob.</i> G'am	123
<i>XXVIII bob.</i> Oxirgi qayg'uli xotiralar.....	129

Adabiy-badiiy nashr

LEV TOLSTOY

BOLALIK

Qissa

, „Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2022

Muharrir

Abdurahmon Jo‘rayev

Badiiy muharrir

Nasiba Ergasheva

Musahhih

Zikrilla Mamatov

Sahifalovchi

Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
13.07.2022da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Offset qog‘ozi. „Times“ garniturasida offset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 7,56. Adadi 1000. Shartnomा № 147–20.
Buyurtma raqami

, „Ziyo nashr“
Mas’uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

, „DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodи“
bosmaxonalarida chop etildi.

, „DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 28-a uy.
„Yangi asr avlodи“ MCHJ
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko‘chasi, 60-uy.

Tolstoy, Lev.

T 63 **Bolalik** [Matn]: qissa / Lev Tolstoy; tarjimon: X. Muhammadxonov.
– T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 144 b.

ISBN 978-9943-6831-8-1

**UO'K 821.161.1
KBK (842Rus)**

LEV
TOLSTOY

BOLALIK



ZIYO NASHR



fb.com/zoyo.nashr



zyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6831-8-1

9 789943 683181